

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma xuquqida

UDK

ANNAQULOV SHAVKAT G'OFUROVICH
NUROTA VOHASI TARIXI

07.00.06 - Arxeologiya

Magistr akademik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya

Ilmiy rahbar:

prof.Djurakulov M.D

Samarqand 2013

BOB I. NUROTANING GEOGRAFIK VA TARIXIY JOYLASHUVI. NUROTA TUMANING TASHKIL TOPISHI	13-41
I.1. Tabiiy geografik joylashuvi	13-23
I.2. Nurotaning tarixiy joylashuvi	23-41
BOB II. NUROTA TUMANING NAVOIY VILOYATI IQTISODIY TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI	42-64
II.1 Xo'jalik yutirlari	42-56
II.2. Tumanning iqtisodiy tarzi	56-60
II.3. Madaniy hayoti	60-64
III BOB. NUROTA VOHASI AHOLISI ETNOGRAFIYASI	65-65
III.1. Milliy urf odatlar	65-72
III.2. Milliy hunarmandchilik	72-82
III.3. To'y bayram va boshqa xasham ma'rosimlari	82-85
XULOSA.....	85-92
Foydalanilgan adabiyotlar.....	93-96
Illyustrasiya(Ilovalar)	

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi tufayli ajdodlarimiz yaratgan ilmiy, tarixiy va tafakkur mahsuli bo'lgan boy tariximizni, me'moriy obidalarimizni, madaniyatimizni, qadriyatlarimiz o'tmishini bilish, hamda o'zligimizni anglashga keng imkoniyatlar yaratildi. Biz endilikda avlod ajdodlarimiz kim bo'lganligini, o'zimiz tavallud topib voyaga yetgan makon, qishloq ilm-fan va ma'rifat o'chog'i bilan avlodlarimizni ma'naviy qurollantirishda muhim rol o'ynagan shaharlarimizning, xullasiki, Vatanimiz tarixini beg'ubor va beminnat o'rganish imkoniyatlariga ega bo'ldik. Xalqimizning o'z tarixi, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqish ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki avlod-ajdodi kimligini nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullasiki, Vatanining tarixini bilishni istaydi.¹

Mustaqillik sharofati tufayli mamlakatimiz, jumladan, viloyat va shaharlarimiz tarixini atroflicha o'rganishga, ajdodlarimizdan meros sifatida bizgacha saqlanib qolgan an'ana va urf odatlarimizdan foydalanishga, eng qadimiy davrlardan boshqa elatlar bilan tarixiy-madaniy aloqalar jarayonida rivoj topgan va bevosita ularning bayramlariga ta'sir etgan hamda ular ta'sirida boyigan, shakllana boshlagan, avloddan-avlodga o'tib, takomillashib, bebaho merosga aylangan milliy bayramlamizni nishonlashga keng ko'lamli imkoniyat tug'ildi. Zero Bayramlarni nishonlamaydigan shaxs, oila yoki jamoani topish qiyin. Har bir millat va davlatning ham o'z bayramlari bo'ladi. Keyingi davrlarda xalqaro darajada nishonlanadigan umuminsoniy bayramlar tobora ko'paymoqda.

Mustaqillik sharofati bilan odat, marosim va bayramlar ildiz tarixi, ularning xalqimizning madaniy hayotidagi o'zni o'rganila boshlandi, qadriyatlarimiz ulug'landi. Biroq o'zbek xalqi bayramlari tarixi, an'analari va hozirgi tarixi, an'analari hamda hozirgi holati atroflicha keng o'rganilgan emas. Qadimgi va

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7- Jild. T.: Yosh.1999 y. 132- bet.

hozirgi bayramlarning paydo bo'lishi, tarixiy rivojlanishi, muammolari haqida maxsus monografiya, ilmiy-ommabop kitob, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish tarixiy zaruriyatdir. Chunki xalq o'z vatanida paydo bo'lgan, ajdodlari nishonlab kelgan va hozirgi paytda nishonlanayotgan bayramlarning tarixi va an'alarini bilmog'i kerak. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish haqida»gi qarorida tarix fani muommolariga, tarixni milliy istiqlol mafkurasini nuqtai nazaridan o'rganishning falsafasi va uslubiyatini egallash masalalariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Bu hujjatda birinchi navbatdagi vazifalar sifatida «o'zbek xalqi va davlatchiligining haqiqiy tarixini o'rganish» ko'rsatib o'tilgan.²

Mustaqillik - o'zbek madaniyati tarixida yangi davrni boshlab berdi. Istiqlol tufayli sho'rolar davrida taqiqlangan milliy ma'naviyatimiz qayta tiklandi. «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasi ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi», - deb ta'kidlagan edi mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov.

Shuningdek, yurtboshimiz bu borada tarixchi olimlarimiz oldiga sharaflilik va dolzarb vazifa qo'yib «Davlatimiz, mamlakatimizning haqqoniy ilmiy, tarixini yaratish, keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylantirish lozim», - deb ta'kidlagan edi.³

Respublikamizda milliy qadriyatlarni tiklash borasida keng ko'lamda jiddiy tadbirlarning amalga oshirilishi – jamiyatimiz ma'naviyati «binosi»ning qad rostlashiga muhim omil bo'lmoqda. Bularning barchasi Mustaqillik tufayli o'zbek bayramlari tarixida yangi sahifa ochdi.

Jumladan ajoyib mamlakatimiz har bir go'shasining o'ziga xos tarixi va aholisining turli urf-odatlari bilan bog'liq an'alari bor. Bu an'alar har doim

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент.: «Ўзбекистон», 1998. 8-бет.

³ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7- Jild. Tosh.1999 y. 154- bet.

xalqimizning xo'jalik, turmush va ma'naviy poydevoriga ega ekanligidan hikoya qilib, ularni qunt bilan o'rganish milliy mafkuramizni yaratish va shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'alariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim. Shu bilan birga bu mafkura xalqimizda, o'zining qudrati va himoyasiga suyanan holda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi taraqqiy etgan davlatlar orasida teng huquqli o'laroq munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

Milliy ruhiyat, ijtimoiy ong, oilaviy va ma'naviy hayotning hozirgi davr talabiga javob bera oladigan darajada rivojlanishi, shubhasiz, xalqning erkinligi, uning davlat tuzilishi bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy ilm ma'rifat va madaniyatning yuqori pog'onalariga ko'tarilgan o'zbek xalqi o'zining mustaqillikka erishgan kunidan boshlab yangi istiqlol yo'lida dadil qadam tashlashi, uning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotining har tomonlama ravnaq topishida va milliy mafkuraning rivojlanishida asosiy zamin bo'ladi. Yurtboshimiz Islom Karimov «Fidokor» gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida shunday degan edi: «Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi... jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlarora totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'pdan-ko'p muhim masalalardan iborat»⁴. Uning ta'rificha endigi eng dolzarb vazifamiz bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularni yangi-yangi qirralarini ochib berishdan iborat. Demak, milliy istiqlolga erishgan, o'z yo'lini topishga, o'z taqdiri istiqbolini anglashga endi kirishayotgan respublikamiz rivoji o'z elining

⁴ «Фидокор» газетаси, 2000 йил 8 май

murakkab tarixini, etnik hususiyatlarini aniq bilishni, uni chuqur tariflashni, xalqimizning ma'naviy barqarorligini ta'minlashni taqozo qiladi.

Mustaqillik sharofati bilan odat, marosim va bayramlar ildiz tarixi, ularning xalqimizning madaniy hayotidagi o'rnini o'rganila boshlandi, qadriyatlarimiz ulug'landi.

Mamlakatimiz boy tarixga ega va asrlar osha ilm-fan va ma'rifat markazlari bo'lib, jahon uzra madaniyat durdonalarini tarqatib kelgan yirik markazlar, - shaharlar shakllangan. Shulardan biri qadimiy va navqiron Nurota shahridir. Nurota Buyuk Ipak yo'li ustidagi insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy shaharlari va markazlaridan biri bo'lib, jahon madaniyati va fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan. Nurota o'zining necha ming yillik tarixi jarayonida o'z boshidan ne-ne larzali tarixiy silsilalarini kechirmadi deysiz, ammo beshavqat davr sinovlaridan omon qolib, ajdodlarimizning uzoqni ko'zlab yaratgan, madaniy merosini, fan va madaniyatimizning yuksak fazilatlarini avlodlarga yetkazib berishda ham xizmati buyuk va mashhur shahardir.

O'zbekistonning tabiiy-geografik va iqlimiy sharoiti aholining nafaqat xo'jalik faoliyati va turmush tarzi, balki ko'p qirrali ma'naviy madaniyati va milliy ruhiyati hususiyatlarining shakllanishida ham muhim omil bo'lib qolgan. Qadimdan diyorumizda mazkur sharoitda moslashgan uch xil an'anaviy xo'jalik mavjud bo'lgan: vohalarda yashovchi o'troq dehqonchilik xo'jaligi, dasht va yarim dashtlarda qisman ko'chib yurgan aholining chorva xo'jaligi, vohalarga yaqin va quyi oqimida joylashgan chorva-dehqonchilik xo'jaligi. Xo'jalik-madaniy tiplarning chegarasi etnik hududga to'g'ri kelmaydi. Ammo tarixiy jihatdan etnik madaniy birlik uzoq davr ichida xo'jalikka mos ravishda shakllanib kelgan. Nurota tabiiy geografik va iqlimiy sharoitiga ko'ra madaniy o'troq va ko'chmanchi xalqlar yashaydigan hudud chegarasida joylashgan.

Darhaqiqat, Nurota tuprog'i tabarruk va mo'ta'bardir. Bu zamin ajdodlarimizning beg'ubor ruhiyati, qanchadan - qancha buyuk sahobalarning qadami tekkan va yashagan. Ko'hna Nurota o'zining boy me'moriy obidalariga

ham egadir. Bu yerda qadimdan insonlar yashab o'zlarining izlarini qoldirishgan. O'rta asrlar davridan boshlab shaharda qurilish ishlari rivojlanadi.

Maqsad va asosiy vazifalar. Miliy urf odatlarimiz, bayramlarimiz, an'analarimiz va to'y ma'rosimlarimizning tarixiy ahamiyati hamda bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda tutgan o'rni, milliy istiqlol g'oyasini shakllantrish va uni yosh avlodga singdirishda tutgan o'rini ahamiyati xususida atroflicha to'xtalib o'tilgan. Bundan Chor mustamlakasining O'rta Osiyoni bosib olganidan keyingi yillarda respublikamizning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Nurota vohasidagi tarixiy obidalarga, milliy urf odatlar va milliy an'analarimizga bo'lgan munosabatini, ularning saqlanish holatini va istiqlolga erishganimizdan so'ng tarixiy obidalarimizga va milliy urf odatldarimiz, an'analarimiz va tarixiy bayramlarimizga ko'rsatiladigan munosabatni atroflicha ko'rsatib o'tishga harakat qilingan. Chunki sho'rolar davrida o'lkadagi ko'p yodgorliklar qarovsizlikdan xarob holga kelib qolgan bo'lsa, tarixiy bayramlarimiz va milliy urf odatlarimizni diniy ma'rosimlarimiz unitilish holatiga milliy ma'daniyatimiz esa xo'rlangan oyoq osti qilinish darajasiga kelib qolgan edi. Chunki milliy ma'daniyatimiz va tariximizni yo'q qilishga bo'lgan urinishlar sabab bo'lgan. Bundan tashqari milliy urf odatlarimiz, asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan an'analarimiz, milliy bayramlarimiz necha yillar davomida xo'rlanib oyoq osti qilingan. Mustaqillikka erishganimizga qadar ajdodlarimiz ming yillardan buyon qo'llab kelgan urf-odatlarimizni qo'llashdan, ulardan foydalanishdan qo'r qar edik, to'g'risi qizil imperiya mafkurasi bunga yo'l bermas edi. Nurota vohasi xalqi bayramlari, an'analari tarixi, an'analari va hozirgi holati atroflicha keng o'rganilgan emas. Qadimgi va hozirgi bayramlarning paydo bo'lishi, tarixiy rivojlanishi, muammolari haqida maxsus monografiya, ilmiy-ommabop kitob, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilmagan, yaratish esa o'z o'rnida tarixiy zarurlardan biri sanaladi. Bu mavzuda tadqiqot ishining olib borilishi kelajakdagi ilmiy-amaliy izlanishlar uchun imkon yaratadi. Nurota shahrining markazida o'zining qadimiyligi bilan bugungi kunda xalqlarning

o'tmish tarixi haqida guvoh bo'lib turgan Nur qal'asi Nurotaning qanchalar tarixiy va qadimiy shahar ekanligi ko'rsatib turibda. Shunday ekan bu shahar qo'rg'on qoldiqlari hamon to'laligicha o'rganilgan emas. O'zining sir sinoatlarini omma etiboriga namoyish etmagan. Qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Qo'qon, Toshkent, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarimizning yubeylelari nishonlanayotgan bir vaqtda Nurota shahrining tarixiy yoshini aniqlash bu o'z navbatida tarix haqiqadir.

Bu ilmiy ishning asosiy maqsadi istibdod davridagi me'moriy yodgorliklarning holatini va ular ustida olib borilgan ishlarni mustaqillik davrida yurtboshimiz tomonidan tarixiy-me'moriy yodgorliklarni asrash bo'yicha amalga oshirilgan, xalqimizning necha ming yillardan buyon shakllanib kelayotgan milliy urf odatlari Nurota vohasining o'ziga xos tarixi, milliy ma'naviyat va milliy madaniyat shakllantirishda urf odat va an'analarimizning o'rni hamda ahamiyatini ko'rsatib berishdan iboratdir. Bundan tashqari asrlar osha mamlakatimiz shaharsozlik tarixining qadimiy na'munasi sanalgan Nurota shahri unda saqlanayotgan ko'hna va navqiron Nur qal'asi hamda Nurota shahrining qadimdan qanday siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi to'g'risidagi fikrlarga alohida ahamiyatini ko'rsatib berishdan iborat.

Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda bu ilmiy ishda qo'yidagi masalalarni hal etishga harakat qilingan:

1. Nurota vohasi va Nurota shahrining tabiiy geografik joylashuvi, Nurota toponimining vujudga kelishi
2. Nurota tarixidan saxifalar, XX asr boshlarida Nurota vohasi va Nur qal'asida olib borilgan tadqiqotlar
3. Nurota vohasi xo'jalik yutuqlari. Nurota vohasining sug'orilish tarixi, Nurota korizlari va Abdullaxon bandining tarixiy ahamiyati.
4. Mustamlakachilik yillarida Nurota shahri va Nurota vohasi aholisining milliy urf odatlari, me'moriy yodgorliklarning holati.

5. Mustaqillik yillarida Nurota tumanida tarixiy-me'moriy yodgorliklarning ta'mirlanishi va qayta tiklanishi.

6. Nurota shahri va Nurota vohasi aholisining xo'jaligi, turmush tarzi.

7. Madaniy me'rosimizning o'rganilishi va uni kelajak avlodlarga yetkazish masalalari.

Nurota vohasidagi me'moriy yodgorliklar o'sha davr rus va mahalliy tadqiqotchi olimlar tomonidan XX asrdan boshlab o'rganila boshlangan. Yodgorliklar ustida olib boriladigan ishlar esa mahalliy ro'znomalarida va to'plamlarda nashr etib borilgan. Sho'rolar davridagi yodgorliklarning o'rganilishi natijasi dissertatsiyada ishlar xronologik davriy ketma-ketlikda berilgan. Bularning natijasida ilmiy tarixiy ma'lumotlar to'plana borgan.

Muammoning ishlab chiqarish darajasi. Nurota vohasidagi tarixiy yodgorliklari, etnografiyasi, ijtimoiy iqtisodiy hayoti, hunarmandchiligi hamda vohaning sug'orilish tarixi jumladan, Abdullaxon bandi va Nurota korizlari qisman o'rganilgan. Bu sohani o'rganishda taniqli arxeologlardan Ya.G'.G'ulomov, P.Sh.Zohidov, O.M.Rostovsev, X.Muhammedov, A.Muhammadjanovlar qisman qisqa muddatli tadqiqod ishlarini olib borishganlar.

Bu o'rinda bir masalaga e'tibor qaratishni lozim topdik. Ma'lumki, dehqonchilik va sug'orish inshoatlari tarixi anchayin qiziqarli mavzu hisoblanadi. O'zbekistonning qadimgi viloyatlari hududidan dehqonchilik mahsulotlarining qoldiqlari, mehnat qurollari, qishloq xo'jalik mahsulotlari saqlanadigan idishlar, sug'orish inshoatlari ildizlarining topilishi xo'jalik yuritishning muayyan turidan dalolat beradi. Sug'diyonadagi miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalariga oid dehqonchilik va sug'orish inshoatlari to'la-to'kis o'rganilmagan. Bu o'rinda akademik Ya.G'ulomovning o'tgan asrning 60-yillarida Zarafshon va Qashqadaryoning quyi oqimlaridagi qadimgi yerlarni sug'orishning o'ziga xos xususiyatlari va gidrografiyasiga oid masalalarini tadqiq etganligini ta'kidlash zarur. Ayniqsa, A.Muhammadjonovning antik va o'rta asrlarga oid sug'orish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarini alohida qayd etish lozim.

Olimlar tomonidan olib tadqiqodlar natijasida aniqlanishicha Nurota tumani mamlakatimiz hududida sug'orilish tarixida keng qo'llanilgan korizlar mavjud tuman sanaladi. Olib borilgan kuzatishlar natijasida aniqlanishicha Nurota tumani hududida 360 ta ma'na shundan sug'orish inshootlari mavjud ekanligi aniqlangan. Tuman hududidagi korizlarning eng qadimiylari esa miloddan oldingi IV-III asrlarga borib taqaladi. Nurota tumanining sug'orilish tarixi haqida gapirganda eng avvalo bugungi kunga qadar qisman bo'lsada o'rni saqlanib qolgan 16 asrda bunyod etilgan qadimiy suv omborilaridan bo'lgan Abdullaxon bandi suv ombari haqida to'xtalib o'tish joiz. 1913-yilda N.A.Dimo tomonidan topilgan bo'lsa, mazkur yodgorlikda o'tgan asrning 60-yillarida taniqli olimlar Ya.Ya.G'ulomov va X.Muhammadjanovlar tomonidan tadqiqot ishlarini olib borgan.

Bugungi kunda o'zining haybatli xarobalari bilan hammani o'ziga mahliyo etib turgan qadimiy va navqiron Nur qal'asida taniqli arxeolog Ya.G'.G'ulomovning olib borgan tadqiqotlari natijasida qal'adan eramizning I-IV asrlariga oid arxeologik ashyolar topilgan. Nur qal'asi atrofida arxeologik kuzatishlar olib borgan olim O.Rostovsev mazkur hududda odamzod izlari milloddan avvalgi 42-38 ming yilliklarga borib taqalishini aytib o'tgan.

Tabiatning noyob tufhasi sanalgan Nurota shahrini suv bilan ta'minlab turgan Nur chashmasi hisoblanadi. Uning qanday va qachon paydo bo'lganligi haqida hech qanday ma'lumotlar mavjud emas.

Bundan tashqari bugungi kunda Nurota tumanining turli hududlarida jumladan qadimda Kuchot deb nomlangan hozirda tumanning Soykechar qishlog'i yaqinida Qoratog' etagida va Nurota shahrining sharqiy qismida tuman markazidan 35-40 km masofadagi Tutaqsoy qishlog'ida saqlanayotgan qadimiy qoyatosh suratlari hali hamon to'laligicha o'rganilgan emas.

Ilmiy ishni yozishda yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlari maxsuli sanalgan kitoblari, yani asosiy adabiyotlar bilan birga Prezidentimizning qarorlari, ilmiy maqolalar, to'plamlar, shuningdek bir qator

gazeta va jurnallar so'rov-surishturuv ishlarim hamda o'zimning keyingi yillarda olib borgan dala so'rov – surishturuvlari natijasida to'plagan ma'lumotlarimdan ham foydalandim.

Ilmiy ishning yangilik jihati shundaki unda istibdod davridagi o'rganilgan ishlar chuqurroq talqin etilib, ularni to'ldirishda internet ma'lumotlaridan ham foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotda istibdod davridagi chiqarilgan ma'lumotlar bir-biri bilan solishtirilib, ularning eng ishonchlilaridan foydalanilgan. Ilmiy ishda Nurota tuman aholisining bugungi kundagi etnik tarkibi va ulardagi milliy urf odatlar, bayramlar shuningdek turli marosimlar o'z ifodasini topgan.

Tadqiqotda amaliy jihatdan Nurota tumani va Nurota vohasidagi me'moriy yodgorliklarni istibdod, mustaqillik davrlari holati, xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy urf odatlari, an'alarini keng yoritib berishga harakat qilingan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda tuman aholisining turmush tarzida Nurota shahrida amalga oshirilgan ishlar, hamda iqtisodiy ma'daniy, ma'rifiy sohada amalga oshirilgan ishlar to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi munosabati boshqaruv, ta'lim va iqtisodiy sohada erishilgan hamda bu islohatlarining Nurota tumanida qay holda amalga oshirilgandiligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan ta'lim va sport sohalarida, shaharsozlik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida olib borilayotgan ishlar o'z ifodasini topgan. Har bir yodgorlik ustida olib borilgan ishlar amaliy jihatdan ular haqidagi bor ma'lumotlarga tayangan holda olib borilgan. Bundan tashqari mazkur yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari va ularning natijalari yoritib berilgan ilmiy materiallardan foydalangan holda ilmiy izlanish olib borilgan. Nurota vohasining tarixi qisman bo'lasada yoritish maqsadida dala arxeologik so'rov-surishturuv ishlari olib borgan holda to'plagan materiallar asosida ish olib borildi. Nur qal'asi va chashma majmuasi atrofidagi yodgorliklar, Nurota vohasidagi qadimiy tepaliklar va bundan tashqari sug'orish inshootlari bo'lgan, korizlar, Abdullaxonbandi to'g'on suv ombarida kuzatuv ishlari olib borildi. Arxiv

materiallaridan foydalangan holda to'plangan ma'lumotlarga tayanib mavzuning mazmuni va asosiy maqsadni yoritib berishga harakat qilindi.

I BOB

NUROTANING GEOGRAFIK VA TARIXIY JOYLASHUVI. NUROTA TUMANINING TASHKIL TOPISHI

I 1. Tabiiy geografik joylashuvi.

Nurota vohasi qadimgi tarixiy o'lkalardan sanaladi. Bu vodiy Qoratog' va Oqtov oralig'idagi vodiy bo'lib, sharqdan shimoliy yo'nalishga qarab 100-130 km masofani tashkil etadi. Uning ayrim joylarining kengligi 20-25 kmgacha boradi. Nurota tizma tog'lari Pomir-Oloy tog' tizmasining shimoli-G'arbiy tarmog'i bo'lib, Nurota vohasini shimol va g'arb tomondan o'rab turadi. Tog' tizmasini G'ubdin tog', Qaroqchi tog', Qo'ytosh tog'lari bilan qo'shib hisoblaganda, janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon 500 km.ga cho'zilgan. Tog'ning eng baland joyi Hayotboshi cho'qqisi bo'lib, uning balandligi 2169 metr ga teng. Janubi-sharqda Sangzor daryosidagi Ilonutdi tog' yo'lagi Nurota tizmasini Molguzar tizmasidan ajratib turadi. Nurota tizmasining janubi-g'arbiy tarmog'i Oqtog' bo'lib, tog'ning kengligi 50-70 km. platformani tashkil etadi. Shimoliy yonbag'ri bepoyon qizilqumga, u orqali Aydarkulga hamda Qozog'iston dashtlariga tutashib ketadi. Vohani janubi-g'arbdan Zarafshon vohasi va Zomin tog' tizmalari o'rab turadi.⁵ Ma'muriy jihatdan Nurota vohasi hududlari Respublikamizning Samarqand viloyatining Qo'shrobot tumani, Navoyi viloyatining Nurota va Xatirchi tumanlari tarkibiga kiradi. Vohaning iqlimi asosan qishi sovuq, yozi issiq kechadi. Hududi tog' va tog' oldi tekisliklariga to'g'ri keladi va mazkur tekisliklarda joylashgan dehqon va chorvador o'zbek urug'lari istiqomat qiladi. Nurota vohasi hududlarini Nurota tumanniing sharqiy qismi va Qo'shrobot tumanlarining g'arbiy qismlari hududlari tashkil etadi. Vohaning asosini Qo'shrobot tumanining eng yirik qishloqlaridan Oqtog' va Qoratog' bag'rida joylashgan Qo'shrobot, Navkat Pangat, Shova, Qovunchi, Qoratosh, Qo'shtamg'ali, Jo'sh kabi yirik qishloqlari hamda Nurota tumanining Jilontamg'ali, Tikanli, Paponay, Soykechar, Chuya, Oqqula, Jarma, Yangiobot, Xayrabot, Yangibino va Nurota shahri va eng chekka

⁵ Кориёв М. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент.: 1968. 44-бет

qismini Dehbaland va G'ozg'on qishloqlari tashkil etadi. Mazkur hudud o'simlik va hayvanot dunyosi ancha boy bo'lgan vohalardan sanaladi. Nurota vohasining asosiy qismini Nurota tumani tashkil etadi.

Nurota tog' tizmalari Pomir - Oloy tog' tizmasining shimoli - g'arbiy tarmog'i bo'lib, Nurota vodiysini shimol tomondan o'rab turadi. Janubda esa viqorli, go'zal, so'lim daralarga boy, chiroyli manzarali Qorator (Ko'hi siyoh), Oqtov (Ko'hi safed) va Baxitov yastanib yotadi. Nurota tog' tizmasidagi Hayotboshi cho'qqisi 2169 metr, Oqtovning esa eng baland cho'qqisi Taxtko'h bo'lib, u 2005 metrga bo'y cho'zgan. Oqtov o'z atrofidagi tog'lar orasida eng go'zali. Unda qor tez erib ketmaydi. Issiq boshlanib, jilg'alar oqqanda ham u bamisoli qor malikasidek oq va moviy rangda tovlanib ko'zga tashlanadi Nurota tog'lari g'arbdan Qizilqum tekisligiga tutashib ketadi.

Nurotaning geografik jihatdan qulayligi qadimdan e'tiborda bo'lgan. Xitoy bilan Yevropani bog'laydigan Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i-Nur, Mingbuloq botig'i, Xorazm orqali Volgagacha borgan.⁶ Darhaqiqat, o'tmishda O'zbekiston hududida g'arbdan sharqqa o'tuvchi ikkita yo'l bo'lgan. Biri Zarafshon vodiysi orqali o'tgan bo'lsa, ikkinchisi Farg'ona vodiysidan o'tgan.

Nurota tumanining deyarli markazida Nurota shahri joylashgan. U dengiz satxidan 500 - 512 metr balandlikda joylashgan. Nurota qadimgi Buyuk ipak yo'li tarmog'i ustidagi ko'hna qo'rg'on-shahar. Taniqli olimlar Ya.G'ulomov, P.Sh.Zohidov, O.M.Rostovsevlarning olib borgan dastlabki izlanishlari Nur chashmasi atrofida yuqori paleolit davrida ham ibtidoiy odamlar – ajdodlarimiz yashaganligini ko'rsatadi. O'zbekiston FA Arxeologiya instituti olimlarining fikricha, Nur chashmasi atrofidagi madaniy qatlam 35-40 ming yilni tashkil kiladi.

Islomga e'tiqod qiluvchi musulmonlar shaharda muqaddas chashma va aziz – avliyolarning qabri va qadamjolari mavjudligini e'tirof etib, shaharni «Nurota - Nuri Xudo», «Kichkina Makka» deya ulug'lashgan. Bu esa Nurotaning

⁶ Хошимов М. Буюк Ипак йўлининг Самарқанд вилоятидаги туристик йўл кўрсатгичи. Самарқанд.: Зарафшон, 2012. 103-бет

tashqi dunyo bilan aloqasining yanada kengayishiga, ma'lum va mashhur bo'lishiga olib kelgan.

O'tmishda nurotaliklar Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i o'tgan Pashshot (Nurota shahrining g'arbiy qismida bo'lgan. Bugungi kunda savdo rastalarining o'rni qisman saqlanib qolgan)dagi bozor orqali qorako'l teri, mayiz, poliz mahsulotlari, marmar buyumlar, qulolchilik namunalari, gilam, bug'doy va boshqa turli uy-ro'zg'or va hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo kilishgan. Savdogarlar esa ularni karvon bilan uzoq - uzoqlarga, o'zga yurtlarga etganlar. Pashshotdagi bozor rastalarining o'rni hali ham saqlanib qolgan. Akademik Ya.G'ulomovning ta'kidlashicha, Pashshot manzilgohida topilgan ohaktosh va marmardan yo'nilgan bezaklar Kushon imperiyasi davriga to'g'ri kelib, I-III asrlarda bu o'lka obod bo'lgan. Tumanda bir necha joyda – Sentobsoy, To'taksoy, Zulqarnayn qishlog'ida qadimgi odamlarning toshdagi tasvirlari topilgan.

Nurota shahrining hozirgi joylashuvi ham e'tiborga molik bo'lib, u O'zbekistonning deyarli o'rtasida joylashgan. Nurota shahridan yurtimizning g'arbigacha 650 kilometr, sharqigacha 800 kilometr, shimoligacha 350 kilometrdir. Yana bir qiziqarli jihati shundaki, tuman bir tomondan obod vodiylar, ikkinchi tomondan bepoyon cho'llar bilan chegaradosh bo'lib, dehqonlar va chorvadorning uchrashadigan maskanidir.

O'zbekiston 1991 yilda istiqloлга erishgandan keyin Nurotaning qadimiy shon – shuhrati yana o'z holiga qayta boshladi. Hozirgi kunda Nurota go'zallashib, chiroyi tobora ochilayotgan navqiron, shu bilan birga qadimiy an'analarni o'zida saqlagan shahardir.

Insonlar Nurotaning bu sirli va xilvat maskanlariga uzoq asrlardan beri intilib kelishadi. Muzdek tog' havosidan simirib, tong pallasida tog'larda kakarlab sayragan kakliklarning sho'x nag'masidan zavqlanishadi, ona tabiat qo'ynida orom olishadi. Ayni paytda Nurotaga kelayotgan sayohatchi va ziyoratchilarning soni ko'payib bormoqda. Mehmonlar Markaziy Osiyoning hamma respublikalaridan, Rossiya, AQSh, Turkiya, Fransiya, Italiya, Gollandiya

va boshqa ko'plab chet mamlakatlardan tashrif buyurishadi. Hozirgacha Nurotaga 56 mamlakat vakillari kelib ketishgan.

Nurota qadimiy va muqaddas shahar. Nurotaga tashrif buyurgan insonlar o'z qa'rida necha ming yillik tarixni saqlab kelayotgan, hali o'z sirlarini batamom namoyon etmagan bu aziz zaminga mehr - muhabbat qo'yishadi.

Tumandagi joy nomlari xilma – xil va rang – barangdir. Ko'pchilikni o'zi uchun qadrli bo'lgan ko'cha, qishloq, shahar, soy, tog', koriz va boshqa jug'rofiy atamalarining qanday paydo bo'lganligi qiziqtiradi, albatta.

Joy nomlari ilmiy tilda toponimlar deyiladi. Toponim yunoncha so'z bo'lib, topos – joy, onoma – nom so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, joy nomi ma'nosini anglatadi.

Nurota tumanidagi joy nomlari joyning relyefi, o'simliklar dunyosi, tarixiy – jug'rofiy belgilari, tuproq xususiyati hamda urug' – avlodlar nomlariga hamohang tarzda shakllangan.

Tumanda - «obod» so'zi bilan bir nechta joy nomlari mavjud. Masalan: Adizobod, Cho'ponobod, Haydarobod, Xo'jaobod va boshqalar.

Toponimlar tarkibida uchraydigan rang ko'rsatkichlarini ifodalovchi Oqtog', Qoratog', Qizilqum, Qoraqum, Qizilcha, Oqtosh, Qoratosh, Oqtepa, Ko'ktepa, Oqmo'la, Qoramo'la atamallari ko'pchilikni tashkil etadi.

Tumandagi jug'rofiy nomlar tarkibida chashma yoki buloq nomlari alohida o'rin tutadi. Masalan, Nur chashmasi, Buloqi Cho'li, Sovuqbuloq, Qizilbuloq, Chimbuloq, Toshbuloq, Ko'kbuloq, Qo'shbuloq va hokazo.

Undan tashqari soy nomlari – Darasoy, Orasoy, Bo'tanasoy, Soykechar. Quduq nomlari – Chuqurquduq, Shamolquduq, Quduqcha, koriz nomlari — Boshkoriz, Kaltakoriz, Korizcha, Sultonkoriz, Zulmkoriz va boshqalar joyning tabiiy-jug'rofiy xususiyatlari va boshqa sabablar asosida vujudga kelgan.

Tumanda aholining turmush tarzi, kasb-hunarini ifodalovchi, shuningdek, avlod yoki urug' atamallari saqlanib qolgan. Masalan: Dukchixo, Ustoxo,

Go'rkovo, Ko'zagaron, Qassobo, Ko'nchi, Namatzano, Novvoylar hamda Qo'shtamg'ali, Sirtsuluv, Xo'jaobod va hokazo.

Nurotada azaldan o'zbek va tojiklar aralash yashab kelgan. Bu hol mahalliy jug'rofiy nomlarda o'z ifodasini topgan. Shunisi harakterliki, Nurota shahri va unga yondosh qishloqlarda asosan o'zbekcha va tojikcha atamalar, shahar atrofidagi qishloqlar tomon siljigan sayin aksariyat o'zbekcha qisman tojikcha so'zlardan tuzilgan atamalar ko'zga tashlanadi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, joylarga, urug'larga, suv manbalariga xalq besabab nom tanlamagan. Jug'rofiy nomlar o'sha joydagi kasbkorga, tabiiy - jug'rofiy sharoitga xos bo'lgan ma'lum bir ma'noni anglatgan.

Nur va Nurota toponimining shakllanishi to'g'risida turli fikrlar mavjud.

Aslida Nur atamasi shaharning shahriston qismidagi chashmaga nisbatan paydo bo'lgan. Tog' etagidagi chashmadan bahor va qish oylarida suv bug'lanib yuqoriga ko'tariladi, ana shy suv bug'iga ertalab quyoshning zarrin nurlari ta'sir etib, xuddi shu yerdan nur ko'tarilayotgandek bo'lib ko'rinadi. Kamalak hosil bo'lib, yon atrof nurga chulg'anadi. Buni dastlabki paytda anglamaganlar. Yerdan nur chiqayotir deb, bu joyni Nur deya ataganlar. Nur-arabcha so'z bo'lib, «yorug'lik» degan ma'noni anglatadi. Bu to'g'rida shahar aholisi o'nlab rivoyatlar bilishadi.

Nurotaliklar orasida Iskandar Makedonskiy shahsiga aloqador ko'plab rivoyatlar yuradi. Bir rivoyatda Iskandar chashmadagi dev-parilarni quvsa, bir rivoyatda odil musulmon podsho sifatida ta'riflanadi. Bir rivoyatda Iskandar korizlar qazib qal'a qursa, boshqa rivoyatda yana boshqa voqyealar bilan bog'liq fikrlar aytiladi.

Jumladan Nurota tarixi bilan bog'liq bo'lgan eng qadimiysi sanalagan bir rivoyatni keltirishni joiz bildik. Mazkur rivoyat xalq orasida Nur shahriga Iskandar Zulqarnayn asos solganligi to'g'risida bashorat qiladi. Tarixdan hyech narsani o'chirib bo'lmaydi. Ajdodlari-mizning yashash tarzini, ularning jasoratini ko'rsatuvchi, bo'lib o'tgan voqyealar bitiklarda, yodnomalarda, rivoyatlarda

bizgacha yetib kelgan. Eng muximi ularni to'g'ri tahlil qilish, to'g'ri ilmiy xulosa chiqarishdir.

Eramizdan avvalgi 329 yil bahorda Iskandarning qo'shinlari O'rta Osiyo hududida paydo bo'ldi. Mahalliy xalq sug'd bahodiri Spitamen boshchiligida bosqinchilarga qarshi kurashga otlandi. Rivoyatlarga qaraganda, Spitamen pahlavon Siyovush avlodidan bo'lgan ekan. Bosqinchilarga qarshi sug'diylar, baqtriyaliklar, usrushonlar, saklar, daxlar va boshqa O'rta Osiyo xalqlari Spitamen atrofiga birlashdilar. Tez orada massagetlar ham yunonlarga qarshi kurashayotgan ozodlik jangchilari safiga kelib ko'shildi. O'rta Osiyodagi harbiy harakat Iskandar uchun sarosimali bo'ldi. Chunki u shuncha yerni bosib olib, bunchalik qarshilikka uchramagan edi. Samarqanddagi garnizoni Spitamen tomonidan qamal qilindi. Iskandar Spitamenga qarshi Farnuh ismli lashkarboshini yubordi. O'zi esa Sirdaryo bo'yida yashaydigan saklar bilan qirg'inbarot urushlar olib bordi va Sirdaryo yoqasida shahar-qo'rg'on qurishga kirishdi. Qurilish shunchalik tez olib borildiki, 17 kun deganda qal'a, uylar qariyb tayyor bo'ldi. Bu qal'aga u o'z askarlarini, yarador bo'lganlarni va asir olganlarni joylashtirdi.

Aleksandr (Iskandar) unga qarshi kurashga otlangan 120 ming sug'diylarni qatl qildi, baktriyaliklarni jazoladi, ikkinchi marta bosh ko'targan sug'diylarni asir oldi, kerakli joylarda shahar-qo'rg'onlar qurib, unda asirlarni saqladi.

Iskandar Samarqand va hozirgi Xo'jand orasida yashagan ustrushonlar bilan bo'lgan tengsiz jangda 30 ming mahalliy xalqning atigi 8 mingini tirik qoldirdi. Tog'liklarning ko'pchiligi asir tushmaslik uchun qoyalardan pastga sakrab halok bo'ldilar.

Miloddan avvalgi 328 yilda sug'diylar, baktriyaliklar bilan bo'lgan janglarda Iskandar ko'plab mahalliy xalqlarning qo'rg'onlarini yer bilan yakson qildi va harbiy strategik jihatdan qulay bo'lgan joylarga yangi shahar-qo'rg'onlar qurdi. Bu shahar-qo'rg'onlarda urushga qatnasha olmaydigan yunonlar, makedoniyaliklar bilan birga Iskandarga bo'ysungan mahalliy aholi ham yashay boshladi. Iskandarning maqsadi osiyoliklar bilan yevropaliklarni aralashtirib,

yangi shaharlar barpo qilib, O'rta Osiyoda harbiy sarkarda sifatida nom qoldirish, balki o'zi qurdirgan shahar-qo'rg'onlar orqali nomini abadiylashgiris edi.

Nurotada qurilgan «Iskandariy qal'a»si hamda Nurota aholisi orasida uchraydigan moviy ko'z insonlar yuqoridagi fikrlarga misoldir.

Iskandar Zulqarnayn uch yillik qonli urushlar mobaynida Sug'diyona va Baqtriyaning ko'p aholisini qirib tashladi.

G'arb va Sharqni egallagan, eramizdan avvalgi 323-yilda vafot etgan Aleksandr Makedonskiydan bo'lak Iskandarni tarix bilmaydi. Iskandarning O'rta Osiyoga yurishi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy voqyealar O'rta Osiyo yozma manbalarida turli sabablarga ko'ra saqlanib qolmagan. Lekin obrazi xalq og'zaki ijodida Iskandar Zulqarnayn azaldan tasvirlab kelingan. Aytishlaricha, Iskandarga avval katta qishloq-Jadir bekligi qo'shinlari qarshi chiqishgan. Jahli chiqqan Iskandar ularni qirib, to Nurotagacha quvib kelgan. Jadirdan toki Nurotagacha cho'zilgan changalzorlar o'sha shahid bo'lgan jangchilar qoni to'qilgan joylardan o'sib chiqqan ekan. Nurota begi buni ko'rib, jangsiz taslim bo'lgan ekan.

Iskandarning o'limi hakida ham nurotaliklar tilida bir qancha rivoyat mavjud:

...Iskandarni beto'xtov jangu jadallar toliqtirib qo'ygandi. O'zga yurtlarda olib borayotgan qonli urushlardan u bezib, uzokda qolib ketgan vatanini sog'ina boshladi. Bir kechasi Iskandar tush ko'rdi. Tushida unga Azroil aytarmish: “Ey Iskandari zamon! Sening ajaling yaqin. Qachonki osting va ustingda temir bo'lganda sening kuning bitadi”. Ertasiga Iskandar o'zini yomon seza boshlabdi. Hatto otda ham yurolmabdi. Uni ot qo'shilgan bir temir aravaga yotkizib qo'yishibdi. Lashkarboshilardan biri Iskandar quyosh tig'idan loxas bo'lmasin deb, uning ustini temir qalqoni bilan yopib qo'yibdi. Shunda Iskandarning yodiga kechasi ko'rgan tushi kelibdi. Iskandar miyig'ida kulib o'ylabdi: Yo tavba! Rostdanham umrim tugaganga o'xshaydi. Ostimda temir, ustimda temir, xuddi tushimning o'zginasi, o'sha kuni Iskandar olamdan o'tibdi. Uni Zulkarnayn qishlog'iga dafn etibdilar (Bu qishloq Nurotadan 3 km janubda.).

Bu albatta tarixiy hakikatdan uzoq bo'lgan afsona, xalqning esa shunga ishongisi keladi.

Mahalliy xal o'z shahrini “Nurota” (“Nurato”), o'zlarini “nuratoyi” deydi. Ato arab va fors tillarida “baxsh etmoq”, “in'om etmoq” ma'nolarini anglatib, chashma ya'ni nur chashmasi o'z qon tomirlari - ariqlari orqali bu shaharga jon ato etgan degan fikr haqiqatga yaqindir. Undan tashqari ato so'zi mahalliy aholi fonetikasiga xos bo'lib, shahardagi Sayyidato, Nurgulato atamalari xuddi Nurato singari talaffuz qilinadi.

Aslida Nurga ziyoratga kelgan ziyoratchilar tilida Nur ota, ya'ni nur chashmasi sohilida dafn etilgan avliyo, Nurda islom dinining targ'ibotchisi IX – X asrlarda yashagan Shayx Abul Hasan Nuriy (Nur bobo) ziyoratiga keluvchilar tilida Nurota nomi paydo bo'lgan edi. Nurota nomi bilan mashxur bo'lgan olim, ya'ni ota Shayx Abul Hasan Nuriy haqida Faridaddin Attor o'zining “Tazkiratul – Avliyo”, Alisher Navoiy “Nasoyimul – muhabbat” asarlarida o'z fikrlarini yozib qoldirganlar. Nurota so'zi shahar tevarak atrofida istiqomat qiladigan turkiy elatlar hamda har yili shaharga oqib keladigan ko'p sonli sayohatchilar tilida Nurda dafn etilgan otaning ziyoratiga, ya'ni Nurotaga (avliyoga) keldik deya aytilish natijasida shakllangan va keyinchalik shahar ham Nurota deb atalavergan.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Nurota atamasi dastlab shaharning nomi emas, balki muqaddas qabrda dafn etilgan avliyo ota - Shayx Abul Hasan Nuriyning nomi bo'lgan. Keyinchalik shaharning nomi ham Nurota deyilgan.

Shayx Abul Hasan Nuriy IX asrda Nur (Nurota)da yashagan va faoliyat ko'rsatgan mashhur diniy arbobdir. U islom ta'limotini Nurda targ'ib etgan, xalq orasida islomiy fikr yurgizgan, yagona Olloxga itoat to'g'risida tarbiya bergan dastlabki ruhoniyydir. Shayx Abul Hasan har tomonlama mahalliy xalq hurmatini qozonganligidan o'zining oliy darajadagi olamni bilish to'g'risidagi islomiy bilimi va nihoyatda hokim, kamtarligi bilan boshqalarga ibrat bo'lganligidan ajdodlarimiz bu aziz insonni o'zi uchun muqaddas bo'lgan joyga-Nur chashmasi

sohiliga dafn etgan, qabrini obod qilgan va uni ziyorat qilib, eslashni savob ish deb hisoblagan.

Shayx Abul Hasan Nuriy haqida ma'lumot to'plash jarayonida ko'plab tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar bilan tanishib, o'qib o'rganildi. Abduraxmon Jomiyning "Nafahot ul-uns min hazrot ul-quds" ("Pok zotlar tomonidan esgan do'stlik shabadalari") tazkisasi o'rganildi va bu tarixiy asarda Shayx Abul Hasan Nuriy 616 ta donishmandlarning biri sifatida nomi zikr etilib, quyidagicha ma'lumot keltiriladi: Shayx Abul Hasan Nuriy keyingi tabaqadan bo'lib uning asli ismi Ahmad ibn Muhammad. U Hirot, Marv, Bag'dod orasidagi shaharda yashagan va yuqorida nomlari islom olamida mashhur bo'lgan ahli donishlar bilan suhbatlashgan va ko'rishgan.⁷

Shayx Abul Hasan Nuriy haqida Farididdin Attorning "Tazkirat-ul avliyo" asarida quyidagi ma'lumot mavjud: "Shayx Abul Xusayn Nuriy, qoddasallohu ruhahul aziz, kutbi zamon edi. Uni Amir ul-kulub va Qomar us-so'fiya(qalblar amiri va tasavvuf oyi)" der edilar. Sirri Saqotiyning muridi edi. Nuriy deb atalishning sababi — qorong'uda so'z aytsa, muborak og'zidan nur chiqar edi.

Sahroda bir savmaasi (ibodatgohi) bor edi. Ibodat qilar ekan, kechasi undan nur balkar edi. O'zining yuzi ham porloq - nurli edi. Oq rangli, oq soqolli Nuroniy bir pir edi.

Hazrati Ahmad Harroz der ediki, "Husayn kabi toat qilguvchi kishini ko'rmadim".

- Junayddan ham ortiqmi? - dedilar.

- Uning holi boshqa, buning holi boshqa. Zero, har kimning bir turli muoamalasi bo'lur. Ularning Allohdan boshqa zot bilmas, - dedi".⁸

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, haqiqattan ham Nur chashmasi soxilida dafn etilgan Shayx Abul Hasan Nuriy tobeinlardan biri bo'lib, shahrimizda islom dinini tarqatishda beqiyos xizmat qilgan. Shayx Abul Hasan

⁷ Шавкат Исмоилзода. Нурота тарихидан саҳифалар. –Т.:Ўздавматбуотли нашриёти, 2010. 20-бет.

⁸ Фаридиддин Аттор. Тазкират-ул авлиё. Мирзо Кенжабек таржимаси. -Т.: ЎЗМЭ нашриёти, 1997. 100-бет.

Nuriy payg'ambar avlodi vakillaridandir. Avliyoning Nuriy taxallusi esa shaharga nisbat, shayx esa o'sha davrda olim, donish insonlar nomiga qo'shib aytilgan.

Shayx Abul Hasan Nuriy tarixini yig'ib yurish davrida Nurotadagi Chashma muzeyida saqlanib yotgan "Sangi salavot"da yozilgan "Durudi toj", ya'ni Muhammad payg'ambarning sifatlari bayon etilgan lavha atrofidagi fors – tojikcha bitiklarga e'tibor berdik, unda quydagi ma'lumotlar keltirilgan. "Nurotaning oxirgi miri Rahmatillo Ho'ja topshirig'iga binoan ushbu "Durudi Mustaf" marmar toshiga bitildi. Bu zamzamsifat chashma sohilidagi avliyo Abul Xasan hokini tavof qilish kimga nasib etsa ushbu salavotni o'qib duo qilsin. Ollohning elchisi Muhammad hurmati kimiki Ollohdan neki tilasa Olloh unga shuni ato etsin. Xatlonlik kotib ushbu "Durudi Mustaf"ni 1337 hijriyda yozib tugatdi. Ushbu "Salavot – Yodnoma" 1918 – 1919-yillar o'rtasida yozilgan va Shayx Abul Hasan to'g'risida aytilgan yuqoridagi fikrlarni to'ldiradi.⁹

Shayx Abul Hasan Nuriy 907 milodiy yilida vafot etganlar. Shayx Abul Hasan Nuriy islom olamida mashhur bo'lgan ko'plab avliyolar qatorida turgan alloma. Bobolarning aytishicha, avliyolar Ollohga yaqin kishilar bo'lib, insonlar va xudo orasida vositachidirlar. Nurbobo Ollohning yagonaligini tan olib, uning ziyoratiga kelganlarga ruhiy kuch quvvat, nur berar ekanlar.

Nurotadagi me'moriy yodgorliklar asosan shayboniylar davrining mahsulidir va keyingi davrlarda ya'ni mang'itlar sulolasi hukmronlik qilgan vaqtda ta'mirlangan. Narshahiyning yozishicha, Nurda jome' masjidi va rabotlar bo'lgan. Ziyoratga keluvchilarning asosiy qismi Buxoro aholisi, shuningdek, boshqa joylardan ham bu yerga ko'plab kishilar tashrif buyurishgan. Hozirgi vaqtda ham bu yerga keluvchilarning aksariyati Buxoro va uning atrofidandir. Narshahiy Nur ziyoratiga borib qaytganlarni hojilar fazilatiga ega bo'lishi to'g'risida ham yozib qoldirgan. Nurning ziyoratgoh bo'lishi unda muqaddas qadamjolarining mavjudligi bilan bog'liqdir. Muqaddas buloq, baliqlar, tarixiy obidalar, Sayyid ad- Din Abul Hasan Nuriy singari tarixiy shaxslarning qabrlari

⁹ Шавкат Исмоилзода. Ўша асар. 20-бет.

mavjudligi, shuningdek arablar istilosi davrida Movarounnahrda kelib qolgan va shu tuproqda foniylikdan boqiylikka ketgan hamda Nurda dafn etilgan tobeinlar qabrlari borligi shundan dalolat beradi.

Yanada qadimgiroq tarixga, Nurota shahrining paydo bo'lgan davriga nazar tashlaydigan bo'lsak, hozirgi Nurota hududlari qadimgi Sug'd (Sug'diyona) davlati tarkibiga kirgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, miloddan avvalgi VII-IV asrlarda Sug'diyona davlatining chegarasi g'arbda Buxoro vohasi, sharqda Hisor tog'lari, janubda Qashqadaryoning quyi oqimi va Ko'hitang adirlari, shimolda esa Nurota tog'-adirlari bilan chegaralangan.

Nurota xuddi Avliyoota, Cho'ponota, Zangiota singari diniy, muqaddaslashtirilgan joy nomidir. Hozirgi kunlarda Nurato va Nurota atamalari baravar ishlatiladi.

Nurota go'zal tog'lar orasida joylashgan maskan. Uning bepoyon yaylovlari, bahor oylarida qip - qizil lolalarga burkanadigan qir - adirlari, so'lim bog'lari betakrordir. Nurotaning ko'p sonli buloqlari, chashmalari yilning to'rt faslida ham sizib yotadi. Shimol tomoni cho'lga tutash yam-yashil Nur vohasida buloq va chashmalar asosiy hayot manbai hisoblanadi.

Nurota dilbar va dilkusho o'lka bo'lib, uning havosi musaffo, suvi esa shifobaxshdir. Ona tabiat xuddi bu afsonaviy diyorni yaratganu, yomon ko'zdan asrash uchun uning atrofini tog'lar bilan o'rab qo'yganday.

Nurota o'zining chashmalari, serjilo qorako'l terilari, kamalak nusxa marmari, o'zining qadimiy madaniyati bilan jahonga ma'lum va mashhurdir. O'zbekistan ne'matlari ichida ayniksa uning shirin-shakar qovun-tarvuzlari, uzum va mayizlari tansiq.

I 2. Nurotaning tarixiy joylashuvi

O'zbekistondagi qishloq va mahallalar yanada obodonlashib, shaharlar yanada ko'rkamlashib borayotgan bir sharoitda ularning o'tmish tarixi va madaniyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Nurota tumani O'zbekiston Respublikasining deyarli qoq o'rtasida, Navoiy viloyatining shimoli-sharqida

joylashgan kattakon hududlardan biri. Uni shimoli-sharqdan Jizzax, janubi-sharq va sharqdan Samarqand viloyatlari o'rab turadi. G'arb va janubi-g'arbdan Navoiy viloyatining boshqa tumanlari bilan chegaradosh. Nurota tumani 40 28» va 41 20» shimoliy kengliklar, 65 40» va 66 48» sharqiy uzunliklar orasida joylashgan. Xuddi shu kengliklarda jahonning AQSh, Portugaliya, Ispaniya, Italiya, Albaniya, Gresiya, Xitoy, Koreya va Yaponiya singari yirik davlatlari joylashgan. Ularning ko'pchiligi dengiz bo'yi mamlakatlari bo'lib, iqlimi nam va issiqdir. Nurota esa materik ichkarisidagi iqlimi quruq, kontinental o'lkadir. Qishda -39 gacha sovuq, yozda esa +46 gacha issiq bo'ladi. O'rtacha yillik yog'in 200-250 millimetrni tashkil etadi.

Tuman hududi kattaligi jihatidan O'zbekistonning yirik tumanlaridan biri sanaladi. U shimoldan janubga tomon qariyb 68 km, g'arbdan sharqqa tomon 95 kilometrgacha cho'zilgan. Yer maydoni 6549 km.kv. bo'lib, chegaralarining umumiy uzunligi 500 kilometrdan ortadi. Bu chegaralarning aksariyat qismi tog'lardan, katta qismi Qizilqum qumliklari, sho'rhoklar hamda Haydarko'l suvlari orqali o'tadi. Uning g'arbiy qismi tekislik, shimoliy qismi Haydarko'l, sharqiy qismi esa Nurota tog'lari va Nurota tekisligi, janubi Oqtov tog'lari va uning tarmog'i Qoratov orqali o'tgan.

Yurtimizning boy tarixga ega bo'lgan Nurota shahri geografik jihatdan O'zbekistonning markazida joylashgan bo'lib, Nurota tumani shimoli-sharqdan Jizzax, janubi-sharq va sharqdan Samarqand viloyatlari, g'arb va janubi-garbdan Navoiy viloyatining boshqa tumanlari bilan chegaradoshdir. Tuman markazi bo'lmish Nurota shahri o'ziga xos boy va betakror tabiati, zilol hamda muqaddas buloqlari bilan mashhur. Shu bilan birga shaharning tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Nurota yoki «Nuri Buxoro» nomi bilan tarix sahifalaridan o'rin olgan mazkur tarixiy shahar haqida Abu Bakr Muhammad Narshaxiy ma'lumot berib, uni Buxoro tarkibidagi tarixiy joy sifatida qayd etadi. Narshaxiyning «Buxoro

tarixi» asarining «Buxoro va unga qo'shiladigan joylar» faslida Nurota haqidagi quyidagi fikrlar mavjud:

«Nur katta joy. Unda Masjidi jome' bor; u ko'pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko'p mubolag'a qiladilar; Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan [kishining] fazilatiga ega bo'ladi; u ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havoza band qilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar. Tobeinlardan ko'p kishilar u yerga dafn etilganlar, Xudo ularning hammalaridan to qiyomatgacha rozi bo'lsin.¹⁰

Narshaxiy IX-X asrlarda yashab o'tganligini nazarda tutadigan bo'lsak va uning bu hudud haqida o'sha davrda ma'lumotlar yozib qoldirilganligini hisobga olsak, u holda Nurning qadimiyligiga shak-shubha qolmaydi. O'sha davrda ham bu maskan ziyoratchilar tashrif buyuradigan qadamjo bo'lgan. Ziyoratgohning g'arbiy qismidagi muqaddas chashma va chashmadagi muqaddas hisoblangan baliqlar kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Buloqdan yuqorida, uning g'arbiy burchagida sag'ana va qabrtosh qo'yilgan. Bu yodgorlik Nuriy nisbasi bilan mashhur Sayyid ad-Din Abul Hasanga tegishli.

Narshaxiyning yozishicha, Nurotada jome' masjidi va rabotlar bo'lgan. Ziyoratga keluvchilarning asosiy qismi Buxoro aholisi, shuningdek, boshqa joylardan ham bu yerga ko'plab kishilar tashrif buyurishgan. Hozirgi vaqtda ham bu yerga keluvchilarning aksariyati Buxoro va uning atrofidandir. Narshaxiy Nur ziyoratiga borib qaytganlarni hojilar fazilatiga ega bo'lishi to'g'risida ham yozib qoldirgan. Nurning ziyoratgoh bo'lishi unda muqaddas qadamjolarining mavjudligi bilan bog'likdir. Muqaddas buloq, baliqlar, tarixiy obidalar, Sayyid ad-Din Abul Hasan Nuriy singari tarixiy shaxslarning qabrlari mavjudligi, shuningdek arablar istilosi davrida Movarounnahrda kelib qolgan va shu tuproqda foniylidndan boqiylikka ketgan hamda Nurda dafn etilgan tobeinlar qabrlari borligi shundan dalolat beradi.

¹⁰ Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А. Расулов таржимаси. Тошкент.: Фан, 1966. 20-бет

Nurning qadimiy tarixini Iskandar Makedonskiy istilosi bilan bog'lashadi. Nur atrofidagi qishloqlardan birida uning va onasining ramziy maqbarasi mavjud va bu joy ham muqaddas ziyoratgoh sanaladi. Biroq makedoniyalik istilochining Nurga asos solganligi haqida aniq dalillar yo'q, faqat rivoyatlar, xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan ayrim uzuk-yuluq afsonaviy hikoyalar mavjud.

Ta'kidlash joizki, turli davrlarga oid yozma manbalarda va rivoyatlarda Nurotaning qadimiyligi haqida so'z yuritilsada, shahar va uning atroflari tarixi ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. XX asr 50-yillarining boshlarida akademik Ya.G'.G'ulomov boshchiligidagi ilmiy guruhning qisqa muddatli ilmiy izlanishlari hamda keyinchalik O'zbekiston FA Arxeologiya institutining ilmiy xodimi O.M.Rostovsev olib borgan tadqiqotlar bu sohaga biroz oydinlik kiritdi. Mening qisqa muddatli Nurota va uning atroflarida olib borgan kuzutlarim va suruv –surishturuvlarim bu hududda keng ko'lamdagi tarixiy arxeologik tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Avvalo, shaharning nomlanishi haqida... Nurota shahri o'rta asrlarda "Nur", "Nuri Buxoro" nomlari bilan mashhur bo'lgan. O'rta asrlar muarrixlari Narshaxiy, Juvayniy, Istaxriy asarlarida ko'hna shahar Nur deb tilga olingan. "Nur" atamasi ko'hna shaharning shahriston qismidagi chashmaga nisbatan paydo bo'lganligi ehtimoldan xoli emas. Chunki tog' etagidagi chashmadan bahor va qish oylarida suv bug'lanib yuqoriga ko'tarilib turadi. Bu suv bug'iga ertalab quyosh nurlari ta'sir etib kamalak hosil bo'ladi va go'yoki yerdan nur ko'tarilayotgandek ko'rinadi..

Yanada qadimgiroq tarixga, Nurota shahrining paydo bo'lgan davriga nazar tashlaydigan bo'lsak, hozirgi Nurota hududlari qadimgi Sug'd (Sug'diyona) davlati tarkibiga kirgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, miloddan avvalgi VII-IV asrlarda Sug'diyona davlatining chegarasi g'arbda Buxoro vohasi, sharqda Hisor tog'lari, janubda Qashqadaryoning quyi oqimi va Ko'hitang adirlari, shimolda esa Nurota tog'-adirlari bilan chegaralangan bo'lishi mumkin. Qadimgi davrda O'rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida

muhim o'rin egallagan Sug'diyona davlati turli manbalarda Sug'd, So'g'd, Sug'ud nomlari ostida eslatib o'tiladi. Bu nomlarning kelib chiqishi va ularning manosi haqida turli fikrlar mavjud.

O'rta asrlarda arabiy, forsiy, turkiy manbalarda mamlakat nomi Sug'd shaklida qo'llaniladi. "Sug'd" so'zini ma'nosi fanda turlicha talqin qilib kelinadi. Masalan, tadqiqotchi V. Tomashsk bu so'zni So'ch//So'z – "kuymoq, yonmoq, porlamoq" deb izohlagan. Bundan Sug'dni "Muqaddas ilohiy olov (Zardushtiylik tasavvuriga ko'ra) bilan poklangan yer" kabi ma'noda talqin etnshga harakat qilingan. Professor M. Isxoqovning fikriga ko'ra, Sug'd so'zi sernam, unumdor yer deb tushuniladi. Bunga hozirga qadar pastlik, suv yig'iladigan yer "Sug'd, Sug'ut" deb atalishini dalil qilib ko'rsatish mumkin.

"Avesto" kitobida Sug'd mamlakat nomi sifatida bir marta uchraydi. "Ardivisura Yashti" ("Obon Yasht") va Ardvi (Amudaryo) Ishkata, Paruta, Mouri, Sug'uda va Xvarazm tomon hayotbaxsh suvlarini eltadi, deya ta'kidalanadi. "Avesto"ning Videvdat naslida esa Axuramazda yaratgan ezgu yurtlardan biri Gava deyiladi va u yerda sug'dlar yashaydi, deb ko'rsatiladi.¹¹

Agar qadimgi o'lkalar, viloyatlar nomlari ko'p hollarda ular hududidagi tog'lar, daryolar, ko'llar, qal'alarining nomlaridan olinganligiga e'tibor qaratsak, Sug'diyona ham o'z xududlaridagi biror joy nomini olmaganmikin, degan fikr tug'iladi. Nurli va hosildor o'lka bo'lgan Nurota aynan mana shu joyga to'g'ri kelishi mumkin. Ammo, bu fikrni asoslash uchun hali ko'pgina ilmiy tadqiqotlar kerak bo'ladi.

Qadimgi tariximizni tiklash uchun qimmatli ma'lumotlar beruvchi ilk yozma manbalar – "Avesto", ahamoniylar mixxat yozuvlari hamda yunon va rim tarixchilarining asarlarida Sug'diyona va sug'diylar haqida ma'lumotlar berilsa-da, ularda aynan Nurota haqida ma'lumotlar uchramaydi. Hozirgi kungacha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ham Nurotaning ahamoniylar yoki yunon – makedonlar davriga oid madaniy qatlamlari aniqlanmagan. Bu hududlarda jiddiy

¹¹ Ражабоб К, Абдиева З. Нурота //Ўзбекистон миллий энциклопедиси. Т.6. -Т.: ЎЗМЭ нашркёти, 2001. 419-бет.

arxeologik tadqiqotlar olib borish va bu tadqiqotlar natijasida Nurota shahri yoshini aniqlash zarurati ham aynan mana shu holat bilan belgilanadi.

Baqtriya, Xorazm, Marg'iyona va Sug'diyona hududlaridan Ahmoniyilar davriga oid sug'orish inshootlarining izlari aniqlangan. Ko'pchilik tadqiqotlarning fikricha, tog' oldi tekisliklari va dasht hududlarini sug'orishda ishlatilgan korizlar - yer osti kanallari aynan mana shu davrda paydo bo'lgan. Xususan, Polibiy salavkiylar podshosi Antiox III ning Parfiya dashtlari orqali o'tgan harbiy yurishlari haqida ma'lumot berganda ushbu dasht hududlari bir qancha quduqlari bo'lgan yer osti kanallari orqali sug'orilib, bu kanallar «forslar davrida» bunyod etilgani haqida yozadi.

O'zbekistonning mana shunday murakkab sug'orish inshootlaridan foydalanilgan tumanlaridan biri Nurotadir. Bu yerda korizlardan hozirgi kunda ham foydalaniladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, koriz - yer osti suv inshootidir. Bunday sug'orish inshootini qurish nihoyatda og'ir va murakkab bo'lgan. U mashaqqatli qo'l mehnatidan tashqari yer osti suvlarining to'planadigan qatlami, yil mavsumlarida bu suvlar sathida ro'y beradigan o'zgarishlar va koriz chiqariladigan joy relyefidagi nishablikni juda aniq belgilashni talab etadi. Nurotada hozirgi kunda yer yuzasiga suv chiqarib turgan koriz «Kalta koriz» deb nomlanib, unda 50ta quduq bor. Bu yerda yuzaki tekshiruv o'tkazgan kishi ham qadimgi dehqonlar mehnati va san'atiga qoyil qolmay iloji yo'q.

Sug'orilishning koriz usuli miloddan avvalgi VII-IV asrlarda tog' oldi tekisliklari va dashtlarida keng foydalanilganiga e'tibor qaratsak, Nurota atroflari axmoniyilar davridayoq o'troq aholi tomonidan o'zlashtirila boshlanganligini kuzatish mumkin. Nurotalik qadimgi bobodehqonlar ancha murakkab bo'lishiga qaramay ushbu sug'orish usulidan foydalanganlar. Bu suvlar yetib kelgan joylarda esa yerlarni o'zlashtirib turar-joylar va manzilgohlar barpo etganlari shubhasizdir.

Mazkur ilmiy ishni yozishda Nurota qal'asi, shahar devori deb taxmin qilinayotgan Devori Pirosta hamda Nurota atrofidagi Pashshot qal'asi qoldiqlarida kuzatish ishlarini olib borish bordim. Nurota qal'asi uning atrofidan topilgan

soplarning yoshi dastlabki xulosalarga ko'ra sopollarning eng qadimgisi milodiy IV-V asrlarga o'gdir. Yanada qadimgiroq deb taxmin qilinayotgan sopollar esa qiyosiy o'rganishni talab etadi.

Nurota qal'asining tuzilishi, devorlar va ulardagi minoralar (burj) qisman tadqiq etildi. Qal'a devorining ichki yo'laklariga eltuvchi kirish yo'llari (mahalliy aholi ularni g'orlar deb tasavvur qiladi) saqlanib qolgan. Qal'a devori paxsa asosida xom g'ishtdan qad ko'targan hamda vaqti-vaqti bilan ta'mirlab turilgan. Xom g'ishtlarning o'lchamlari Sug'diyonadagi miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid Uzunqir, Yerqo'rgon, Chordara kabi yodgorliklardagi g'ishtlarga ancha yaqin ekanligi aniqlangan. Bular hozircha dastlabki xulosalar bo'lib, aniq xulosalar berish uchun jiddiy tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Nurota ustidan Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i o'tgan. U o'tmishda harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lib, yirik savdo markazi ham hisoblangan. Nur qal'asi qadimdan Jizzaxdan so'ng Buxoro va Samarqand vohasiga kirish uchun ikkinchi darvoza hisoblangan. Nurota Buxoro vohasining shimoldagi chekka shahar bo'lib, madaniy o'troq aholi va ko'chmanchi xalqlar yashaydigan hudud chegarasida joylashgan.¹²

Nurotaning islom davri tarixi haqida manbalarda kengroq yori - tilgan va uzoq moziydagi voqea va jarayonlar shu joy bilan aloqadordir. Uning o'tmishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu yerda Saljuqbekning o'g'illari qo'nim topishgan.

Ibn al-Asir (1160-1234)ning yozishicha, Saljuqbek 107 yosh (ba'zi manbalarda 100) yoshga kirib vafot etgan. Uning vafotidan so'ng o'g'illari: Mikoil, Muso, Arslon (Isroil) kabi amirlar boshchiligidagi saljuqiylar Jand va Yangikent atroflaridan ayrim hukmdorlar bilan kelisha olmagan, Somoniylar davlatining ijozati bilan Zarafshon vodiysidagi Nuri Buxoro (Nurota) atroflarida ko'chib yurganlar (X asr oxirlari). Gardaziy (XI asr) o'z asarida so'nggi somoniy Muntasirning qoraxoniylardan Nasr Ilekxonga qarshi olib borgan kurashiga 1003-1004-yillarda saljuqiylar yordam berganligini ta'kidlaydi. Saljuqbekning avlodlari

¹² *Ражабов Қ. Салжук / Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.7. —Т.: УЗМЭ нашриёти, 2004. 443-бет*

- Mikoilning o'g'illari: To'g'rulbek va Chag'ribek XI asr 30-yillarida saljuqlar-o'g'uzlarning harakatiga boshchilik qilib, Saljuqiylar davlatini tuzishgan.

Nurota qal'asi ko'plab lashkar va aholini o'z himoyasiga olgan. Somoniylarning dushman tomonidan tor-mor etilgan oxirgi vakili Muntasir Nurotaga kelib joylashgan va 1004 yilga kelib Dabusiya'dagi dushmanga qarshi hujum uyushtirgan.

Somoniylarning so'nggi amiri Muntasir Buxoroni egallab olgan dushmanlaridan mag'lub bo'lganidan so'ng, o'z harbiy kuchlarining qolgan-qutganlari bilan Nurotaga kelib, mustahkamlanib olgan va shu yerdan turib Dabusiya qal'asida joylashib olgan raqibiga hujum qilgan.

Jamol al-Qarshining "Mulxakat as-surax" asaridagi ma'lumotlarda keltirilishicha, Nurota atroflaridagi saljuqiylar Buxoro amiri tomonidan haydalgan. Lekin haqiqatda saljuqiylar qoraxoniylar siquvi ostida bu joylarni keyinchalik tark etganlar.

O'g'uz turklari Nurota vohasidan avval Xuroson, so'ngra Kichik Osiyo yarim oroliga borib o'rnamashgan va Saljukiylar davlatiga 1038-yilda asos solgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, Nurota qal'asi O'rta Osiyoda islomga qadar qurilgan antik me'moriy yodgorliklardan biri sanaladi. Mahalliy xalq ushbu obidani "Qal'ai Iskandariy", deb, Iskandar nomi bilan bog'laydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq og'zida Iskandar haqida ko'plab rivoyatlar yuradi. Darhaqiqat, Iskandar Makedonskiy askarlarining izi qolgan Nurota qal'asi Movaraunnaxr tarixining zarxal sahifalarini tashkil etadi.¹³

Nurota qadimdan Buxoro va Samarqand vohasiga kirish uchun Jizzaxdan so'ng ikkinchi darvoza hisoblangan va o'zining istehqomlari bilan mashhur bo'lgan. Tarixiy asarlarni o'rganar ekanmiz, Nurota harbiy strategik ahamiyatga molik yirik savdo nuqtasi bo'lib, ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Nurota tizma tog'lari qadimgi Sug'diyona va Buxoro vohasini mustahkam devorday to'sib turgan. Shuning uchun qadimgi Zarafshon vodiysiga olib

¹³ Умирзоқов С., Умрзоқов О. Нурота чашмаси, тошкент.: Фан, 2005. 85-бет

kiradigan ikki yo'l - Jizzax yaqinidagi Temir darvoza va Nurotada harbiy istehqomlar qurilgan.

O'tmishda Nurota orqali katta harbiy va madaniy ahamiyat kasb etgan tosh yo'l o'tgan. Bu tosh yo'l orqali karvonlar Buxoroga, undan so'ng Dashti Qipchoqqa chiqqan.

Nurota Buxoroning shimolidagi chekka shahar bo'lib, u madaniy o'troq aholi va ko'chmanchi xalqlar yashaydigan hududning chegarasida joylashgan. Shu tufayli qadimgi tosh yo'l orqali Nurotaga ko'plab karvonlar kelib to'xtagan. Savdo-sotiq rivojlangan. Aytishlaricha, karvonlar asosan Nurota yaqinidagi Pashshot degan manzilgohda to'xtagan va u yerda katta bozor bo'lgan. Nurota orqali o'tgan qadimgi tosh yo'lni Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i deb atash haqiqatdan uzoq emas. Karvonlar Nurotada nafaqat savdo, balki shifobaxsh suv g'amlab olish uchun ham to'xtagan. Xuddi ana shu yo'l orqali Buxoroga Chingizxon qo'shini ham o'tgan.

Rivoyatlarga qaraganda, Chingizxon uzoqdan tog' tepasiga qurilgan Nurota qal'asini ko'rib taysallangan, shaharni o'rab turgan Pirosta devorlari haqida eshitgach, shaharga kechasi hujum qilishni buyurgan. Shaharliklar mast uyquda yotganlarida Nurotaga mo'g'ullar kirgan. Shahar aholisi esa har vaqtdagiday Nurotaga biror katta karvon kirgan bo'lsa kerak, deb o'ylagan.

Hyerman Vamberining yozishicha, Chingizxon Nurotaga turkman kulovuzlarining yordami bilan kirgan va u kelgan yo'l ko'p zamonlargacha "xon yo'li" deb atapgan.

1220-yil yanvar oyida Chingizxonning oldingi muntazam qo'shinlari Nurotaga yaqinlashdi. Qal'aga hujum qilish uchun Tohir Bahodir ismli yo musulmon, yo turk rahbarligida Nurota atrofidagi o'rmonlarda uzun narvonlar yasaldi. Shahar atrofida mahalliy xalqning bog'lari bo'lib, Nurota aholisi bahor kirib kelishi bilanoq o'z chorbog'lariga ko'chib borishgan. Mo'g'ullarning kelishi shaharliklar uchun kutilmagan holat bo'lgan. Nurotaliklar mo'g'ullarni savdo karvoni deb o'ylagan, xatolarini anglaganlarida, mo'g'ullar shaharga yaqinlashgan

edi. Mo'g'ullar narvonlarni otda va qo'lda ko'tarib, shahar devoriga qo'ydilar. Tohir Bahodir nurotaliklarga: haqiqatan ham kuchli mo'g'ul xoni keladir. Agarda shahar aholisi qarshilik qilmasa, u bir necha kun qoladi, - dedi. Ko'p o'tmay Nurota shahri darvozalari ochildi. Mo'g'ullar shaharga kirdilar. Buyruqqa muvofiq shahar aholisi shahardan chiqarildi. Mo'g'ullar uylarni taladilar. Ammo odamlarni o'ldirmadilar. Nurota xalqi Chingizxonga 1500 dinor soliq to'ladi. Chingizxon Nurotadan so'ng Buxoroga ketdi. Chingizxon Buxoroda ko'z ko'rib, quloq eshitmagan vahshiyliklarni qildi.¹⁴

Chingizxonning Nurotaga kelganligi to'g'risida Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarai turk" asarida ham ma'lumot keltiriladi:

"...Chingizxon Zarnuqni olgach, Nurotaga keldi. Nurota xalqi qal'aga qamaldilar. Undan elchilashib xalq qal'adan chiqib yaxshi peshkashlar bilan kelib xonni ko'rdi. Xon ham ul xalqqa inoyat shafqat qilib hukm qildikim, "sen xalq o'zingga yetgulik urug' va qo'sh xo'kizingni olib qal'adan chiqgil. Qolgan molingni lashkar talasin". Xalq qal'adan chikdi. Qolgan mollarini xonning lashkari talab oldi".¹⁵

Bugungi kunda Samarqand Qo'shrobot – Nurota tumanlari yo'l yoqalaridagi qadimgi qo'rg'on qal'alarining xarobalari hali hamon uchraydi. Bu vayrongarchilik ishlari ishlari mo'g'ullar qo'shinlarining qirg'inbarot ishlari bilan bog'liq ekanligini xalq orasida tarqalgan turli rivoyatlar ham tasdiqlab o'tadi. Bundan tashqari Chingiz qo'shinlarining mazkur yo'l orqali o'tganli o'z navbatida bu qo'rg'onlarda vayrongarchilik ishlarini olib borganligini tasdiqlaydi. Bu kabi qal'alar Masalan Chuya, Bog'ojot, Jo'sh, Eski Qo'shrobot, Qo'shrobot, Mitan qishloqlarida mavjud. Bu qal'alarda hayot keyinchalik umuman tiklanmagan. Nurota vohasidagi bu qo'rg'onlarda hayot XIII asrning 20-yillariga qadar davom etgan degan xulosaga kelish mumkin.

¹⁴ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр гарихи. Нашрга тайёрловчи Сирожид- дин Аҳмад. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва. санъат нашриёти, 1990. 22-бет.

¹⁵ Абулғози. Шажараи турк. Тошкент.: чўлпон, 1992. 64-бет

Akademik V.A.Nilson (1953-yil), akademik Ya.G'.G'ulomov (1968-yil) tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasi shuni ko'rsatadiki, qal'aning ostki madaniy qatlami eramizdan oldingi asrlarda bino bo'lgan. 1974-yil arxeolog O.M.Rostovsev boshchiligidagi qal'ada qazish ishlari amalga oshirilgan. Ushanda qal'adan eramizning I va IV asrlariga oid arxeologik ashyolar topilgan.

Nurota qal'asi mashhur Nurota chashmasining ustki qismida suv boshiga egalik qilish, dushman qamaliga bardosh berish maqsadida qurilgan. Qal'aning ichki qurilishlari yaxshi saqlanmagan. Qal'aning eng baland minorasi bo'lgan kuzatuv maskanidan to'rt tomon yaqqol ko'rinib turgan. Kuzatuv punkta 26x26 metrni tashkil etadi. Kuzatuv punkta va ark 12 metrli usti yo'lak bo'lgan qalin paxsa devor bilan tutashtirilgan. Devorning qalinligi taxminan 14-16 metrgacha bo'lgan.

Qal'a qurilish tarixiga ko'ra o'ziga xosdir. U yetti qaroqchi yulduz turkumiga mos ravishda 7 ta minora va ularni birlashtiruvchi yo'laklar bilan birlashtirilgan. Eng janubdagi va tog'ning yuqorisidagi minora Qutb yulduziga mos qilib qurilgan, u asosiy minora bo'lib, u yerda Nurota beklarining qarorgohi joylashgan.

Nurota chashmasining bir qism suvi qal'aning ostidan oqib keladi. Mahalliy otaxonlarning aytishlaricha, agar qal'a dushman tomonidan o'rab olinsa qal'adagilar hech suvsiz qolishmagan. Taxminan qal'aning o'rtalarida askarlar maxsus zina bilan tushib, qal'a ostidan oqib o'tayotgan chashma suvidan olib chiqishgan. Nurota qalasining asosiy me'moriy inshootlari IV-VII asrlarda qayta tiklangan. VIII asrda Nurota qal'asi arablar tomonidan buzib tashlangan va Somoniylar davrida yana qayta tiklangan. Nurota qal'asi XVII asrda yanada mustahkamlanib, qadimgi poydevor ustiga yana kuzatuv punktlari qurilgan. Qal'a asosan xom g'isht va toshdan qurilgan. Nurota qal'asi va uning atrofidagi shahristoni qadimda mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lgan. Bu devor Pirosta devori deb atalgan.¹⁶

¹⁶ Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии. Тошкент.: Наука, 1966. Стр 26.

O'rta Osiyo tarixiga oid tarixiy-badiiy asarlarni varaqlar ekansiz, Iskandar Makedonskiy davrida yurtimizda ko'plab shahar-qo'rg'onlar qurilganligining guvohi bo'lasiz. Bu shahar-qo'rg'onlar bevosita Iskandarga mahalliy xalq bilan olib borilgan ayovsiz janglarda asqotgan. O'rta Osiyo xalqdarining mana shu mash'um, fojiali tarix sahifalariga nazar tashlar ekanmiz, ko'hna Nur (Nurota) ham o'sha davrlarda harbiy-strategik ahamiyat kasb etgan shahar-qo'rg'on sifatida gavdalanadi. Nur qal'asining bevosita zamondoshi bo'lgan Pirosta devori qadimdan shaharni o'rab turgan. Uning aylanasi 20-25 kilometr bo'lib, mudofaa devorining qalinligi 12-15 metr bo'lgan deb yoziladi. Mahalliy otaxonlarning aytishlaricha, Pirosta devori juda qalin bo'lib, uning ustida ikkita arava bemalol yurgan.

1950-1951-yillarda arxeolog Ya.G'.G'ulomov Pirosta devorini tekshirgan va mudofaa devori VI asrda qurilib, X asrdan buzila boshlangan, deb yozadi.

Pirosta devori eramizdan oldingi III asrdan to eramizning X asrigacha mavjud bo'lib, uning uzunligi 20-21 kilometrni tashkil qilgan. Pirosta devori, Nurota qal'asining g'arbida tog' cho'qqisidan maxsus bino qilingan inshoot harobasidan boshlanib shimolga tomon 4 kilometr masofada davom etadi, so'ngra u keskin burilib sharqqa yo'naladi, ikki kilometr narida Mozor qishlog'ining janubiy qismidan o'tadi va 5 kilometrdan so'ng devor sharqi-janubga, keyin janubga qarab o'z yo'nalishini o'zgartiradi. Shu yo'nalishda 3 kilometrdan so'ng sharq tomondan qal'aga birlashib ketadi.¹⁷

Nurota shahristoni 500x500 metrli hududda joylashgan bo'lib, shahriston ham alohida mustahkam devor bilan o'ralgan va unga bitta darvoza orqali kirilgan. Nurota shahristoni darvozasi «Darvozai qo'rg'on» deb atalgan va undan chiqqan yo'l shimoliy mudofaa devori bo'lgan Pirostaning o'rtasiga yo'naltirilgan. Bu yerda esa shaharning asosiy darvozalaridan biri Darvozai Pirosta bo'lgan. Bu qadimgi yo'l hozir Ahmad Yassaviy ko'chasi deb nomlanadi.

¹⁷ Мухаммадиев Х. Қадимги мудофаа деворлари. Тошкент.: Фан, 1961. 43-бет

Pirosta devori paxsadan qurilgan, hozir uning ba'zi joylarda 170 santimetrli harobasi saqlanib qolgan. Devor ustidan arava bemalol yurganligini shu yerda xis qilish mumkin.

Pirosta devori ichkarisidagi yer maydonidan shaharliklar bog'dor-chilik, dehqonchilik uchun foydalanishgan.

Xitoy bilan Yevropani bog'laydigan Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i Nurota, Qoraqarg'a, Mingbuloq, Xorazm orqali Volgaga chiqqan. Ko'hna Pirosta ortidagi Pashshotda savdo-sotiq rivojlangan. Pashshotdagi bozor rastalarining o'rni hozir ham saqlanib qolgan.

Nurotalik otaxonlarning aytishlaricha, Pirosta devori ham Nurota qal'asi singari Iskandar davrida qurilgan. Shaharlik keksalar tilida «Sharsharai Ko'chot, gulgulai Pashshot», degan ibora uchraydi, Buning ma'nosi shuki, shaharliklar Nurotadan 7-8 kilometr uzoqlikda joylashgan Ko'chotda oqqan suvning sharsharasini hamda Pashshotda bo'layotgan bozor g'ulg'ulasini bemalol eshitishgan. Ularning aytishicha, Oqtov tomonidan kelayotgan Ko'chotdagi suv shunchalik tez bo'lganki, xatto tuyani ag'aratgan. Pashshot – katta qo'rg'on – qishloq bo'lgan. «Nurota qadimda shunchalik obod bo'lganki, - deya eslaydi Rajab bobo, - uloq Pashshotdan Ko'chotgacha tomma-tom borgan».

Qadimgi mudofaa devori uchta darvozadan iborat bo'lgan;

1. Darvozai Pirosta (Asosiy darvoza)
2. Darvozai Rabod (Jo'sh tomonda)
3. Darvozai Shodi (Hovuzak mahallasi tomonda)

Arxeolog O.M.Rostovsev ham o'zning 1974-yilda olib borgan ilmiy tadqiqotlaridan so'ng Nurota shahri va Pirosta mudofaa devorining reja chizmasini yaratgan va bu mudofaa devoridan uch tomonga chiqish mumkinligini ko'rsatib, Pirostani «Kampir devor» deb atagan.

Akademik Ya.G'ulomov o'zining asarlarida qadimgi Pirosta devorini qariyib to'rtburchak shaklda ya'ni shimol, sharq va g'arb tomondagi mudofaa devorlari taxminan 7 kilometrdan bo'lganligini, shahar janub tomondan tog'lar

bilan to'silganligi tufayli sharqiy va g'arbiy devorlar toqqa yaqinlashar-yaqinlashmas qo'rg'onlar bilan mustahkamlanib, shaharliklar o'zlarini har qanday vaziyatda ham ishonch bilan himoya qilganliklari haqida axborot beradi. Ya.G'ulomov Pirosta devorining faqat shimol tomonga ochiladigan bitta asosiy darvozasi haqida aytib o'tadi.

1451-1457-yillarda Nurota hokimi Pirko mo'g'ul, 1463-yilda Muhammad Jo'ki 1458-1462-yillarda Nursaidbek bo'lgan. Ular ham shu qal'adan turib Nurotani idora etganlar.

Nurota qal'asi Markaziy Osiyodagi ko'pchilik antik yodgorliklar qatoridagi to'la o'rganilmagan tarix xazinasiga bo'lib, u o'z sirlarini hali batamom ochgan emas. Kelajak avlod bu ko'hna Tarix xazinasining kalitini qo'lga kiritga ajab emas. Zero Iskandar Makedonskiyga qarshi O'rta Osiyo xalqlarini mardonavor kurashga otlantirgan sug'd bahodiri Spitamen va uning safdoshlari siymosini kitoblarda yaratib, bobolar ruhini shod etsak degan orzudamiz.

Chor mustamlakachilari O'rta Osiyoda mustamlakachilik tuzumini o'rnatganidan so'ng boshqaruv tuzumi isloh qilingan va 1925-yil Nurota bekligi o'rnida Nurota uyezdi tashkil etilgan. Nurota tuman sifatida 1926-yil 29-sentabrda Nurota uyezdi o'rnida tashkil etilgan. 1930-yil 17-avgustdan Samarqand viloyati tarkibida 1982-yildan Navoiy viloyati, 1988-yildan Samarqand viloyati va 1992-yil martdan boshlab yana Navoiy viloyati tarkibiga o'tgan. Tuman markazi Nurota shahri hisoblanadi. 1976-yildan boshlab Nurota qishlog'i shahar sifatida ro'yxatga olingan. Nurota tumaning umumiy yer maydoni 6531 kv.km. bo'lib bugungi kunda aholisi 85 ming kishini tashkil etadi. Nurota tumanida 7 ta qishloq fuqarolar yig'inlari; Nurota, Chuya, Qizilcha, Dehibaland, Sentob, Gum, G'ozg'onlardan iborat. Nurota shahrining yer maydoni 21,4 kv.km. bo'lib, 4 ta guzur 36 ta mahalla bor. Nurota shahri qadim zamonlardan fan va madaniyat markazlaridan bo'lgan. Nurota shahrida bugungi kunda 2 ta o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va tuman miqyosida esa 5ta kasb-hunar kollejlari mavjud. Tumanda bugungi kunda jami 56 umumiy o'rta ta'lim maktablari mavjud bo'lib

ular da jami 13342 o'quvchilar taxsil olmoqdalar. Bugungi kunda tuman markazi Nurota shahrida zamon talablariga javob beradigan maxsus musiqa va san'at maktabi qad roslamoqda. Bularning barchasi zamon talablari asosida jihozlangan, 40 dan ortiq maktablar joriy va kapital ta'mirlangan hamda 18 ta maktabda zamoniyl sport zallari mavjud. Bularning barchasi mustaqilligimiz sharofati mevasidir.

Aholisi 30,1 ming kishini tashkil qiladi. Nurota tumaning etnik tarkibi turli millat vakillaridan iborat. Tuman aholisining tarkibida o'zbeklarning o'rni ko'pchilikni va 86 %, tojiklar 11%, boshqa millat vakillari jumladan qozoqlar va qoraqolpoqlar 3%ni tashkil etadi. Nurota vohasida qadimdan bir necha tabaqa va urug'lar vakillari istiqomat qilib kelishgan.

Nurota tumani mamlakatimizda hudud jihatidan katta, joylashuv jihatdan o'ziga xos o'lkadir. Uning tarixi bir necha ming yilliklarni o'zida aks ettiradi. Hozirgi shahar qabristonida 154 ta qavm (go'rxona) mavjud bo'lib, qavm yoki to'p beshta yirik avlodlar va urug'lar sulolasiga borib taqaladi. Bular: O'zbek urug'lari; Arab avlodlari; Qozoq urug'lari; Turkman urug'lari; Fors-tojik avlodlari.

Bu avlod va urug'lar O'rta Osiyo zaminida qadimdan yashab kelgan sug'diylar, turkiylar, keyinchalik O'rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi hamda islom dinining keng tarqalishi natijasi o'laroq arablar qo'shilmasidan tarkib topgan va yillar o'tishi mobaynida tarixiy etnogezi jarayonida bir-biri bilan assimilyatsiyaga kirishib, bir-biri bilan qorishib ketgan hozirgi qavmlardir.

Nurota vohasi Nurota shahrining etnik tarkibi to'g'risda to'xtalib o'tganda turli millat va elat vakillari hamda turli o'zbek urug'lari haqida to'xtalib o'tish joiz deb o'ylaymiz. Bugungi kunda Nurota shahrida istiqomat qiloyotgan ayrim urug' va qavmlar haqida to'xtalgandi Nurota Sayyid avlodlari to'g'risida to'xtalib o'tish joiz. Bugungi kunda Nurota Sayyidlarining aholi orasida hurmat va etibori katta urug'lardan sanaladi. Ular o'zlarining to'g'ri so'zligi va ilmga tashnaligi va diniy ilmda boshqalardan ustinligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Nurota shahrida hozirgi kunda yashab kelayotgan tabaqalardan biri sayyidlar bo'lib, ular dastlab

Sayyidato mahallasida istiqomad qilishgan va hozirgi kunda shaharning barcha mahallalarida yashaydilar.

Sayyidlar - Muhammad payg'ambar avlodlarining faxriy unvoni bo'lib barcha musulmon mamlakatlarida alohida tabaqa sifatida izzat-hurmatga ega bo'lib xalq orasida doimo alohida mavqega ega bo'lganlar.

Sayyid (arabchada-janob) avlodlari islomda "xulafo arro- shidin" (to'g'ri yo'ldan yurgan xalifalar), dindorlar orasida "choryorlar" deb atalgan, Quraysh qabilasining hoshimiylar xonadonidan Muhammad payg'ambarning amakivachchasi dastlabki to'rt xalifadan (hazrati Abu Bakr, hazrati Umar, hazrati Usmon, hazrati Ali) to'rtinchisi hazrati Ali ibn Abu Tolib va Muhammad payg'ambarning qizi bibi Fotimadan tug'ilgan imom Hasan va imom Husayn hamda ulardan tarqalgan avlodlar hisoblanadi.

Sayyidlar deyarli barcha musulmon mamlakatlarida mavjud bo'lib, Eronda ko'p tarqalgan. Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda ular "to'ralar" va "eshonlar" (fors-tojikcha "ular") deb ataladi.

Arablar Movarounnaxr va Xurosonga islom dinini olib kirdi. Islom dini bilan birgalikda mahalliy aholi orasida arab tili, islom madaniyati keng targ'ib etildi. Islom ilohiyotchilari, tobeinlar, sayyidlar targ'ibot-tashviqot ishlarini keng ko'lamda olib bordilar. Ular O'rta Osiyoning eng asosiy shaharlari Marv, Termiz, Buxoro, Samarkand, Xo'jand va boshka ko'plab shaharlarda islomni da'vat qilib, masjid-madrasalar qurilishiga katta e'tibor berdilar.

Qadimgi Nurota aholisining islomni qabul qilishi qanday kechganligi haqida tarixiy manbalarda hozircha biror-bir ma'lumot uchratmadik. Faqatgina "Qutayba 709 yilda Buxoroga kelganida arablar Buxoro shahristonining bir qismiga, ya'ni Attoron darvozasigacha bo'lgan joylarda arab qabilalarining robi'a va mudar urug'larini joylashtirdi", - degan ma'lumot uchraydi. Shuningdek, Belazuriyning yozishicha, 671 yilda Basra va Kufa shaharlaridan 50 mingga yaqin arablar O'rta Osiyo shaharlariga yuborildi. Ular oilalari bilan kelishib, shahar va qishloqlarda yashay boshladilar. Narshaxiyning yozishicha, Qutayba Buxoroni

olgach mahalliy xalq xonadonini ikkiga ajratib, ularning yarmisiga arablarni joylashtirdi. Tabariyning yozishicha, yuqoridagi ahvol Samarqandda ham takrorlandi.

Buxoroga arablar kelib qanday joylashgan bo'lsa, Buxoroning Nurida ham xuddi shunday holat bo'lganligini tasavvur qilsa bo'ladi.

Sababi Nurotaning eng katta guzarlaridan biri qadimdan Arabguzar deb nomlanadi. Nur chashmasining bir arig'i o'tadigan bu joyda o'tmishda arablar dastlab kelib o'rnatish boshlashgan. Ushbu guzarda yashaydigan Nurotaning yirik qavmlaridan bo'lgan – “arabho”, “soqiboyonho” (laqabi “po'k”) antropologik jihatdan arabiy hamda turk-tojik tashki ko'rinishiga ega. Arabguzardagi dastlabki mahalla Sayyidato mahallasi bo'lib, bu mahallada qadimdan sayyidlarning avlodlari istiqomat qilib kelishadi. Nurota sayyidlari taqvodorligi, islomiy fikrlarining chuqurligi, etiqodi, sharqona lutflari bilan ajralib turishadi. Ular nihoyatda ko'rkam, chehralarida “Nuri Muhammadiy” balqib turadigan va xalq orasida “karomatli eshonbobolar” degan izzat-hurmatga ega. Ularning o'zlari va ota-bobolari haqida xalq orasida turli rivoyatlar yuradi.

Xalq orasida mashhur bo'lgan islom dinining Nurotadagi rahnamalaridan bo'lmish Muhammad payg'ambar (s.a.v) avlodlari vakillari-zabardast eshonbobolar Nusratillaxon, Boboxon, Rajabxon, Amonxon, Lutfilloxon, Jalolxon, Madadxon, Abdurasulxon, Mansurxon, Abdulfayzxon, Islomxon, Sayyidjon, Atoxon, Halimxon, Eshoni Sudur (Tursunxon), Karomatxon, Haydarxon, Muhammadjon, Ibrohimxon, Rajabxon, Ahmadxon, Mo'minxon, Istamxonlarni nurotaliklar nihoyatda izzat hurmat bilan nomlarini tilga oladi. Ahmadjon eshon boboniig aytishlaricha, Nurotaga dastlab kelgan eshon bobo Nusratillaxon bo'lib, ul zot Turkistondan kelgan sayyidlardan ekanlar. Nusratillaxon, Akbarxon va Rajabxon eshonlarning qabrlari Sayyidato mahallasidagi sayyidlar avlodiga mansub xilxona qabristonidadir.

Hozirgi Nurota qal'asining shimoliy-g'arb tomonida Nurota sayyidlari qabristoni joy olgan. Unda Mansurxon eshon (1919-yili vafot etgan), u kishining

o'g'illari Sayyidxon eshon (1887-1949), Atoxon eshon (1897-1961), Halimxon eshon (1908-1970)larning qabrlari mavjud. Shuningdek, ushbu qabristonda Qodirxon eshon ham dafn etilgan.¹⁸

Vohaning o'troq aholisidan biri bu tojik etnosi hisobladi. Tojiklar Nurota vohasida Nurota tizma tog'ning o'rta va eng baland qismidagi tor daralarida, Nurota shahrida va Oqtog'ning shimolida joylashgan G'azg'on va Dehibaland qishloqlarida kompakt holda joylashganlar. Tarixiy va etnologik adabiyotlarda ushbu guruhga nisbatan "nurota tojiklari" atamasi qo'llaniladi.

Son jihatdan ko'pchilikni mazkur etnoslar Nurota tizma tog'ining shimoli-sharqida joylashgan bir qator qishloqlarda tashkil etishgan. 1930-yillargacha mazkur hududda tojiklarning undan ortiq yirik qishloqlari mavjud bo'lgan. Biroq, o'sha davrda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan aholini qo'riq yerlarga ko'chirish siyosati natijasida ko'plab tojik qishloqlari deyarli bo'shab qolgan. Madaniyati jihatdan Buxoro shahriga yaqin bo'lgan G'azg'on, Dehibaland va Nurota shahri aholisi Nurota tizma tog'idagi tojiklarni o'zlaridan farqlagan holda, ularni "tog'chi" deb atashgan¹⁹. O'zining turmush tarzi va antropologik qiyofasi bo'yicha Nurota tizma tog'ida yashovchi tojiklar Yuqori Zarafshonda yashovchi tojiklar bilan ko'plab o'xshashliklarga egalar. Bundan tashqari ushbu xalqlar shevalarida ham o'xshashliklar mavjud.

Shunga qaramasdan, Nurota tizma tog'ining mazkur etnoslari 1872-yilda rus olimi A.P.Xoroshxinning ta'kidlashicha, o'zlarini o'zbeklarning ba'zi urug'lariga mansubligini ta'kidlashgan. Olim Nurota tojiklarining asli kelib chiqishi o'zbeklarga borib taqalishiga va keyinchalik ularning ba'zi bir tojik tilli guruhlar ta'sirida tojik tilini qabul qilganliklari borasidagi xalqona rivoyatlarga shubha bilan qaraydi. U o'z asarida «qaysi tojik guruhlari va qachon bu xalqqa ta'sir o'tkazgan. Axir, ular o'zbek urug'larining qurshovida joylashgan-ku» deb yozadi. Haqiqatdan ham, vohadagi tojik qishloqlari har tarafdin o'zbek urug'lari

¹⁸ Дала маълумотлари. Нурога тумани Нурога шаҳри Саййидота маҳалласи. 2012 йил

¹⁹ Кармышева.Б.Х. Пещерева Е.М. Материалы этнографического обследования таджиков Нуратинского хребта.//С.Э, 1964.

istiqomat qiladigan qishloqlar bilan qurshalgan. A.P.Xoroshxin mazkur etnoslarning tashqi tuzilishi, xo'jaligidagi ba'zi jihatlari va bir muncha madaniylashgan turmush tarzini ta'kidlagan holda, Nurota tizma tog'ining tojiklari sof tog'chi ya'ni "tog'li tojiklar"dir degan fikrga keladi.

Ma'lumki, Nurota hududlari Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan, taxtni o'zbek urug'lari egallaganidan so'ng, mamlakatda mazkur etnoslarning nufzi oshib ketgan. Aynan mazkur vaziyat Nurota vohasi tojiklari tomonidan o'zbek urug'lari nomlarini o'zlashtirilishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Ammo, mazkur jarayonda tabiiy, ya'ni etnik omilni ham hisobga olmaslik, fikrimizcha to'g'ri bo'lmaydi.

Xullas, bu hududda keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazish lozimligini ko'rsatadi. Nurota, shubhasiz O'zbekistondagi qadimiy shaharlardan biridir. Ushbu fikrni har tomonlama ilmiy asoslash keyingi bo'lajak tadqiqotlar natijalariga bog'liq.

II BOB
NUROTA TUMANING NAVOIY VILOYATI IQTISODIY
TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI

II.1 Xo'jalik yutiqlari.

Nurota tumani Navoiy viloyatining eng salmoqdor tumanlaridan sanaladi. Nurota tumani o'zining geografik joylashish o'rniga ko'ra Nurota vohasining markazida joylashgan hudud sanaladi. Qadim zamonlardan boshlab mazkur vohada xo'jalikning turli sohalari rivojlangan. Shunday ekan bugungi kunga qadar an'ana tarzida rivojlanib kelayotgan qishloq xo'jaliigi va xalq hunarmandchiligining o'ziga xos yutuqlari mavjud. Qadimda Nurota Buxoro vohasining shimolidagi chekka shahar hisoblanib, madaniy o'troq aholi va ko'chmanchi xalqlar yashaydigan hudud chegarasida joylashgan²⁰ shahar hisoblangan. Shunday ekan qadim zamonlardan mazkur hududda savdo-sotiq bilan birgalikda dehqonchilik va chorvalik rivojlangan. Nurotalik bobodehqonlar tomonidan qadim zamonlardan dehqonchilik amalga oshirib kelingan. Ular dehqonchilikda o'ziga xos yutiqlarga erishgan. Nurota vohasi aholisi qadim zamonlardan bugungi kunga qadar rivojlanib kelinayotgan dehqonchilikda ikki xil; lalmikor va obikor dehqonchilik rivojlanib kelinmoqda. Obikor dehqonchilikda Nurotaliklarning otabobolari o'zlari tomonidan yaratilgan kichik va yirik turdagi suv inshootlari: korizlar, to'g'onlari-suv omborlari suvlaridan va bahor oylari yog'ingarchilik natijasida yirik soylardan oqib keladigan suvlardan, tog' yonbag'irlaridagi buloq suvlaridan foydalangan holda amalga oshirganlar. Nurotalik bobodehqonlarning mehnatlari samarasi o'laroq ular tomonidan ishlab chiqilgan doimiy qo'llanib kelingan dehqonchilik bilan bog'liq an'analar bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Bunday an'analar bugungi kunda nurotaliklar tomonidan qo'llanib kelinmoqda. Bu an'analari xususida keyinroq to'xtalib o'tamiz.

²⁰ Ражабов Қ., Абдиева З. Нурота // Ўзбекистон миллий энсклопедияси. Т6. –Т.: ЎзМЭ нашриёти, 2003. 419-бет

Nurota vohasida qadim zamonlarda dehqonchilik rivojlangan hudud ekanligini va Nurota vohasi aholisi ota bobolari qadimda usta bobodehqonlar bo'lishganligi to'g'risida tarixiy asarlarda o'ziga xos satrlar saqlanib qolgan. Jumladan Abulg'ozi Baxodirxonning "Shajari turk" asarida: "...Chingizxon Zarnukni olgach, Nurotaga keldi. Nurota xalqi qal'aga qamaldilar. Undan elchilashib xalq qal'adan chiqib yaxshi peshkashlar bilan kelib xonni ko'rdi. Xon ham ul xalqqa inoyat shafqat qilib hukm qildikim, "sen xalq o'zingga yetgulik urug' va qo'sh ho'kizingni olib qal'adan chiqgil. Qolgan molingni lashkar talasin". Xalq qal'adan chikdi. Qolgan mollarini xonning lashkari talab oldi"²¹- degan ma'lumot keltiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki nurotalik qadim zamonlarda ham dehqonchilikning turli saxolari bilan chunonchi g'allakorlik bilan shug'ullanib kelishganlar.

Nurotalik dehqonlar asosan qadim zamonlardan bog'dorchilik uzumchilik va albatta g'allakorlik bilan shug'ullanib kelishgan. Nurotalik g'allakorlar qadimdan lalmikor bug'doy va arpa ekib kelishgan. Bunda albatda kuz mavsumi davomida yer shudgor qilingan va bahor kelishi bilanoq yerga urug' qadashga kirishgan. Lalmikor g'allachilikda kuzgi va bahorgi urug' qadash ishlari amalga oshirilgan.

Nurotalik bobodehqonlar qadim zamonlardan o'zlarining dehqonchilik yutiqlaridan faxirlanib kelishganlar. Chunki ular bu sohada bir qator yutiqlarga erishganlar. Jumladan Nurota vohasi qishloq xo'jaligida muhim soha sanalgan dehqonchilikning asosini tashkil qiluvchi iringasiya-sug'orish sohasi qadim zamonlardan rivojlanib kelgan. Ma'na shundan sug'orish tarmoqlaridan biri bu qadimiy korizlar sanaladi. Koriz – yer osti suvilarini yig'ish va uni yuzaga chiqrish uchun quriladigan maxsus inshoati bo'lib, u qadim zamonlardan boshlab Yaqin sharq Janubiy sharqiy Osiyo, O'rta Osiyoning tog'liq va tog'oldi hudularida, suv taqchil bunyod etilgan va bunday inshootlardan qadimgi zamonlardan so'ngi o'rta asrlar ya'ni xonliklar zamoniga qadar, ayrimlaridan xatto XX asrning

²¹ Абулғизий. Шажарий турк. Тошкент.: Чўлпон.1992. 64 бет

20-yillarga qadar foydalanishgan.²² Nurota vohasida insoniyat aql zakovatining maxsuli sanalgan bunday sug'orish inshootlari keng tarqalgan hududlardan sanaladi.

Qadim zamonlardan boshlaboq ajdodlarimiz nishabsiz tekis yerlarda quduqlar qazib, qovg'a bilan suv tortib o'z ehtiyojini qondirgan bo'lsa, past-baland adirlardan iborat tog' etaklarida esa yuzlab quduqlarni bir-biriga tutashtirgan antiqa irrigasiya inshooti - korizlar vositasi bilan yer osti suvlarini yer yuziga chiqarib, dehqonchilikda foydalanganlar.

O'zbekistonda mana shunday irrigasiya inshootlaridan keng foydalaniladigan tumanlardan biri bu biz ko'rib o'tayotgan Nurota tumani sanaladi. Bu yerda korizlar qadim zamonlardayoq barpo etilgan bo'lib, ulardan hozirgi kunlargacha foydalanib kelinadi. Manbalarda yozilishicha korizlar eramizdan oldingi 329-327-yil yan'ni Iskandar Zulqarnaynning O'rat Osiyoga yurishi davrida deb taxmin qilinadi²³. Nurotaliklarning rivoyatlariga ko'ra, Iskandar Zarafshon vodiysiga qo'shin tortib kelganda Nurota tizmasining janubiy qanoti Oqtog'ning eng yuqori cho'qkisiga chiqqan. U tog'dan janub tomonga qarasa, Zarafshon daryosi va obod vodiyni, shimol tomonida esa daraxtsiz keng maysazor yaylovni ko'rgan. O'shanda yam-yashil poyonsiz keng dashtga qarab Iskandar "bu viloyatning daryosi yer ostidan oqar ekan",-degan emish. So'ngra Iskandar qo'shinini Nurotaga olib kelib, 366 harbiy qism sarkardalariga o'z otryadlari bilan har biri bittadan koriz kavlashi haqida buyruq bergan. Natijada 366 ta koriz kovlanib, Oktog' etaklariga suv chiqarilgan va Nurota atrofi obod bo'lgan.

Shubhasiz bu faqat rivoyatgina bo'lmay, balki Nurotaning tabiiy sharoiti, jumladan, uning gidrogeologiyasi ustida mahalliy aholining uzoq vaqt olib borgan kuzatishlaridan to'plangan bilimning natijasidir. Shuning uchun ham Nurota tumani ostidagi oqar daryo to'g'risidagi xalq og'zaki rivoyati Iskandar tilidan

²² Пардаев М., Фофуров Ж., Қорабоев С. Ғарбий устуришонанинг ер ости сув чиқариш иншоотлари ҳақида // Ўзбекистоннинг моддий маданияти тарихидан. Самарқанд.: 2011. 215-бет.

²³ Суёнов С. Нурота коризлари ўрганиш // Ўзбекистон - қадимда ва ўрта асрларда. Самарқанд.: 1992. 121-122 бетлар

hikoya qilinib, yer osti suvlaridan foydalanish uchun kovlangan korizlar uning nomi bilan bog'lab ko'rsatilsada, lekin u suvga tanqis bo'lgan Nurota aholisining suv manbalarini izlab topish va juda katta mashaqqatlar bilan barpo etilgan suv inshootlari - korizlar orqali yer osti suvlarini yer ustiga chiqarish yo'lida olib borgan kurash tarixini ifodalaydi. Hududda Iskandar nomi bilan bog'liq korizlarda masalan Bog'ojot qishlog'i va To'ra qishloqlarida bugungi kunga qadar saqlanib qolgan korizlarni misol keltirish mumkin. Mazkur korizlardan faqat Bog'ojot qishlog'idagi korizdan bahor oylarida suv chiqib turadi.

Koriz-yer osti suv inshootidir. Bunday irrigasiya inshootini qurish nixoyatda og'ir va murakkab bo'lgan. U mashaqqatli qo'l mehnatidan tashqari, yer osti suvlarining to'xshanadigan qatlami, yil mavsumlarida bu suvlar sathida ro'y beradigan o'zgarishlar va koriz chiqariladigan joy relyefidagi nishablikni juda aniq belgilashni talab etgan.

Koriz chiqarishda tajribakor korizchi irrigatorlar dastavval qiyalikning balandroq yeridan yer osti suvigacha shaxmat usulida bir necha quduq qazishgan. Quduqlardagi suv vaqti-vaqti bilan belgilab turilgan. Yer osti suvlari tortilib, quduqlardagi suv sathi eng pastga tushgan fevral oyida koriz kavlashga kirishilgan. Ish yer nishabini belgilash, ya'ni nivelirovka qilishdan boshlangan. Chunki yer nishabini aniq va to'g'ri belgilash koriz trassasini o'tkazishda va yer osti suvlarining koriz orqali yer yuziga oqib chiqishida hal qiluvchi rol o'ynagan.

Nivelirovka qilib koriz trassasini belgilashda ikki yoki uch kishi qatnashgan. Birinchi kishi quduq tepasida usturlab orqali kuzatib turgan. Ikkinchi kishi bo'yi quduq chuqurligiga teng uzun xoda yoki yog'ochni olib. Suv chiqariladigan tomonda uni tikka ushlab turgan. Yog'ochning uchi quduq og'zi bilan bir xil gorizontaal yo'nalishda bo'lganda, quduqdagi yer osti suvi o'sha nuqtada yer yuziga oqib chiqqan.

Yer nishabini olishda vaterpas asbobi ham ishlatilgan. Tarozi - vaterpas yordamida yer sathini belgilashda uch kishi katnashgan. Ikki kishi yog'och xodalarni tik o'rnatib, reja ipini tarang tortib turgan. Uchinchi kishi tarozini reja

o'rtasiga osib, shokulga qarab yer nishabini belgilagan. Tekshirilayotgan tekislik gorizontal vaziyatda bo'lsa, u muvozanatni saqlagan, aksincha bo'lsa shokulning bir tomoni og'ib ketgan. Shokul otgan tomonda ip uchini yog'och xodadan pastga tushirib, shokulni tarozining tiliga keltirish bilan yeriing qanchalik qiyaligi aniqlangan. Shu tariqa butun koriz trassasi belgilab chiqilgan. Demak, yer osti suv inshootlari - korizlar qazishda usturlob (astrolyabiya) va shokulli tarozi (vaterpas) kabi maxsus asboblardan foydalanilgan. Bu asboblardan yordamida yer sathidagi nishablikning aniq hisobi olingan.

Nivelirovka o'tkazilib, koriz trassasi aniqlangach, trassa bo'ylab har 10 metrda qator quduqlar kovlangan. Yer osti suvlarining to'plangan qatlamiga qarab suv chiqadigan bosh quduqlarning chuqurligi 18-20 metr, ba'zan undan ham oshiqroq bo'lgan. Quduqlar tunnel orqali bir-biriga tutashtirilgan. Bosh quduqlardan yig'ilgan yer osti suvlari mana shu tunnel orqali oqib chiqqan. Tunnel «laxm» deb atalgan. Uning balandligi 1,25-1,5 metr, eni 1 metr bo'lib, uzunligi joy nishabiga qarab bir necha kilometrga cho'zilgan. Masalan, Nurotadagi Maston deb atalgan korizning 280ta qudug'i bo'lib, bosh quduqning chuqurligi 14 metr va laxmning uzunligi 3 kilometrga teng bo'lgan. Korizning quduqlar orasidagi ustki qismi «pushta» deb atag'tgan.

Korizni kovlashda laxm o'tkazish eng ma'suliyatli ish bo'lib, yer osti suvlarining yer ustiga oqib chiqishi laxmning to'g'ri kovlanishiga bog'liq bo'lgan. Buning uchun, birinchidan, quduqlarni birlashtirishda, qarama-qarshi tomonlardan kovlanadigan laxmning biror yoqqa qiyshayib ketishiga yo'l qo'ymay, quduqlarni bir-biriga to'g'ri tutashtira olish, ikkinchidan, koriz orqali yer osti suvlarini yer ustiga oqib chiqishini ta'minlash lozim bo'lgan. Shuning uchun ham laxmlar odatda 0,005 metr nishablikda kovlangan.

Koriz kovlashda bir qancha korizchi jamoalar oylab va yillab laxm hamda quduqlar qazib, minglab kubometr tuproq va shag'allarni qazib chiqarishgan. Masalan, uzunligi 3 kilometr bo'lgan 250-300 quduqlardan iborat o'rta hajmdagi korizdan taxminan 7-8 ming kubometr tuproq qazib chiqarilgan. Nurotadagi

korizlardan birining “Zulmkoriz” deb atalishiga sabab Iskandar bu korizni zulm bilan qazdirgani va yer osti suvlarini yer ustiga chiqarishdagi mehnat jarayonining nihoyatda og’irligidan bo’lsa kerak.

Ma’lumki, korizlardan bir me’yorda suv oqib turishi uchun ular har yili tozalanib turilgan, ta’mir etilgan. Koriz tozalash eng mashaqqatli va og’ir ishlardan hisoblanadi. Chunki korizdor dehqonlar har yili erta bahorda 20-30 kun korizning tonneli ichida suv kechib, laxm va quduqlar ichiga cho’kkan loyqalarni qazib chiqarganlar. Ko’pincha korizning pushtasi cho’kib, laxmning kattagina qismini bosib qolgan. Bunday hollarda laxmning bosib qolgan qismi qayta qazilib, o’pirilgan joylariga yog’och yoki toshlar qo’yilib mustahkamlangan.

Ha, korizlar ko’hna Sharqning qadimiy gidrotexnika inшоati bo’lib, korizchilik ota-bobolarimiz dehqonchilik san’atining noyob namunasi hisoblanadi. O’tmishda bobodehqon o’tgan ajdodlarimizning yer osti suvlarini mohirlik bilan yer yuzasiga olib chiqqanligini ko’rib lol qolasan kishi.

Bobolarimiz koriz suvi to’g’ri oqayotganlishni tekshirish uchun birinchi quduqqa kax-somon tashlab, somonni oxirgi quduqdan chiqayotgan suvda ko’rib, suvning ravon oqayotganligini, suv miqdorini tekshirganlar. Rivoyat qilisharicha, Iskandar Nurotaga kelganida oxirgi quduqda bir to’da odam quduq boshidagilarga qarab, “Kax rez! (Somonni to’k)” deb baqirayotganligini eshitib: “bular nima deb qichqirishayapti?”-deb so’ragan ekan.

O’zbekistonning tog’oldi tumanlarida qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha korizlardan foydalanib kelinmoqda. Irrigatsiya texnikasining bu qadimgi turi keng tarqalgan tumanlardan biri Nurotadir. Nurotaning qadimgi korizlaridan juda ko’pi ko’milib ketgan bo’lsa ham, hozirgi vaqtda faqat Kalta-korizda qishin-yozin suv oqib turadi. Mahalliy xalq tumanda mavjud bo’lgan korizlarning bir qismiii Iskandariy korizlar deb sarkarda Iskandar nomi bilan bog’laydi. Ular: Tovboy, Qaynar, Boshkoriz, Mazor, Quvandiq, Ko’nchi, al-Buxoriy (Alpuxori), Satilg’on, Miri, Yalok, Taylok, Sulton, Maston, Mastak, Komboy, Zulfiqor, Kalta-koriz bo’lib ularning nomlari yillar o’tishi mobaynida ehtimol o’zgargan. Biz

quyida yana Nurota korizlarining nomlarini keltiramiz: Toshloq, Gajobod, Savrobod, Qizil kanda, Sattorobod, Toshquduq, Xayrobod, Yamon turkman, Qum koriz, Chuchqok koriz, Zulmkoriz, Dangal koriz, Janjalobod, Nurobod, Saxti, Sherobod, Go'robod, Qulol, Korizi Kalon, Korizcha va boshqalar. Nurota korizlarining har biridan o'rta hisobda sekundiga 40-50 litr suv oqib chiqib, 40-50 gektargacha yer maydonini sug'organ.

Nurota korizlarining ko'pi oxirgi marta XVI-XVIII asrlarda qurilgan bo'lib, hatto ayrim korizlarning nomlaridan ularning qazilishi tarixi yili chiqadi. Masalan, "Zulm" korizining nomidagi harflarning yig'indisidan 970 raqami va "Zulfikor" korizi nomidagi harflardan 1118 raqamlari chiqadi. Xijriy yil hisobida olingan bu raqamlarni milodiy yilga aylantirsak "Zulm" korizi 1533-1534 yillarda va "Zulfikor" koriziz esa 1706-1707-yillarda qurilganligi ma'lum bo'ladi. Shunisi harakterliki, hozirgi vaqtda oxirgi marta qazilgan ko'pgina korizlarning yonida, ularga parallel ravishda ba'zan ikki, bazan uch qator ko'milib, suvi qurib qolgan ko'xna korizlarning o'zanlari joylashgan. Bu quruq uzanlari, shubxasiz, asrlar davomida Nurota korizlarining bir necha bor ishdan chiqib, qayta tiklanganligining guvohidir.

Koriz kovlash, shuningdek, korizni tartibli saqlash uchun, uni ta'mir etishda bajariladigan qo'l mehnatining nihoyatda og'irligi tufayli korizdor dehqonlar bunday yer osti inшоati bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni jamoa-jamoa bo'lib, birgalikda amalga oshirishgan. Korizdan oqib chiqadigan suv miqdori aytarlik ko'p bo'lmasdi. Shuning uchun ham har bir jamoadagi koriz suvidan foydalanuvchi dehqonlarning soni qat'iy belgili bo'lgan. Masalan, kichikroq korizlarda qarizdor jamoa 24 kishidan va kattaroq korizlarda 36 kishidan oshmagan. Har bir koriz 24 yoki 36 dehqondan iborat jamoaning kuchi yoki mablag'iga qurilgani uchun, u shu jamoaning jamoa mulki hisoblangan. Shunga asosan korizdan foydalanishda bu jamoa a'zolari teng huquqli bo'lib, koriz suvi ham, undan sug'oriladigan yer maydoni ham ular o'rtasida bab-baravar taqsimlangan.

Koriz suvi bilan dehqonchilik qilishda har bir korizdor jamoa 10 yoki 12 ta mayda guruhlariga bo'lingan. Har bir guruh mayda korizlarda ikki dehqondan va katta korizlarda uch dehqondan iborat bo'lgan. Nurotaliklar bunday guruhlarini "hamboz", ya'ni sherik deb atagan. Koriz suvi bilan sug'oriladigan yer maydoni ham hambozlarning soniga qarab bo'lingan. Har bir yer bo'lagi "taxta" deb yuritilgan. Katta korizlarda taxta 16 tanob (4 gektar) va kichik korizlarda 6-8 tanob (1,5-2 gektar)ga teng bo'lgan.

Har yili bahorda hambozlar o'rtasida chek tashlash yo'li bilan taxtalar taqsimlanib, sug'orish navbati belgilangan. Navbat esa haftada bir marta aylangan. Odatda koriz suvi sutka bilan o'lchanib, nurotaliklar uni "shabi-ro'z", ya'ni kecha-kunduz deb atashgan. "Shabi-ro'z" 96 qoraga (obi karoyi) teng bo'lib, vaqt bilan hisoblanganda korizdan ovdan 15 minutlik suv bir qora xisoblangan. Har bir taxtaning hakobasi, ya'ni tegishli suvi 48 qora bo'lib, navbat kelganda bir kun yoki bir kecha koriz suvinin hammasi shu taxtaning hambozlariga berilgan. Korizdan foydalanuvchi har bir dehqon esa 16 qora suvga yoki korizning 4 soatlik suviga ega bo'lgan. Bu suv nasldan-naslga meros tarzida o'tishi tufayli har bir dehqon o'z suvini sotish huquqiga ega bo'lgan. Korizning suvi nihoyatda qimmatbaho bo'lib, uning har qorasi botmon g'alla yoki bosh qo'y hisobida sotilgan.

Jumladan: Maston korizining bir qora suvi 20-25 bosh qo'y bahosida bo'lgan. Suvning nihoyatda tanqisligi va qimmatligidan Nuratoda kimda kim suv sotib olsa, yoki otasi vafot etib otasining suviga ega bo'lsa, korizdan suv ichadigan barcha dehqonlarni chaqirib "kapa" ziyofat bergan va arbob hamda oqsoqollarga to'n kiydirgan. Suv sotib olinganidan so'ng beriladigan ziyofat "nimmardi", otasining vafotidan so'ng uning hakobasiga (otasiga tegishli suvga) ega bo'lgan o'g'il tomonidan qilib beriladigan ziyofat esa "nadari murd" deb atalgan. "Nimmardi" va "nadari murd" kabi ziyofatlardan so'ng korizdor jamaoga qabul qilingan kishilar - hambozlar qatoridan joy olgan.²⁴

²⁴ Шавкат Исмоилова. Ўша асар. 31 бет

Nurota vohasida ham qadim zamonlarda mamlakatimizning boshqa hududlarida bo'lgani nurotalik zaminorlar sug'oriladigan yerlari ijraga berishganlar. O'z navbatida ijjorador tomonidan yerni ijraga oluvchi chorakor qo'sh, urug'lik, oziq ovqat bilan ta'minlagan. Xirmon uyulganda esa xosil teng ikkiga bo'lib olingan.

Nurota vohasida qadim zamonlarda dehqonchilik va u bilan bog'liq an'analarning rivojlanib kelganligi ko'rsatib beruvchi yirik sug'orish inshooti bu XVI asr me'morchiligini va irrigasiya sohasining yirik na'munasi sanalgan "Abdullaxon bandi" suv omboridir.

XVI asr Buxoro tarixchisi Hofiz Tanish Mirmuhammad al-Buxoriyning "Abdullanoma" nomli qo'lyozma asarida hikoya qilinishicha, Buxoro xoni Abdullaxon 1582-yilda Shimoliy Qozog'istonga qilgan harbiy yurishidan qaytib kelayotganda Nurotaga Jo'sh qishlog'i yaqinidagi Oqchob manzili orqali o'tgan. Bu yerda bahor oylarida juda ko'p miqdorda sel suvlari to'planar ekan. Ammo bu suvlarning dehqonchilik uchun foydasi bo'lmagan. Sel suvlaridan mahalliy dehqonlarning foydalanishi uchun xon Oqchob darasi oralig'iga katta to'g'on qurishni buyurgan⁵². Shubhasiz, Oqchob qishlog'ining aholisi dehqonchilik qilish uchun suvning tanqisligi haqida Abdullaxonga arz qilgan va undan Oqchobsoyni to'sib suv ombori qurishga ruxsat berishni iltimos qilgan. Shuning uchun ham Abdullaxon xonlikdagi eng oliy mansablardan biri "otaliq" lavozimini o'tab turgan Ahmadali Naymanga band qurilishida boshchilik qilishni buyurgan⁵³. Biroq qo'lyozmada bu qurilishning natijasi to'g'risida hech qanday ma'lumot berilmagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yozilgan "Tarixi Salimiy" nomli qo'lyozmada keltirilgan quyidagi ma'lumotlarga qaraganda, inshoot to'la qurilib bitkazilgan. "Tarixi Salimiy"da yozilishicha, bahorgi yomg'ir suvlarini to'plash uchun Abdullaxon tomonidan qurdirilgan to'g'on ikki tog' oralig'ida joylashgan dara ichida tog' toshlari va pishiq g'ishtlardan bino qilingan. Inshootning uzunligi besh yuz qadam bo'lib, uning har joy, har joyida suv oqib chiqadigan

temir dahalari – qovurlari bo'lgan.²⁵ To'plangan suv quvurlardan chiqib Nurota tomon oqqan. Xullas yuqoridagi qo'lyozma asarlarda tasvirlanishicha, XVI asrda Nurota vohasida qurilgan suv omborining to'g'oni o'sha davrdagi eng ulkan va anchagina murakkab suv inshootlaridan bo'lgan.

“Abdullanoma” va “Tarixi Salimiy” asarlarida qayd etilgan XVI asr suv ombori to'g'onining qoldiqlari 1913-yilda Rossiya dehqonchilik ministrligining yerlarni yaxshilash bo'limi tomonidan tashkil etilgan Buxoro ekspeditsiyasining ishtirokchisi, tuproqshunos N.A.Dimo tomonidan topilgan. 1957 va 1962-yillarda u Ya.G'.G'ulomov boshliq Moxondaryo arxeologik otryadi tomonidan maxsus tekshirildi. Bu qadimgi suv inshooti Oqchob qishlog'i yaqinida Nurota tizma tog'larining janubiy yon bag'ridan oqib chiqadigan Beklarsoy ichida qurilgan. Oqchob qishlog'i esa Nurotadan 65 km sharqda Urganji Qishloq fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Qishloqning shimoliy va sharqiy tomonlari Nurota tog' tizmalariga yondashib ketgan adirlarga va uning janubiy hamda g'arbiy tomonlari esa, Nurota tog'ining Oqtog' va Qoratog' tizmalari oralig'ida g'arbga tomon cho'zilgan Nurota o'rta vohasining keng yaylovlariga tutashgan. Oqchob qishlog'idan adirlar o'sha soy qirg'og'i bo'ylab yuqoriga ko'tarilgan sari uning sohillari balandlashib, qoyatoshli daraga aylanadi. Ushbu daraning tor yeri Hofiz Tanish tasvirlagan ulkan to'g'on bilan to'silgan. Bu inshoot mahalliy aholi o'rtasida “Abdullaxonbandi” nomi bilan mashhurdir. “Abdullaxonbandi” tog' toshlaridan suvga chidamli maxsus qurilish qorilmasi bilan bino qilingan. Hozirgi vaqtda to'g'onning uchdan ikki qismi saqlanib, qachonlardir Beklarsoyning kuchli oqimi daraning so'l qirg'og'iga tutashgan joyida uning uchdan bir qismini tag-tugi bilan olib ketgan. Shunga qaramasdan, inshootning saqlanib qolgan qismida olib borilgan arxeologik tekshirishlar, to'g'onning tuzilishi, qurilish materiallari, to'g'on oldida vujudga kelgan suv omborining kattaligi, unga to'plangan suvning miqdori va boshqa masalalarni aniqlab berdi.

²⁵ Мирзо Салимбек. Тарихи Салимий. Тошкент.: Фан. 1997. 45 бет

Beklarsoy darasining Abdullaxonbandi o'rnatilgan joyining kengligiga qaraganda, to'g'onning uzunligi "Tarixi Salimiy"da ko'rsatilganidek, 500 qadam bo'lmay, balki asosida 73 m, yuqorisida 85 m bo'lib, eni tubida 15,3 m va ustida 4,5 m, balandligi esa 15 m bo'lgan²⁶. Bu inshootning old tomoni tik ko'tarilgan va orqa tomoni esa, avvalgi ikki yodgorliklardagidek, to'g'on oldiga to'plangan 15 m chuqurlikdagi suv zapasining bosim hamda inshootni ag'daruvchi kuchlariga qarshi zinapoya shaklida ishlangan. Shuning uchun ham to'g'onning asosi yuqorisiga nisbatan deyarli 3,5 barobar qalin qilib qurilgan.

Abdullaxonbandi to'g'oni bir nechta inshootlar kompleksini o'z ichiga olgan zamonasining anchagina murakkab injenerlik tipidagi gidrotexnika inshootlaridan hisoblanadi. Uning inshootlar kompleksi Beklarsoyni to'sib turgan balandligi 15 m tosh to'g'on, suv omboridan ortiqcha suvlarni chiqarib yuboradigan suv tashlag'ich, jamg'arilgan suvlarni vegetatsiya davrida ekin yerlariga chiqarish uchun ishlangan oldi ochiq quduqli darvoza hamda to'g'on ostidan ko'ndalang o'tkazilgan ravoqsimon shakldagi tonneldan iboratdir. Shunday qilib, suv tashlag'ich inshootlari tuzilishi jihatidan XVI asr gidrotexnika inshooti Xonbandi va G'ishtbandilardan tubdan farq qilgan. Abdullaxonbandida pastbaland o'rnatilgan quvurlarni deyarli uchratmaymiz. Ular vazifasini ravoqsimon tunnel va oldi ochiq quduqli ikki qavat qilib ishlangan suv tashlag'ich darvoza bajargan.

Inshoot ostidan o'tqazilgan tunnelning balandligi 1 m, eni 50-60 sm va uzunligi 19,3 m ga teng. Uning ichki og'zi ravoqsimon va tashqarisi kvadrat shaklda ishlangan. Tunnel o'z navbatida, to'g'onning markazidan tushirilgan chuqurligi 14 m va diametri 2 metrli quduq bilan tutashgan. Asosiy suv tashlag'ich darvoza ravoqsimon tonneldan 1 m yuqorida o'rnatilib, eni 50 sm, balandligi 12,5 metrli torgina yo'lakni eslatadi. Suv oqib o'tadigan bu tor yo'lakcha ham quduqqa tutashtirilgan. Tunnel havzadagi suv zapasining sathi eng pasaygan paytdagina ochilib qolgan vaqtlarda doimo mahkam berkitib qo'yilgan.

²⁶ Мухаммаджанов А. Куйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. Тошкент.: Фан. 1972. 313 бет

Suv oqimini boshqaruvchi regulyator vazifasini yo'laksimon sifatida ishlangan yuqoridagi ikkichi suv yo'li bajargan. Yo'lakning og'zi va o'rta belida kengligi 20 sm chuqurligi 10 smli vertikal pazlar ishlangan bo'lib, soy suvini havzaga damlash vaqtida ularga to'rtburchakli g'o'lalar terib chiqilgan. Natija inshoot butunlay berkitilib, suv bog'langan. To'pganlangan suvdan kerakli vaqtda foydalanish uchun g'o'lalar birin ketin olib turilgan.

XVI asr gidrotexnika inshootlarining suv tashlag'ich darvozsi konstruksiyasidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Abdullaxonbandini qurgan mutaxassislar darvozadan katta kuch bilan o'tadigan oqimning inshootni yemiradigan dinamik ta'siriga qarshi murakkab texnikaviy masalarini juda ustalik bilan yecha olganlar. Masalan, katta bosim bilan tor yo'lakdan otilib kirayotgan suv quduq bo'shlig'iga kirishi bilan bir muncha susaygan. Bo'shliq doira shaklida bo'lgani uchun oqim diyarli qarshilikka uchramasdan doira bo'ylab harakat qilgan va girdob hosil qilib, inshoot tubidan o'tgan quvir orqali tashqariga oqib chiqqan. To'g'onning ko'ndalangiga quvur kesib o'tgan shu qismi orqa tomondan 4X4 m kattalikdagi zinopoya qilib ishlangan tirak bilan mustahkamlangan.

Tuneldan oqib chiqadigan suvni pasaytirib turish uchun tunul og'zidan pazlarga g'o'lalar tirab qo'yilgan. Bu pazlarning kengligi va chuqurligi 20 sm bo'lgan. Go'lalar shubhasiz qalqon vazifasini bajargan. Ostki ravoqsimon tunel esa, o'z navbatida to'g'on oldiga to'plangan loyqalarni suv omboridan tashqariga chiqarib yuborish uchun xizmat qilgan. To'g'onning o'ng tomonida uning tepasidan ko'ngdalangiga kesib o'tgan uchun suv tashlag'ich inshoot esa to'g'onning o'ziga kengligi va chuqurligi 1 mert ariq shaklida ishlangan. Havza suvga to'lib, uning sathi to'g'onning yuqori damiga ko'tarilgan vaqtida ortiqcha suv ma'na shu tashlag'ich orqali o'tib, tog' qiyaligi bilan pastga yo'nalgan va soy qirg'og'i bo'ylab kovlangan ariqqa oqib tushgan. Shunday qilib Abdullaxonbandi, Tarixiy Salimi asarlarida yozilganidek, temir quvurlar esam, balki toshdan ishlangan tonnel, g'o'la bilan boshqariladigan qudiqli darvoza va toshqin vaqtlarda ortiqcha suvni oqizib qo'yadigan suv tashlagich kabi bir nechta

inshoatlar kompleksi bilan ta'minlangan haqiqiy injenerlik asosida qurilgan suv ombori hisoblanadi.²⁷

Shunday qilib, o'rta asr irrigatsiya texnikasining bu ajoyib namunasi injenerlik inshoatlari kompleksi jihatidan, hozirgi zamon suv omborlari bilan deyarli bir xilda qurilgan.

XVI asrda suv ombori qurilgan Beklarsoy V.A.Shuls klassifikatsiyasi bo'yicha qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar tipiga kiradi. Beklarsoyning havzasi unchalik katta bo'lmay, u 180 kv.km ga teng. Uning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi 0,72 m³/sekkuntga teng. Sug'orishda foydalanish uchun mumkin bo'lgan uning yillik oqimi 13 mln m³dan oshiqroqdir²⁸.

Ma'lumki, Beklarsoyning o'zani dara ichida ancha nishab bo'lib, u har 100 m da 1-1,2 m pasayadi. Shunday bo'lsa-da, XVI asrda Beklarsoy tosh to'g'on bilan to'silgan, inshoot oldiga to'plangan suvning sathi 15 m ga ko'tarilganda hosil bo'lgan suv omborining uzunligi 1,5 km gacha cho'zilgan. Kengligi to'g'on oldida 85 m va soyning yuqori qismida 125 m ga teng bo'lgan. Abdullaxonbandi suv omboriga o'rta hisobda 1-1,2 mln. m³ suv to'plangan. Inshootdan quyida joylashgan Kamar, Oqchob, Urganji, Ravot, Jilontamg'ali va Soykechar qishloqlari suv omboriga jamg'arilgan suvdan dehqonchilikda foydalanilgan. XVI asrda a'na shu qishloqlar atrofida taxminan 1-1,2 ming gektar yer maydoni o'zlashtirilgan. To'g'onning balandligi va uning oldida to'plangan suv zapasining umumiy hajmiga qarab fikr yuritganda, bu inshootni bino qilgan XVI asr irrigatorlari Abdullaxonbandi suv omboriga Beklarsoyning yillik oqimining faqat 10 prosentinigina jamg'ara olganlar, xolos. Biroq bu yerda shuni aytib o'tish kerakki, Abdullaxonbandi suv omborini qurishda o'rta asr irrigatorlari geologik va gidrogeologik jihatdan Beklarsoyning eng mustahkam va eng qulay qismini belgilay olganlar. Buni Beklarsoyda yangidan suv ombori barpo qilish maqsadida

²⁷ Мухаммаджанов А. История орошения Бухарского оазиса. Тошкент.: Фан. 1978. 260-262 стр.

²⁸Текущий архив управления треста совхозов Самаркандской области, Технико-экономическое обоснование противоэрозионных мероприятий на Акчобсае в совхозе «Кушрабад-2» Нуратинского района Самаркандской области, 1971., кн. I, стр. 19, кн. III, стр. 10—11.

keyingi yillarda o'tkazilgan geologik va geofizik tekshirishlar to'la tasdiqladi. Qizig'i shundaki, Abdullaxonbandi to'g'onidan quyida Beklarsoy bo'ylab 850 m masofada ikki yerda suv ombori qurish mumkin bo'lgan torgina dara bo'lishiga qaramasdan, o'tgan asrning 70-yillarida "Uzshprozem" institutining loyihachilari yangi to'g'onni XVI asr inshoati ustiga o'rnatishga mo'ljallaganlar. Bu tasodifiy voqea bo'lmay, balki qadimgi inshoatdan quyida Beklarsoyni ko'ndalangiga ikki yerida yer qobig'ining regional tektonik yorig'i o'tib, suv omboriga to'planadigan oqimning yer ostiga singib ketish xavfi bilan bog'liqdir. Shunga asoslanilsa, Abdullaxonbandini bino qilgan XVI asr irrigatorlari suv inshoatlarini qurishda faqat tajriba va o'z zamoni uchun yuqori darajada texnika bilimiga ega bo'libgina qolmay, balki suv oqimining harakat qonunlarini, Beklarsoyning gidrologiyasini va to'g'on qurilgan daraning gidrogeologiya va geologiyasini ham yaxshi bilganlar.

Zarafshon vodiysida o'rta asrning injenerlik tipidagi yirik gidrotexnika inshoatlari sel suvlarini jamg'arib, ulardan sug'orishda foydalanish uchun suv omborlari bino qilish sug'orma Sharqning tog'li va tog'oldi viloyatlari irrigatsiya texnikasida qadimdan qo'llanilgan. Nurota vohasida Beklarsoy darasida ma'na shunday tarixiy suv inshoatining borpo etilishi buning yorqin isbotir. Bunday suv inshoatlaridan o'rta asrlarda shimoliy Eron va shimoliy Afg'oniston territoriyalarida, ayniqsa, keng foydalanilgan.

Ma'na shunday gidrotexnika inshoatlarining qurilishi va ulardan foydalanish dehqonchilik nechog'lik rivojlanganligidan dalolat beradi. Nurota vohasining sharqiy qismida XVI asrda ma'na shundan suv omborini to'g'onning qurilishi mazkur hudud qishloqlarida dehqonchilikning ma'na shu davrda yuqori darajada rivojlanganligi ko'rsatib o'tadi.

Nurota vohasi qadimdan nafaqat dehqonchilik balki chorvachilik rivojlangan hududlardan biri sanalgan. Voha aholisi chorvachilikda asosan qorako'lchilik alohida etibor qaratgan. Nurota qorako'l terilari Buxoro bozorlarida hamisha a'lo sanalgan. Shuning uchun juda ham xaridorgir maxsulot sanalgan.

Qadimda hozirgi Qo'shrobot, Nurota, Pichot, Chuya hudularida chorvachilik keng rivojlangan. Nurotaliklar chorvachilikda suruv chorvachiligiga alohida etibor qaratishganlar. Nurota vohasi qadim zamonlardan boshlab chorvachilikning turli sohalari rivojlanib kelgan qorako'lchilik maxsulotlarini ishlab chiqarishda erishgan yutuqlari samarasi maxsuli sifatida Nurota vohasida yetishtirilgan maxsulotlar Jumladan Nurota qorako'l terilari – ko'k, surx va boshqa turdagi terilar Buxoro bozorlarida ma'lum va mashhur bo'lgan. Nurotalik savdogarlardan biri Sudur Tursunxo'jayev o'z xo'jaligida va voha yetishtirilgan teri maxsulotlari bilan doimiy savdo-sotiq qilib borgan. Bir gal hatto Orenburg bozorlariga qadar Buxoro amirligining savdo karvoniga boshchilik qilib borib yirik foyda ko'rgan.

Nurota tumaning qadimdan chorvachilik uchun qulay hududda joylashganligi bugungi kunda tuman iqtisodiy xo'jaligida qadimiy an'analardan foydalangan holda chorvachilik bilan shug'ullanish imkoniyatini bermoqda. Bugungi kunda tumanda 4 xo'jalik chorvachilik aynan qorako'lchilik bilan shug'ullanib kelmoqda, tumanda 10 shirkat xo'jaligi 500 ga yaqin fermer xo'jaliklar mavjud. Tuman zahira yer maydonining 503 ming ga yeridan foydalaniladi shundan 3,1 ming ga yer maydonlari shartli sug'oriladigan yer maydonlari sanaladi. Tumanda dehqonchilik ishlari asosan lalmikorlik asosida bo'lgani uchun 16,3 ming ga yerdan foydalaniladi.

Xullas, Nurota vohasi qadimdagi dehqonchilik va chorvachilik madaniyati yuksak daraja rivojlangan hududlardan sanaladi. Nurota vohasi aholisi qishloq xo'jalida umuman ma'na shu sohada yirik muvoffaqqiyotlar erishgan hudud sanaladi. Mazkur hududning sug'orish texnologiyasi va undan foydalanish an'analari ma'na shunday xulosaga kelishga zamin yaratib beradi.

II.2 Tumanning iqtisodiy tarzi.

Nurota vohasi qadim zamonlardan savdo sodiq rivojlangan mintaqalardan hisoblanadi. Nurta vohasidan Ipak yo'lining bir tarmog'i bo'lgan qadimgi "Tosh yo'li" o'tgan va mazkur savdo yo'li orqali kelgan savdo karvoni Nurota shahrida

toza ichimlik suvi g'amlash maqsadida to'xtab o'tgan, olib kelgan mollari yordamida savdoni amalga oshirgan.

Olib borilgan tadqiqot ishlari natijasi aniqlanishicha Qadimgi Buyuk Ipak yo'lining katta harbiy va madaniy ahamiyat kasb etgan Tosh yo'li Nurota vohasi orqali o'tgan, keyinchalik bu yo'l Xon yo'li deb atalgan. Bu Tosh yo'li orqali karvonlar avval Buxoroga, undan so'ng Dashti Qipchoqqa chiqqan. O'tgan asrning 60 yillarida Nurota shahrida arxeologik tadqiqotlarni olib borgan akademik Ya.G'.G'ulomovning fikriga ko'ra karvonlar asosan Nurota yaqinidagi Pashshot(Nurota shahrining g'arbiy qismida bugungi kunda savdo rastalarining qisman saqlanib qolgan) manzilgohiga kelib to'xtashgan va u yerda katta bozor bo'lgan. Nurota orqali o'tgan qadimgi Tosh yo'lini Buyuk Ipak yo'lining bir tarmog'i deb atash mumkin.

Tarixiy manbalarda keltirilshicha Chingizxon Sartoq shahrini olgandan so'ng Nurotaga yurish uyushtirgan. Chingizxon Nurotaga turkman qulovuzlari(yo'lboshchilari)ning yordami bilan kirgan va u kelgan yo'l ko'p zamonlargacha «xon yo'li» deb atapgan.²⁹

1220 yil yanvar oyida Chingizxonning oldingi muntazam qo'shinlari Nurotaga yaqinlashdi. Qal'aga hujum kilish uchun Tohir Baqodir ismli yo musulmon, yo turk rahbarligida Nurota atrofidagi o'rmonlarda uzun narvonlar yasaldi. Shahar atrofida mahalliy xalqning bog'lari bo'lib, Nurota aholisi bahor kirib kelishi bilanoq o'z chorbog'lariga ko'chib borishgan. Mo'g'ullarning kelishi shaharliklar uchun kutilmagan holat bo'lgan. Nurotaliklar mo'g'ullarni savdo karvoni deb o'ylagan, xatolarini anglaganlarida, mo'g'ullar shaharga yaqinlashgan edi. Mo'g'ullar narvonlarni otda va qo'lda ko'tarib, shahar devoriga qo'ydilar. Tohir Bahodir nurotaliklarga: haqiqatan ham kuchli mo'g'ul xoni keladir. Agarda shahar aholisi qarshilik qilmasa, u bir necha kun qoladi, - dedi. Ko'p o'tmay Nurota shahri darvozalari ochildi. Mo'g'ullar shaharga kirdilar. Buyruqqa muvofiq

²⁹ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Маварауннахр тарихи. Нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад.-Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. 22-бет

shahar aholisi shahardan chiqarildi. Mo'g'ullar uylarni taladilar. Ammo odamlarni o'ldirmadilar. Nurota xalqi Chingizxonga 1500 dinor soliq to'ladi. Chingizxon Nurotadan so'ng Buxoroga ketdi. Chingizxon Buxoroda ko'z ko'rib, quloq eshitmagan vahshiyliklarni qildi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotdan ko'rinib turibdiki Nurota shahri qadim zamonlardan savdo va harbiy ahamiyatga ega bo'lgan shahar hisoblangan. Nurota shahri turli tomonlardan to'xtovsiz savdo karvonlari kelib turgan va mazkur shaharda savdo ayriboshlashlarni amalga oshirgan.

Nurotaga kelgan qadimiy yo'l Buxoro-Sartoq-Vobkent-Sharq-Tavasis-Kuk-Rabati Malik-Karmana-Xazara qishlog'i, Dobusiya shahri oldidagi hozirgi Qarnab oldidan shimolga Nurota tomonga burilgan.³⁰ Nurotada qadimdan nurotaliklar o'zlari tomonidan yaratilgan hunarmandchilikning turli na'munalari, zeb-ziynat buyumlari, qurq va ho'l mevalar bilan savdo qilishgan. Bundan tashqari Nurota qorako'l terilari savdoda alohida ahamiyat kasb etgan.

Nurota shahri va nurotaliklarning iqtisodiy hayotida qadim zamonlardan marmar toshlar va ulardan yasalgan sangtaroshlik san'ati namunalari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Qadim zamonlarda boshlab G'ozg'on mavzeyida mavjud marmar konlaridan marmar toshlar qazib olib unga qayta ishlov berib kelgan. Kon atrofida va Nurota shahrida marmar toshga ishlov beruvchi ustalar istiqomat qilishgan keyinchalik yirik ustaxonalar vujudga kelgan. Mazkur hududa yashagan usta hunarmand sangtaroshlar tomonidan yasalgan tosh qozonlar, tosh tovoqlar, tosh langanlar kishilarni hayratda qoldirib kelgan. Hunarmandlar tomonidan tayyorlangan bunday uy ro'zg'or buyumlari kundalik turmushda ishlatilishi bilan bir qatorda ular savdo-sotiqda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan, asosiy o'rinlardan birini egallagan. Nurota marmarlari qadim zamonlardan turli o'lkalarga olib ketilgan. Nurota marmar toshlaridan memorchilikda keng qo'llanilgan. Ma'na shunday na'munalardan biri Amir Temur davrida Bog'ishamol qasrining qurilishida ishlatilgan. Bu xususida Sharafiddin Ali

³⁰ Хошимов М. Буюк Ипак йўлининг Самарқанд вилоятидаги туристик йўл кўрсатгичи. Самарқанд.: Зарафшон, 2012. 50-бет

Yazdiyning “Zafarnoma” asarida quydagi satrlar keltirib o’tilgan. “... Qasrning sahniga mamar toshlardan va ko’hi Nurdan keltirilgan toshlardan shunday chiroyli qilib yotqizildiki, aql hayron qoladi, ularning latofatidan boshdan xush uchib ketadi”.³¹

G’ozg’on marmari Sharqda Afg’oniston, Eron, Hindiston, Iroq, Misrgacha, G’arbda Moskva, Toshkent, Sank-Peterburg, Kiyev va boshqa shaharlargacha yetib borgan. Ko’pgina poytaxt shaharlarning metrolari – Moskva, Toshkent, Sank-Peterburg, Kiyev – G’ozg’on marmaridan bezatilgan. Nurota tosh ustalarining dong’i va nomi katta doyradigi shahar mamlakatlarda ma’lum. Ko’pgina allomalarning dahmalari ham G’ozg’on marmari bilan bezatilgan.

Bugungi kunda ham Nurota tumani iqtisodiy salohiyatida Nurota marmar konlarining va Nurota marmar ishlab chiqarish va qayta ishlov berish korxonalarining ahamiyati katta. Marmar ishlab chiqarish va qayta ishlashda Respublikamizda salmoqli o’rinlardan birini “G’ozg’onmarmar” aksiyadorlik jamiyati korxonasi egallaydi. Undan tashqari “Nurota” marmar ishlab chiqarish korxonasi, “Nurotaavtoyo’lmarmar” korxonasi tomonidan xalqimiz istemoli uchun va jahon bozori uchun yetkazib berilayotgan sifatli marmar maxsulotlari o’zining xaridorgirligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda respublikamizda marmar ishlab chiqarishda yetakchilik qilayotgan korxonalardan biri bu “Nurota” marmar ishlab chiqarish O’zbekiston-Italiya qo’shma korxonasi hisoblanadi. Marmar qazib olish va ishlab chiqarish tumanda 1972 – yildan boshlangan. Bo’lib bugungi kunda yiliga 3,5 mln. m³ marmar qazib chiqariladi. Nurota marmari 2000 yil Parijda bo’lib o’tgan xalqaro ko’rgazmada katta oltin medal bilan tag’dirlandi.

Tumanning iqtisodiy salohiyatida bundan tashqari “Nurbuloq” mineral suv qadoqlash korxonasi, “Chashma”, “Istiqlol” savdo korxonalari tikuvchilik fabrikalari ham xalqimiz istemoli maxsulotlarini ishlab chiqarib kelmoqda. Tumandagi 700ga yaqin korxonadan, 551 tasi kichik firma, 75 yaqini kichik va o’rta korxona hisoblanadi. Bundan tashqari 125 yaqin xizmat ko’rsatish

³¹ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент.:1997, 89 - бет

shaxobchasi, 200 dan ziyod savdo do'konlari ishlab turibdi. Tuman hududining chorvachilik va dehqonchilik uchun qulay mintaqada joylashganligi uning iqtisodiy hayot tarzida o'z ifodasini topgan. Shunday ekan qadimdan rivojlangan qorako'lchilik va chorvachilik maxsulotlaridan ishlab chirilgan maxsulot dunyo bozoriga chiqarilgan. Bugungi kunda Nurota shahrida "Amon ota" fermer xo'jaligiga qarashli teri va poyabzal ishlab chiqarish kichik korxanasini ma'na shunday korxonalar sirasiga kiradi. Mazkur korxona bugungi kunda ishlab chiqargan maxsulotlari bilan nafaqat tuman balki viloyatimiz, respublikamizning boshqa tumanlaridagi bozorlarda ham o'z o'rniga ega.

Nurota tumani iqtisodiy salohiyatida mahalliy hunarmandlar tomonidan yaratilayotgan kasanachilik maxsulotlarining o'ziga xos o'rnini bor jumladan. Bugungi kunda tumanda 30 dan ziyod kasanachilik maxsulotlarini ishlab chiqariladi.

II.3 Madaniy hayoti

Nurota vohasi aholisi qadimdan o'troq aholi hisoblanib ularning o'ziga xos madaniy hayot tarzi mavjud. Nurota vohasida yashovchi turli millat va elat vakillarining o'zlariga xos turmush tarzi an'analari bog'liq turli udum va an'analari asrlar davomida shakllanib kelgan. Vohaning tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib o'ziga xos memorchilik an'analari, diniy marosimlar va urf odatlarning shakllanib borishi bilan bog'liq milliy hunarmandchilik namunalari keng miqyosda rivojlanib borishi bilan san'at namunalari shakllanib borgan. Asrlar davomida o'zida xalqning dardi xasratlarini, orzu umidlari namoyon etgan xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish dostonlar va mazkur janrning ijro an'anaviy ijrochilari yetishib chiqqan.

Nurota vohasining me'morchiligida o'ziga xos uslub shakllanib borgan. Jumladan diniy ibodatxonalar sanalgan masjidning qurilishida o'ziga xoslikni kuzatish mumkin. Nurotadagi me'moriy yodgorliklar asosan shayboniylar davrining mahsulidir va keyingi davrlarda ya'ni mang'itlar sulolasi hukmronlik qilgan vaqtda ta'mirlangan. Ma'na shundan me'morchilik namunalardan sanalgan qadimiy me'moriy obidalaridan biri bu Chilustun jome' masjidi sanaladi.

Nurotaning “Chashma” majmuasida joylashgan Chilustun jome’ masjidi nurotaliklarning faxri hisoblanadi, Masjid juda qadimiy bo’lib, uni oxirgi marta Tursunxo’ja Eshonxo’jayev (Eshoni Sudur) qurdirgan.

Chilustun jome’ masjidining tashqi ko’rinishi kvadrat shaklda bo’lib uning mehrobi g’arbiy devorga tutashtirilgan. Masjidniig pegatoki an’anaviy, sharqona «p» xarfi shaklida bo’lib, pegatok ortida bejirmgina minora masjidga salobat berib turadi. G’o’lasimon shaklda kurilgan minora 5,6 metrdan iborat. Muazzin azon aytadigan azonxonaga minora ichidagi aylanma zinalardan chiqiladi. Masjidning kursisi-poydevori ikki qator marmar plitalardan terilgan. Masjid devorlari ichkaridan Guliganch amalida bir tekis suvalgan. Masjidga to’rtga eshikdan kirilgan. Bu eshiklar sharqona uslubdagi har xil geometrik shakllar bilan bezatilgan. Kirish darvozasi marmar ustunlarga mahkam o’rnatilgan. Yog’ochdan yasalgan sardari mayda bezaklar bilan to’ldirilgan.

Chilustun masjidi Eshoni Sudur davrida uchinchi marta qurilganda uning bosh me’mori buxorolik Mullo Abdushukur bo’lgan. Masjid birinchi marta IX asrda, ikkinchi marta XVI asrda, uchinchi marta esa XX asr boshida qurilgan. Masjidning marmar bezaklari g’ozg’onlik mashhur sangtaroshlar Abduraxim va Abdurasul Turdiyevlar ijodiga mansub. Ayniqsa A.Turdiyev tomonidan ishlangan mehrob oliy san’at asari darajasiga ko’tarilgan. Masjid darvozalari va bolorlarida amalga oshirilgan yog’och o’ymakorliklari usto Shams amalidir. Masjid qurilishida mahalliy ustolardan usto Rahmonqul, usto Xo’ja, usto Rustam, usto Qalandar va boshqalar qatnashgan.

Chashma majmuasida yana bir me’moriy yodgorlik Panjvaqta - Katta Gumbaz masjididir. Masjid XVI asrda Abdullaxon davrida qurilgan. Masjid yonidagi g’o’lasimon baland minorali azonxona saqlanib qolmagan. Masjid ikki tomonlama ayvonli bo’lib, ayvondagi mehrobning guldor koshinlari va hoshiyador naqshlari bilinib turibdi. Keksalarning aytishlaricha, masjid asli nimrang, oq, moviy rang va qora fonga ishlangan havorang va oq mozaikalar bilan bezatilgan. Bulardan faqat gumbaz ichidagi geometrik hoshiyalar saqlanib turibdi.

Qiblaga qaragan masjid mexrobining ikkala tomonidagi chillaxona 1994 yilda tiklangan. Masjid o'zining chillaxonasi borligi bilan boshqa masjidlardan ajralib turadi.

O'rta Osiyoga arablarning kirib kelishi bilan Islom dini va islom madaniyatini olib kirishgan. Nurota vohasida islom dinining keng yoyilishi bilan Nurotada masjidlar qurib borilgan. Qadimda Nurota Islom dini tarqalishi hudud aholisi islom dini etiqod qilishi hamda Nurota shahrini islom dini markazlaridan biri deb bilishgan. Jumladan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida, "Nur katta joy. Unda jome' bor; u ko'pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko'p mubolag'a qiladilar; Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan [kishining] fazilatiga ega bo'ladi; u ziyoratdan kaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havoza band kilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar. Tobeinlardan ko'p kishilar u yerga dafn etilganlar, Xudo ularning hammalaridan to qiyomatgacha rozi bo'lsin³²" kabi satrlar keltirilgan. Narshaxiy IX-X asrlarda yashab o'tganligini nazarda tutadigan bo'lsak va uning bu hudud haqida o'sha davrda ma'lumotlar yozib qoldirilganligini hisobga olsak, u holda Nurota qadimdan islom dini tarqalgan va islom madaniyatining o'choqlaridan bo'lganligiga shak-shubha qolmaydi. O'sha davrda ham bu maskan ziyoratchilar tashrif buyuradigan qadamjo bo'lgan.

XX asrning boshlarida Nurota shaharda 32 ta masjid bor bo'lgan. Nurotaning 4 guzarining har birida 7-8 tadan masjid bo'lgan. Ko'pincha Nurotadagi masjidlar o'zlaridan qadimiyroq yodgorliklar ustiga bunyod etilgan. Eskirgan, buzilib ketgan masjid o'rniga yangisi qurilgach, masjidning eski nomi esa saqlanib qolgan. XX asr boshlarida Nurotada quyidagi masjidlar faoliyat ko'rsatgan:

Arabguzarda Sayyidato masjidi, Chuqurak masjidi, Masjidi safed, Shakarak masjidi, Bargso'z masjidi, Hovuzak masjidi;

³² Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А. Расулов таржимаси. -Т.: Фан, 1966. 20-бет

O'rtaguzarda

Domalla masjidi, Kalta ko'cha masjidi, Turko masjidi, Sodiq masjidi, Qulmahmad masjidi, Mazori chilla masjidi, Buduk masjidi;

Mirishkorda

Duoba masjidi, Dostoy masjidi, Luchchak masjidi, Osiyobaland masjidi, Mirishkor masjidi;

Rabotto'lgonda

Qo'rg'on masjidi, Yetimcha masjidi, Dasht masjidi, Xo'ja masjidi, Avez Xo'ja masjidi, Sariosiyo masjidi, Rabotturg'on masjidi, Lo'la masjidi;

Bu davrda Nurotada masjidlarning ko'pligi qadimda xalqimizning islomiy madaniyati yuqori, e'tiqodi mustahkam bo'lganligining nishonasidir. Nurota masjidlari axloq-odob, nokiz aql, imon va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishda xalq orasida muhim rol o'ynaydi.

Nurota vohasi madaniy hayotida xalq og'zaki ijodining o'rni katta hisoblanadi. Nurota vohasi qadimdan xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lgan dostonchilik maktabi shakllangan hududlardan sanaladi. Nurota tumaning shimoldan Qizilqum bo'ylab Qiziltepa, Konimex tumanlarigacha bo'lgan hududlarida yetishib chiqqan dostonchilar gurihi Qurbon baxshi, Ashur baxshi, Isirgap baxshi, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod panoh o'g'li, Qurbon Navro'zov, Tursun Sherov, Ma'mur Ermatov, Fayzi Najmiddinov kabi o'nlab ijodkorlar ma'na shu maktabga mansub bo'lib nafaqat Nurota balki qo'shni tumanlar aholisiga xizmat qilib kelgan. Bu maktabning so'ngi talandli vakillari Saidmurod panoh o'g'li va Bekmurod Jo'robay o'g'lidan "Alpomish", "Odilxon", "Kuntug'mish", "Go'ro'g'lining Qrimga borishi", "Avazxon", "Malikai ayyor" kabi dostonlar yozib olingan va nashr etilgan. Bu baxshilar repurtuarida boshqa hududlarda tarqalmagan "Sarmonxon", "Ahmadxon", "Cho'pon qizi", "Maston kampir" kabi dostonlar ham bo'lgan. Ammo bu dostonlar o'z vaqtida yozib olinmagan. Bu baxshilar Go'ro'g'li turkumi dostonlarini 64 doston qilib

kuylaganlar.³³ Shuning Nurota tuman hududidagi qoraqolpoq va qozoq xalqlari orasida XX asrning boshlarida izchil dostonchilik an'analari davom etgan. Bu an'analarning Nurota dostonchilik maktabi vakillariga ta'siri sezilarli bo'lgan. Bu o'z navbatida ijro usullarida yaqqol ko'zga tashlangan.

Xalq dostonlari alohida maxorat bilan kuylangan va bu marakazlar shu hudud nomi bilan maktab sifatida atalgan. Hozirgi kunda o'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, Janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poyetik dostonchilik maktablari – baxshichilik san'atining ajoyib markazlari aniqlangan.³⁴

Ma'na shunday yirik maktablardan biri bo'lgan Qo'rg'on baxshichilik maktabi asoschisi Ergash Jumanbulbul o'g'li sanaladi. Ergash Jumanbulbul o'g'li 1868 yil Nurota tumaniga qarashli Qo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Qo'rg'on baxshichilik maktabining asoschilari Ergash shoirning avlod ajdodlari sanaladi. Ergash Jumanbulbul o'g'li Nurota vohasidan yetishib chiqqan yirik baxshilardan hisoblanadi.

Nurota vohasi moddiy madaniyati o'ziga xos rivojlanish bosqichini bosib o'tgan moddiy madaniyatlar sirasiga kiradi. Mazkur voha aholisi turmush tarzi urf odatlari, diniy etidoqodi hamda memorchiligida, kundalik turmushida mazkur xolatning o'zining yorqin ifodasini topgan.

³³ Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репуртуари, Тошкент.: 1979. 120-бет

³⁴ Иномов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзики поетик ижоди. Т.: Ўқитувчи, 1990.236-бет

III BOB

NUROTA VOHASINING ETNOGRAFIYASI.

III.1 Nurotadagi urf-odat va marosimlar

Qadim o'tmishda Nurota O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlaridan biri bo'lgan Sug'diyona manzilgohlaridan hisoblanadi, Nurota tizma tog'lari g'oyat boy va serunum bo'lib, vohani Qizilqumdan esadigan issiq shamoldan to'sib turgan. O'tmishda Sug'diyonaga ikki tomondan kirilgan. Biri Jizzax yaqinidagi Temur darvoza bo'lsa (ba'zi manbalarda Ilono'tti), ikkinchisi Nur bo'lgan.

Zardushtiylik dinida olovga har qanday gunoxlardan tozalovchi vosita deb qaralgan. Zardushtiylar xayit va boshqa marosimlarni o'tkazish uchun doimo o't yonib turadigan otashkada, ya'ni otashxonalarda to'planishgan. Ushbu bayramlarda ular un, yog', shakardan tayyorlangan ovqat - holvaytar yeganlar. Qadimgi Nurotaning aholisi uchun asosiy yemak bo'lgan xolvaytar hozir ham eng taniqli taom sanaladi, hattoki avloddan – avlodga o'tib kelayotgan “xolvachixo” urug'i bu nozik san'atni hozirgacha davom ettirib kelishadi. Olov yoqib alas qilish, tutatqi tutatib isiriq bilan odamga, mol – xolga, go'dakka yem qilish, afsungarlik usullaridan foydalanish, ruxlarni chakirib, ma'lum maqsad yo'lida xizmat qildirish, yem qilish odatlarini hali-hamon nurotaliklar orasida uchratish mumkin. Nurotaliklar chaqaloqni beshikka belaganda albatta isiriq tutatib zararli mikroblarni haydaydilar, yangi qurilgan imoratlarga uning shoxchasini ilib qo'yadilar. Otash, issiqlik ta'siri bilan zararli kushandalarni yo'qotish marosimlari mavjud. «Avesto»da otash poklovchi va ofatni ketkazuvchi vosita hisoblangan. U bilan hatto kiyim - kechaklarni ham zararsizlantirish mumkin. Nurota aholisi turli marosimlarda sham yoqib qo'yish, to'ylarda gulxan (kishda mankaldonda) yokib uning atrofida bazm qilish, kelinni gulxan atrofida uch marta aylantirish kabi an'analarni hozirgi kungacha saqlab keladilar.

Nurota aholisi qo'y, qoramol so'yib qoni oqizilgan joyni tozalab, o'sha joyga olov yoqib poklaydilar. Shuningdek, nurotaliklar yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutishga alohida e'tibor beradilar.

Nurotada yaxshi saqlanib qolgan marosimlardan yana biri mushkulkushod o'qitishdir. Bu marosimning asl mohiyati mehnatni, halollikni targ'ib qilishdir. Ushbu marosimda dasturxon yozilib, qora chiroq yoqib qo'yiladi. Dasturxonga non, mayiz qo'yiladi. Otinbibi tomonidan bir chol va uning yetti farzandi, cholning tog'dan o'tin terib yetti farzandini ulg'aytirib, halol mehnati evaziga ularni uyli - joyli qilganligi haqidagi ibratli hikoyat o'qiladi.

O'rta Osiyo xalqlarining milliy bayrami hisoblangan Navro'zning tarixi ham islomga qadar mavjud bo'lgan zardushtiylarning an'anaviy yangi yil bayramidir. Navro'z bayramining ko'hnaligi haqida Beruniy, Umar Xayyom, Mahmud Qoshg'ariy kabi allomalar qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirishgan.

Quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha bilan kunduzning barobar kelishi yil boshi hisoblangan. Bu eski quyosh yili hisobida farvardin oyining avvaliga, 21 mart, kecha bilan kunduzning tenglashgan vaqti va kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanish, bahorning boshlanish davriga to'g'ri kelgan.

Navro'z bayramida har xil taomlar pishirilgan, uy - joylar tozalangan, yaqin kishilar bilan diydorlashilgan, ziyoratga borilgan.

Navro'zning eng an'anaviy taomi sumalak bo'lib, rivoyat qilishlaricha sumalak pishirilayotganda arshi a'lodan «siymalak», ya'ni o'ttiz malak tushar emish. Navro'z Nurotaning qal'a maydoni-to'pxonada azaldan bayram qilingan, Nurota begi bayramni qal'adan turib tomosha qilgan. Chunki shu yerdan dalalarga qo'sh chiqarilgan, bug'doy ekishga kirishilgan. Nurotaliklarning islomga qadar bo'lgan bayramlari orasida bahor faslida, Navro'zga atab o'tkazilgan tabiatning go'zal ne'mati - gulga bag'ishlangan "Sayli guli surx" bayrami alohida o'rin tutgan. Bu bayramda hammayoq anvoyi gullar bilan bezatilgan. Shahardagi hunarmandlar chashma atrofi va bozor - joy yaqinidagi rastalarga o'z mollarini chiqargan. Qal'a ortidagi to'yxonada Navro'zning "Guli surx" sayli bo'lgan. Qiz - juvonlar to'pxonadan nariroqdagi "Ko'hi duxtaron" degan qirda bayram kilishgan.

Qadimgi davrlarda xalqimizning ma'naviy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan diniy e'tiqodlar, bayram va ma'rosimlar hanuzgacha yaxshi

o'rganilmagan, Diniy tasavvur va e'tiqodlar O'rta Osiyo hududlarida yashagan qadimgi ajdodlarimizga xos bo'lgan. Ibtidoiy tuzum kishilari tabiatni jonli tarzda tasavvur qilishgan. Ular o'zlarida sodir bo'ladigan ruhiy kechinmalarni tabiatga xos holat deb bilishgan.

Hozir ham nurotaliklar jinlar va yomon arvohlar keltiruvchi zararlarni daf etish uchun is chiqarishadi. Is chiqarish odatda arafa kunlari, to'y tantanalari oldidan, bahorgi, kuzgi yer haydashdan avval amalga oshiriladi va buzruk (bo'g'irsoq), qatlama pishirib tarqatiladi. Ular qizdirilgan yog' hidi uydin ins - jinlar keltiradigan xavf-xatar sababchisini quvib, avlodlar homiysi bo'lmish ota - bobolari arvohini chaqiradi, deb bilishadi.

Bu to'g'rida Beruniy ham o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgroliklar" kitobida aytib o'tadi. Germaniyalik faylasuf Fridrix Nitsshe XIX asr oxirida Eronga safar qiladi. U Yazd shahrida istiqomat qilayotgan zardushtiylar bilan uchrashadi va ularning urf-odatlari bilan tanishadi. Faylasuf o'z yurtiga qaytarkan, zardushtiylarning diniy belgisi uchlari qayrilgan qo'shuv alomatiga o'xshash svastikani olib keladi va hamyurtlariga bu oliy irq belgisi ekanligini tushuntiradi. O'rta Osiyo va Eronga islom dini kirib kelgach, islomni qabul qilishni istamagan zardushtiylarning bir qismi Hindistonga ko'chib ketadi...

Nurotada chashma sohilida qurilgan "Panjvaqta" masjidi mehrobi atrofida zardushtiylarning diniy belgisi bo'lgan ushbu svastikadan qirq donasi bir-biriga tutashtirilib chizib qo'yilgan.³⁵ Shu o'rinda bir mulohaza tug'iladi. Ehtimol "Panjvaqta" masjidi o'rnida avval zardushtiylarning otashkadasi bo'lib, keyinchalik islom davrida u masjidga aylantirilgandir. Masjid mehrobi peshtoqidagi qirqta svastikaga mazmunan bog'liq "chillaxona" (chixil - qirq) ham borligi otashkadalar huzurida mahsus shifoxonlar bo'lganligidan nishona emasmikin. Chunki "Avesto"ning barcha qismlarida, xususan, Vendidadta kasalliklar tasnifi, bemorlarni davolash usullari, dorivor o'simliklar, tabobat amaliyoti, tabiblar, ularning burch va vazifalari haqidagi hamon o'z qimmatini

³⁵ Шавкат Исмоилзода. Ўша асар. 56- бет

yo'qotmagan maslahatlar berilgan. Umuman, ko'hna Sharq nafaqat tarixiy, madaniy, balki, insoniyat tibbiy qarashlarining ham qadimiy o'chog'i ekanligini "Avesto"dagi dalillar isbotlaydi.

Xalqimiz orasida keng tarqalgan qadimiy odatlardan yana biri turli xil duolar bo'yniga osib yuriladigan yoki kiyimlarga tikib qadaladigan uch burchak, uzunchoq tumor va radnoma saqlab yurish odatidir. Hozir bu odat islomiy odatlar bilan uyg'unlashib ketgan. Undan tashqari quloqqa, kiyimga, do'ppiga ko'zmunchoq taqish ham islomga qadar yashagan ajdodlarimiz odatlaridan biridir. Nurota xalqi uy hayvonlariga, xususan it saqlashga e'tibor beradilar. Diyarli har bir xonadonda bir yoki ikkitadan it saqlanadi.

Qadimgi Nurota aholisi turli usullar orqali ma'lum narsalar yordamida tabiatga ta'sir qilish, shu yo'l bilan ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkinligiga ishonishgan. Masalan, Nurotada qadimdan bahorgi (bahorikori), kuzgi (tiramoyi) bug'doy ekilgan. Ba'zi yillarda yog'in-sochin kam bo'lib, yil qurg'oqchil kelsa hosil bo'lmagan. Shu yillarda nurotaliklar yomg'irni chaqirish uchun har bir xonadondan oz-ozdan un yig'ib chiqqanlar va yig'ilishib qochi pishirganlar, uni tanovul kilgach, kosa-tovoqlarning yuvindisini tarnovdan oqizganlar va shundan so'ng yomg'ir yog'ishiga ishonganlar. Nurotada dehqonchilikka oid xalq qo'shiqlari va marosimlari saqlanib qolgan.

Insoniyat sivilizatsiyasi ilk o'choqlarining vujudga kelishi va rivojlanishida dehqonchilik madaniyati muhim omil bo'lgan. Dehqonchilik tarixini o'rganish tarixni bosqichlarida mahalliy aholining ijtimoiy – iqtisodiy ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishini, xo'jalik yuritish madaniyatining o'ziga xos hususiyatlari, sug'orma dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini hamda u bilan bo'lgan jarayonlarni ilmiy asosli tahlil qilish g'oyat muhimdir. Qadimgi dehqonchilik madaniyati, an'anaviy dehqonchilik xo'jaligi va u bilan bog'liq marosimlar hamda agrar soha tarixchi, arxeolog olimlar doimo dolzarb qiziqarli muammolardan biri bo'lib kelgan va bu borada respublikamizning qadimiy dehqonchilik va chorvachilik vohalaridan biri bo'lgan Nurota vohasi o'ziga xos

dehqonchilik madaniyati bilan benazir hisoblanadi. Dehqonchilik ishlarini yuritish bo'yicha azaliy tajribaga ega bo'lgan.

Nurota o'rta vohasi qishloqlarida o'troq holda yashab kelayotgan, o'zbek, tojik mahaliy aholisining dehqonchilik bilan bog'liq qarashlari tarixiy tajribalari haqida va dehqonchilik bilan marosimlari xususida mulohaza yuritishni istadik. O'rta Osiyoning boshqa xalqlari qatori Nurota vohasi aholisi ham bahorgi dehqonchilik yumushlarini mahalliy taqvim(mahalliy xalq orasida bugungi kunga qadar saqlanib qolgan "Qamariy" (oy taqvimi)ga ko'ra yangi yil quyoshning baliq (hut) burjidan quy (hamal) yulduzlar turkumiga o'tgan vaqtdan boshlaganlar. Hozirgi amaldagi kalendari bo'yicha bu 22 martdan boshlanib 21 aprelgacha davom etgan. Dehqonlar taqvimidagi birinchi oy – hamalda kunlar ancha ilib, o't – o'lanlar jonlanib qoladi va bu oy dehqonchilik ishlariga to'la davr hisoblanadi. Shuning uchun "Hamal kirdi, amal kirdi" deyiladi. Ushbu oyni o'ziga xos iqlimi, ob-havosi va boshqa hislatlari haqida uzoq kuzatishlar, tajribalar asosida paydo bo'lgan xalqona qarashlar, maqollar va o'gitlardan dehqon, bog'bon, chorvador keng foydalanganlar. Dehqonlar hut (19 fevral -21 mart) oyidanoq dala ishlarini qizitib yuboradilar. Dalaga birinchi qo'sh chiqariladi yil boshi qilib yaxshi bo'lishi uchun rasm – rusumlar qiladi. Ular yetilgan yerlarga qo'sh chiqarib ishlov berganlar, o'g'it chiqarib – kultepalarni, ariqlarni tozalab suv chiqarganlar natijada yerning hosildorligi yaxshi bo'lgan. Nurota vohasining barcha qishloqlarida bahorgi ishlar oldidan masjid yoki mozorlar yaqinida "xudoyi" qilinadi. Bu marosim ko'pincha mart oyi boshlarida kekxa dehqonlar, chorvadorlar, oqsoqollar boshchiligida o'tkazilgan. Oldinlari har bir xonadon imkoniyatiga ko'ra sutli yoki oilalardan bug'doy oziq – ovqat mahsulotlari yig'ilgan bo'lsa, keyinchalik pul ham qo'shib yig'ilgan. To'plangan pulga bozordan buzoq yoki qo'y sotib olinib, qurbonlik uchun so'yilgan va go'shtidan halim pishirganlar(bunday holat asosan Nurota va unga yaqin hududlarda kuzatilgan). Taom tayyorlagunga qadar qishloq erkaklari uch-to'rt guruhga bo'linib, qishloq ariqlarini tozalaganlar. Tushlik vaqtida hamma to'plangach "xudoyi" uchun tayyorlangan taom tanavul qilingan.

Marosim ayrim sabablar uylariga nasiba tarzida taomdan berib yuborilgan. Tushlikdan so'ng qishloq ruxoniysi qur'on oyatlaridan tilovat qilgan va oqsoqollar ushbu xudoyi savobini "o'tganlarning" ruhlariga bahshida etishib kelayotgan yil hosiyatli, barakali bo'lishini hamda dehqonchilikda mo'l hosil olish va amalga oshirish uchun xudodan madad so'raganlar. Vohaning asosiy yirik aholi yashash punktlari hisoblangan Nurota, Jarma, Chuya, Popanoy, Soykechar, To'ra, Oqmachit, Jo'sh qishloqlarida dehqonlar asosan yerga ishlov berish ishlarini ertaroq bajarishga harakat qilganlar. Chunki yer bahorda shudgor qilinsa kesaklari ezilmasdan, yil bo'yi dehqonlarga qiyinchilik tug'diradi degan tasavvur bo'lgan. Shuning uchun ular amal qilgan "Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda" maqolida juda katta ma'no bor albatta. Kuzda yerni haydasang, qor – yomg'irlardagi yer dam oladi va yaxshilab oziqlanib muloyim bo'lib bahorga ekishga tayyor bo'lib turadi. Bu yerda yana bir narsani aytish joizki, bahorgi yerni haydov mavsumi mart oyi oxiridan boshlangan. Shu bilan dehqonlarni bahorgi haydov va yerga urug' qadash bilan bog'liq bo'lgan "Dalaga qo'sh chiqarish", "Shoxmoylar", "Ekin sayli", "Qo'sh oshi" kabi marosimlarni o'tkazganlar. Marosimlar ko'pincha omadli, hosiyatli hisoblangan. Navro'z kunlari yerni haydash arafasida qatlama, bo'g'irsoq, suzma kabi taomlar pishirilib, urf – odatlarni qilganlar. Yog' olib ho'kizlarni shohlarini moylaganlar buni keksalar xo'kizni shohlari baquvvat, ho'kizlarni o'zi esa charchamaydigan bo'lar ekan deyдилar. Nurotaning ayrim qishloqlarida esa qurg'oqchilik yillari dehqonlar turli xayri – xudoyilar o'tkazganlar va turli – tuman rasm – rusumlarni bajarganlar. Umuman olganda "Qo'sh chiqarish", "Shoh moylar", "Qo'sh oshi" nomlari bilan aytiluvchi marosimlar dehqonlarning yangi yildagi birinchi ish kuni bo'lib, iloji boricha xursandchilik bilan kutib olishga harakat qilingan. Bu azaldan zardushtiylarning yangi yil qanday kutib olinsa, yil bo'yi o'sha kayfiyat hamroh bo'ladi, degan qarashlarning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda Nurota vohasining yirik qishloqlaridan bo'lgan; Nurota, Jo'sh, Qushtamali, Toz, Chuya, Oqula, Soykechar qishloqlarining

mahalliy xalqlarining an'anaviy dehqonchilik marosimlari ularning o'ziga xos madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Dehqonchilik bilan bog'liq milliy urf – odatlarda nafaqat xo'jalik yuritish an'analari, turmush tarzi, etnik tarixi, urf – odatlari, diniy qarashlari, xalqimizning azaldan o'troq dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik madaniyatlari o'z aksini topadi. Ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan turli urf – odatlar va rasm – rusumlar avlodlar tomonidan qadrlanayotganligi quvonarli holdir.

Nurotaliklarning eng ulug' ma'rosimlaridan biri to'ylar sanaladi va bu to'ylar o'zgacha ruhda o'tadi. Nurotaliklarning to'y ma'rosimlar bilan bog'liq urf odatlari mavjud. Jumladan mamlakatimiz boshqa hududlari singari nurotaliklarda to'yga to'yona bilan borish urf-odat va an'ana tusiga kirib qolgan. O'zbek xalqi qadimdan to'yga to'yona bilan borgan. To'yona - to'yga, to'y egasiga sovg'a-salom bilan borish degani. Ba'zi viloyatlarimizda odatni to'yona emas, qo'shan (qo'shish) deb ham yuritiladi. To'y bo'layotgan xonadonga qarindosh-urug'lar, do'st birodarlar yakka-yakka, ba'zan guruh-guruh, jamoa bo'lib, ishxona, xizmatdoshlar vakillari bir bo'lib, turli sovg'a-salom qilishlari mumkin.

To'yona qilish qadim zamonlarda to'yga, ho'qiz, qo'y keltirish misolida bo'lgan. Uning miqdorii ham to'y egasining va to'yonachining moddiy imkoniyatlari, iqtisodiy-moddiy mavqeyi, darajasiga va albatta, zamonga qarab bo'lgan. Nikoh qadimdan poklik ramzi bo'lib, qizlar bokiraligi zilol suvga qiyoslanishi va qadrlanishi bejiz emas. Nikoh ming-ming yillar ilgari hayot taqozosi va turmush tajribalari asosida kelib chiqqan. Vaqt o'tishi bilan oila mustahkamligining shartlaridan biriga, Sharq turmush madaniyatining yuksak belgisiga aylangan.

An'anaviy urf-odat va irimlar nafaqat xursandchilik va shodiyonalik bo'libgina qolmay, balki muayyan maqsadga qaratilgan sehrigarlik tusidagi rasm-rusumlardan ham iborat. Masalan hozirgacha ko'pgina to'ylar o'tkaziladigan odatlardan qudalarga oq o'ratish, to'qqiz tortar, kelin-kuyovga, quda va qavmu qarindoshlarga falon sidra sarpo qilish, dasturxonga solinadigan non patirlarning

soni, isiriq tutatish, kelinning olov atrofida aylantirilishi, kuyov tizzasiga o'g'il bolani o'tkazish, kelin-kuyov ustiga pul-chaqa va shirinliklar sochish, ularni ko'zguga qaratish va tuxum yegizmoq kabilar garchi o'z mohiyatini yuqotsada, qadimdan muayyan sehrgarlik maqsadida o'tkazilib kelinayotgan irimlardir. Nurotaliklar xalqqa katta osh bergach, nikoh bazmi, qavmu qarindoshlar ishtirokida alohida o'tkaziladi.

To'y marosimi hamisha shod-xurramlik, yoshlik, go'zallik, kelajakka yaxshi umid va ezgu orzular ramzi sifatida o'tkaziladigan ajoyib oilaviy bayramdir. G'oyat go'zal bo'lgan bu marosim barcha xildagi xalq san'ati, ashula, raqs bilan o'tkaziladi. U aslida, asrlar osha sinovdan o'tgan, mohiyati chuqur o'ylangan, milliy asosda nishonlanadigan marosim hisoblanadi, har bir davrda takomillashib, muttasil boyib kelgan.

Nurotaliklarning to'ylarida kelinni tushirib olish marosimi ayniqsa qiziqarlidir. Qadimiy ajdodlarimiz o't-olovga sig'ingani bois, otda, tog'a yetaklovida kelgan kelinni kuyov bola otdan tushirib, darvoza oldida yoqib qo'yilgan katta gulxan atrofida uch bora aylantirib, so'ngra chimildiqqacha olib kirgan. Bu bilan ajdodlarimiz yangi oilani olov taftida har xil ins-jinslardan, yomon ko'zlardan tozalagan.

III.2 To'y bayram va boshqa xasham ma'rosimlari

Hanuzgacha o'rganilmay kelinayotgan o'zbek xalq bayramlari uzoq va boy tarixga ega. Agar tarixchi-madaniyatshunos olimlar "bayram inson bilan birga paydo bo'lgan va rivojlangan" degan fikrlariga tayansak, bayramlar kurtaklarini eng qadimiy poleolit davridan, ya'ni O'rta Osiyo odamzoti paydo bo'la boshlagan - 500 ming yil avvalgi vaqtdan izlasa bo'ladi. Bu yarim million yil doirasidagi inson hayoti, madaniyati, odatlari jiddiy tadqiqotlarni kutmoqda. Biz esa, hozirgacha keyingi 3 ming yillik davr ichidagi mahalliy xalqlarning bayram va boshqa ma'rosimlari haqida so'z yuritmoqchimiz. Buning uchun avvalo, qadimdan O'rta Osiyoda yashagan ajdodlarimiz – sak, massaget, baqtriylar, sug'dlar,

xorazmiylar bayramlari va so'ngra o'rta asrlar va inqilobgacha tarixiy rivojlanib kelgan o'zbek xalqi bayramlarining Nurota vohasi uchraydigan turlariga murojaat qilishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, tarixga qanchalik chuqur kirib boraversak, shunchalik tarixiy manbalarning kamayib ketayotganligini sezamiz. Shu sababli ibtidoiy davr bayramlarni asosan arxeologik qazilmalar va topilmalar bergan ma'lumotlarni qiyosiy-tarixiy tipologik tahlil qilish bilan o'rganishga, saqlanib qolgan tarixiy abadiy va boshqa manbalar asosida tadqiq qilish zarur.³⁶

Insoniyatning madaniylashuvi negizida jamiyatning ilk boshlang'ich asosi - oila va uning paydo bo'lishiga asos - to'y marosimi vujudga kelgan. Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda uni rivojlantiradigan samarali vosita hisoblanadi. Marosim xalq san'ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o'ziga jalb qiladigan ommaviy-tadbir hisoblanadi. Insoniyatga sihat – salomatlik tilash, uni turmushda to'kin – sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga kirib qolgan hatti – harakatlar majmuidan iborat holda tashkil topgan tadbir marosim deyiladi.³⁷

O'rta asrlardan tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichi boshlandi. Ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma'rifiy, manaviy – diniy hayotda, jumladan, bayramlarni o'tkazishda ham jiddiy o'zgarishlar vujudga keldi. Bu davrga kelib, xalqning tabiiy – hayotiy ehtiyoji asosida paydo bo'lgan qadimiy bayramlar jiddiy qarshilikka uchrab hayotda o'z mavqeyini saqlab qolish uchun kurashdi. Chunki ayni paytda Markaziy Osiyo xalqlari hayotida islom dini bilan birga, unga xos bayramlar kirib keldi. Shuningdek, davlatchilik rivoji natijasida mamlakat va uning rahbarlari hayoti bilan bog'liq marosim va bayramlar o'tkazish an'anasi kuchaydi.

Ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan yangi siyosiy – diniy muhit qadimiy mahalliy bayramlar taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Islomni targ'ib qiluvchi

³⁶ Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. Тошкент.: 1991, 6-7 бетлар

³⁷ Сафаров О. Ўзбекистон халқлари этнографияси ва фольклори. Тошкент.: «Ўқитувчи» НМИУ., 2007, 112-бет.

din arboblari majusiylilik, zardo'shtiylik, buddaviylik bilan bog'liq bayramlar, marosimlar, odatlarga qarshi kurash olib borishgan. Mahalliy aholining tabiat bilan bevosita bog'langan bayramlarga ehtiyoji kuchli bo'lganligi bois Navro'z, Sada, Mehrjon kabi bayramlar saqlanib qolgan.

Islom arboblari "Navro'z" bayramini taqiqlashga ko'plab urinishlar olib borishganlar. Bu bayram kishilarning ozodlikka intilishini kuchaytirishi, ularni birlashtirishi mumkin, deb havotir olishgan. Shuning uchun "Navro'z" istilochilar saroylarida, amaldorlar va din rahnamolari davralarida rasmiy bayram sifatida nishonlanmagan. Lekin bu tazyiqqa qaramay "Navro'z" xalq orasida bayram qilinavergan. Shu boisdan ayrim shohlar va amirlar keyingi asrlarda o'zini xalqparvar ko'rsatish maqsadida "Navro'z"ni bayram sifatida nishonlanishiga majbur bo'lgan.

Navro'z bilan bog'liq juda ko'p urf-odatlar va an'analar hamda o'yinlar mavjud. Turk xotinlarining ishi kechalari (ya'ni, sumalak va halim qozonlari atrofida) raqs tushish va bolalarning oq so'ngak o'ynashidan iborat bo'lgan.

Navro'zni Nurota vohasi xalqlari qadim-qadimdan e'zozlagan. Navro'zga katta tayyorgarlik ko'rilgan. Tozalikka, obodonlashtirishga beqiyos e'tibor bilan qaraganlar.

O'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayoti ravnaq topdi. Ayni shu davrda ularning bayram-marosimlarida rivojlanish yuz bergan. Ayniqsa, IX-XII asrlar va XIV-XV asrlarda bu o'lkada bayramlar juda katta tantanalar bilan nishonlangan.

Bu davrda o'lkada islom dini keng yoyilib, ushbu dinga xos Ro'za hayiti, Qurbon hayiti, Ramazon kabi bayramlar xalq hayotidan o'z o'rnini topdi. Xalqning qadimiy bayramlari (Navro'z, Sada, Mehrjon) o'rta asrlar boshida saqlangan bo'lsada, keyinchalik din arboblarning bu bayramlarning o'tkazilishiga qarshi kurashi natijasida ular o'z mavqeyini yuqota boshlagan. "Navro'z"ning esa tabiat o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liqligi tufayli uni taqiqlash, xalq hayotidan

siqib chiqarish samara bermadi. “Navro’z” o’rta asrlarda ham xalqning sevimli bayrami bo’lib qoldi.

XX asrda o’zbek bayramlari va to’y marosimlar murakkab bir davrni boshidan kechirdi. Bu tarixni uchga bo’lib o’rganish mumkin. Birinchi davr – milliy uyg’onish davri, ikkinchisi – sho’rolar davri, uchinchi – Mustaqillik davri. Bu davrlarning har biri o’ziga xos hususiyatlarga ega.

XX asr boshida yangi g’oyalar uchun kurash kuchaydi. XIX asr oxirida boshlangan g’oyaviy – siyosiy kurash XX asr boshida avjiga chiqdi. Bu jarayonda siyosiy oqimlar vujudga keldi. Milliy madaniyat, chunonchi, urf – odatlar va bayramlarni “qayta anglash”, ularni isloh qilish g’oyasi mahalliy aholining ilg’or fikrli ziyolilari tomonidan qullab – quvvatlandi. Din arboblari islom an’analari va qadriyatlarini boshqa madaniyat ta’siridan saqlash uchun Yevropa madaniyatiga qarshi kurashga intildilar. Ularning tarafdorlari sof islomiy odatlarni saqlab qolish, yangi an’analarni xalq hayotiga yaqinlashtirmaslikka harakat qildilar.

Mustaqillik davrida milliy an’analarni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilib, xalqimizning tarixiy merosi bo’lgan an’analarni qaytadan tiklandi. Jumladan Navro’z, Ro’za hayiti, Qurbon hayitlari kabi bayramlarimiz rasman tiklandi.

Xalq an’analari kishilar dunyoqarashi, ularning shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir ko’rsatuvchi muhim omildir. Shu boisdan xalq an’alarining tarkibiy qismi bo’lgan oilaviy marosimlar tizimi, shakli, mazmuni va ularning shaxs shakllanishidagi ahamiyatini ilmiy asosida o’rganish lozim. O’zbek oilalarida chaqaloq tug’ilgandan to voyaga yetib, o’zi yangi oila qurguncha bir qancha odat va ma’rosimlar o’tkaziladi:

Chaqaloq chilla – o’zbek xalqi odatlari orasida yangi inson chaqaloq dunyoga kelishi bilan bog’liq an’analarni tizimi alohida o’rin to’tadi. Bu tizim chaqaloq tug’ilganida qarindosh-urug’, yor-birodarlardan, “suyunchi olish”, “kindik kesish”, bolani cho’miltirish, ilk bor kiyim kiydirish, maxsus parhez

taomlar pishirish, chaqaloqqa ism qo'yish, kichik va katta chillani o'tkazish, bolani beshikka solish kabi maxsus tadbirlardan tarkib topgan.

O'tmishdagi odatlarga ko'ra, kelin-kuyov, farzand ko'rgan ayol va chaqaloq yomon ruh, alvasti, jin-ajina va boshqalardan saqlanish uchun chilla saqlashgan. Chillali kelinchak uchun farzandsiz ayollar bilan uchrashish xatarli hisoblangan. Go'yo tug'mas ayolning qismati kelinchakka o'tishi mumkin, deb tushuntirilgan. Befarzand ayol qadami tegsa kelinchak ham bola ko'rmaydi, deb irim qilingan. Bu udum "Chilla tushdi" deb atalgan.

Oilada bola tug'ilishidanoq chilla davriga katta e'tibor berilgan. Chaqaloq tug'ilganidan so'ng yo'ldoshi tushganidan boshlab, keyingi 6-8 xaftalik muddat chilla davri hisoblanadi. Tabiblar tug'ruqdan so'ng ayol organizmi to'la asl holatga qaytishi uchun yeng kamida 5-6 kun, tug'ish og'ir kechganda esa 70 kun kerak bo'lishi ta'kidlashadi.

Farzand ko'rgan ayol va uning chaqalog'i chilla davrida maxsus sharoitda saqlangani uchun turli ins-jins va kasaliklardan himoya qilingan. An'anaga ko'ra ona va chaqaloq 40 kungacha uydan chiqmasligi, bolali uyga begona odam qadam bosmasligi va chillali uyda chiroq uchmasligi kerak.

Chilla davrida kasofat, baxtsizlik sodir bo'lmasligi uchun ona va bola yolg'iz qoldirilmagan. Xonada doimo chiroq yoqib qo'yilgan, bu xona esa "chillaxona" deyilgan. Xalqimizda ba'zi tarbiyasi nochor kishilarga nisbatan "Chillasida chiroq ko'rmagan" iborasini aytilishi bejiz emas. Ona kechasi tashqariga ham ikki-uch ayol hamrohligida chiqqan. Ona – bola oldiga begona kishilar, farzandsiz ayollar qo'yilmagan. Yovuz kuchlarni va yomon ko'zlarni haydash uchun kuniga uch marta isiriq to'tatilgan. Tuqqan ayol xatto molxonaga ham chiqmagan. Uning qo'shnilarga ovqat chiqarishi va ulardan olib turishi ham taqiqlangan. Agar bunga amal qilinmasa, chaqaloqning boshiga chilla yarasi chiqishi mumkin deyilgan. Chilla yarasi chilla suvi bilan yuvilgan.

Chaqaloq tug'ilgach uchinchi kuni, maxsus ko'ylakcha (chilla ko'ylak) tikib kiygizilgan va bu kuylak chilla o'tmaguncha yechilmagan. Ba'zi qishloqlarda

chaqaloq tug'ilganidanoq unga "it ko'ylak" kiydirilgan. Bu bilan chaqaloqqa xavf solish mumkin bo'lgan balo-qazo itga yopishsin, deyilgan. Chunki it kasallikka oson chalinmaydigan chidamli, tez ko'payadigan hayvon hisoblanadi. Agar oilada bola nobud bo'laversa, onaning chaqalog'i qirq kungacha cho'miltirilmagan.

Farzand ko'rgan onaga chaqaloq tug'ilganining ikkinchi va uchinchi kunlarida qovurilgan tuxum, undan so'ng tovuq sho'rvasi ichirilgan. Chaqaloq yetti-to'qqiz kunlik bo'lganda yupqa pishirilgan. Bordi-yu qirq kungacha chaqaloqqa, yupqa pishirilmasa, bolaning xulqi biron yomon illat bo'ladi, deyilgan.

Katta chilla 40 kun o'tgach, bola cho'miltirilib, uning qo'liga taqilgan mo'nchoq ko'zmunchoq bilan almashtiriladi. Shundan so'ngina bolani ko'tarib hovliga chiqish, uni qo'ni-qo'shnilarga ko'rsatish mumkin. Katta chilla o'tgandan so'ng ayol mahalla yoqi qishloqdagi tanish-bilishlari, qarindosh-urug'inikiga borishi va nihoyat ayol o'z ota-onasinikiga borib, yotib qolishi joiz hisoblangan. Keksalarning aytishlaricha, 40 kunlik chilladan omon-yeson chiqqan chaqaloqqa tashqaridan ta'sir yetadigan ins-jinslarning kuchi yetmaydi.

Kelin-kuyovning ota-onasi, qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilari, doya momo, enagalar va chaqaloq tug'ilishida hozir bo'lgan ayollar yig'ilishib "Chilla to'yi" o'tkazilgan.

Zamonlar o'tgan sari chilla davri va u bilan bog'liq rasm-rusumlarning aksariyati unitilgan. Ularning ba'zilarigina qishloq aholisi o'rtasida saqlanib qolgan, xolos. O'zbekistonning har bir hududida chilla bilan bog'liq o'ziga xos qoida va an'analar bor. Sho'rolar davrida qadimgi udumlar qatorida chilla davri va uning rasm-rusumlari ham xurofot deb qoralandi. Bu rasm-rusumlarni yagona maqsad esa onani va go'dakni barcha yovuz kuch va begona ko'zlardan asrash, bolaning sog'lom va chiroyli, aqlan barkamol o'sishini ta'minlash, onaning sog'lom bo'lib, yana ko'plab farzandlar tug'ib avlodlar davomiyligini davom ettirishga erishish edi.

“Chaqaloq chilla” ozodalik va ehtiyotkorlik muddati sanaladi. Bu vaqtda ona o‘z sog‘ligini tiklashga va bola esa yorug‘ dunyoga moslashishga intilgan. Ana shu davrda ona va bolani kasalliklar, “yovuz ruhlardan” saqlash qat’iy qoida, irimlarga amal qilishni taqozo etadi. “Chaqaloq chilla”ning deyarli har bir kuni o‘z mazmuni va an’analariga ega bo‘lgan. Ayniqsa, chillaning birinchi, uchinchi, beshinchi, yettinchi, to‘qqizinchi, yigirmanchi va qirquinchi kunlari maxsus odatlarga rioya qilingan.

Qadimdan bolaga ism qo‘yish juda ma’suliyatli ish sanalgan. Ism bola tabiatiga mos kelmasa, undan yaxshi inson chiqmaydi yoki u kasallikka chalinaveradi, deyilgan. Chaqaloqqa ism qo‘yish vazifasi har kimga ham topshiraverilmagan. Buning uchun maxsus marosim uyushtirilib, unga eng nufuzli, dono qariyalar taklif etilgan. Mana shu marosimda yig‘ilganlar o‘zaro maslahatlashib, bolaga ism qo‘yishgan.

Ajdodlarimizning oilada farzandning dunyoga kelishi bilan unga ism qo‘yish maqsadida mulla chaqirtirib, chaqaloqning qulog‘iga azon aytirishgan. Azon bilan bola o‘zining ilk bor ismini eshitgan. Bu marosimning o‘tkazilishi bilan bolaning kelajakda mehribon va barakali bo‘ladi deyilgan. Bolaning ismi albatta bolaning qulog‘iga aytilgan³⁸.

Tug‘ilgan kun oila hayotidagi eng quvochli voqea farzand tug‘ilishi bilan bog‘liqdir. Darhaqiqat, farzand tug‘ilganda - oilada bayramona kayfiyat vujudga keladi. Oila a‘zolariga qutlov tabriklar yog‘iladi...

Farzandning tug‘ilgan kun sanasi rasmiylashtirilib, guvohnomada qayd qilingandan so‘ng, bu sana oilaning a‘zolari uchun muhim sana hisoblana boshlaydi. Bola o‘tib ulg‘aygan sari, uning tug‘ilgan kunlari o‘z oilasida, do‘stlar davrasida nishonlanadi.

Ilgari, ko‘pgina sharq xalqlari, jumladan, o‘zbeklarda ham “yil boshi” (“Navro‘z”) da kishining yoshiga bir yosh qo‘shildi, deb hisoblangan. Shu sababli

³⁸ Саттаров. М. Узбекские обычаи. Тошкент, «Маънавият», 2003 йил, 6-бет

Navro'z tabiatning yangilanish bayrami bo'lib qolmay, u barcha uchun o'ziga xos "yosh oshdi" tantanasi hisoblangan³⁹.

Beshik to'yi qadim zamonlardan har bir oilada o'tkazilib kelingani tufayli, bu marosim xalq madaniy hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Orziqib kutilgan jajji chaqaloqning dunyoga kelishi qudalar, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar uchun katta xursandchilik keltiradi. Suyunchi berish, ism qo'yish odat-marosimlari shodlik manbaiga aylanadi. Agar tug'ilgan chaqaloq birinchi farzand bo'lsa, bozordan beshik sotib olingan. Ikkinchi va uchinchi farzandlar bo'lsa, uni akasi yoki opasi yotgan beshikdan foydalanilgan. Beshik chaqaloqning birinchi uyi hisoblanadi⁴⁰.

Chaqaloq tug'ilgandan keyingi muhim tadbirlardan biri bolani beshikka solish marosimi va beshik to'yidir. Mazkur to'y ayrim joylarda esa u ko'pchilik ishtirokida o'tkaziladigan kichik bayramga aylanib ketadi. Farzand tug'ilganiga 7 yoki 9 kun to'lganida, avvaliga bolani beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Go'dakni chillasi chiqqadan keyin esa oila uchun qulay kunlarning birida alohida ziyofat berish va boshqa tantanalardan tashkil topgan beshik to'yini o'tkazish odat tusiga kirgan.

Beshik to'yini chaqaloqning ota-onasi va qudalar o'zaro kelishib, bir kunni belgilab, maxsus tayyorgarlik ko'rgan holda o'tkazishadi. Beshik to'yida oldin kelinning onasi o'z nabirasi uchun yangi chiroyli beshik, xilma-xil kiyim-kechak, shuningdek qizi va kuyovi, qudalari uchun sarpo tayyorlaydi. Qarindosh-urug'lar ham beshik to'yida chaqaloqqa atab sovg'a keltirishadi.

Sunnat to'yi u turli joylarda "xatna to'yi", "chupron to'yi", "chulburron", "qo'lni halollash", "o'g'il to'yi" kabi nomlar bilan yuritiladi. Bu to'y o'g'il bola hayotidagi eng muhim xodisa hisoblanadi. Sunnat islom paydo bo'lishidan ham ilgari mavjud bo'lgan. Sunnat qilish qadimiy zamonlarda o'g'il bolalarning bolalikdan o'spirinlikka o'tish davrida o'tkaziladigan - inisiyasiya (jismoniy va ruhiy sinov) marosimlarining bir qismi sifatida shakllangan va keyinchalik alohida

³⁹ У.Қорабоев. Ўзбек халқи байрамлари. Т., 2002, 123-бет

⁴⁰ Саттаров. М. Узбекские обычаи. Тошкент, «Маънавият», 2003 йил, 7-бет

tadbirga aylangan. Sunnat issiq iqlimli hududlarda yashovchi xalqlar o'rtasida gigiyena (ozodagarchilik)ga rioya qilish usuli sifatida taraqqiy etgan.

Folklorshunos K.Ochilov e'tiroficha esa, "O'rta Osiyo xalqlari islom dini qabul qilingan vaqtgacha sunnat va xatna qilish nimaligini bilishmaganlar, ularda bunday odat bo'lmagan". Arab manbalari bilan puxta tanishgan va ulardan foydalangan olimlar buni tasdiqlaydilar. Xususan arab tarixshunos olimi Tabariyning materiallariga asoslangan V.V.Bartold quyidagilarni ta'kidlaydi. Xuroson noibi 728 yilda Mavorounnahr aholisini musulmonchilikka kiritishga harakat qiladi. Shu bois o'zining yaqin kishilari, ya'ni ikki din peshvolariga musulmonchilikni qabul qilganlardan soliq olmaslikni odamlarga yetkazishni amr etadi. "Bu amr ijrosi tufayli xazinaga pul tushmaydi... Shunda Ashros faqat yangi musulmon bo'lganlar orasidan kimda-kim sunnat qildirsa shularni soliqdan ozod etishni buyuradi"⁴¹.

Qadimda Nurota vohasida sunnat to'ylarida, yirik musobaqa: Uloq, kurash, poyga o'tkazilgan. Xatna to'ylarida "Kim chaqqon", "Kim zo'r", "Mast bola", "Oq suyak" kabi bolalar o'yinlari uyushtirilgan.

Nurota chorvadorlari orasida keng tarqalgan "Toy mindi" odati hozir sunnat to'ylari bilan bog'liq odatlarni maxsus o'rganib, ularning o'kazilishi tartibini aniqlagan: U o'z tadqiqotlarida o'zbek sunnat to'ylarida: 1. Maslahat oshi. 2. Suqum suydi. 3. "Xatmi Qur'on" o'qitish (kichik to'y). 4. Katta to'y. Shuningdek, "Yigit yig'ish", "Polvon tovoq", "Musofir tovoq", "Dangana" kabi xalq odatlari; yana "Poyga", "Quchqor urishtirish", "Kurash", "Quloq cho'zma", kabi xalq o'yinlari; "Yor-yor" aytish, "Chipron", "Tanga soz", kabi san'at namunalari saqlanib qolgan.

Nurota an'anaviy sunnat to'ylari uch qismdan tashkil topgan bo'ladi: "1 qism to'yga tayyorganlik ko'rish odatlari: "Maslahat oshi", "Jar to'yga aytish", "qozon ko'rdi", "sabzi to'g'rash" kabi tadbirlar to'y boshlanishiga ma'naviy-ruhiy zamin tayyorlaydi. To'yning 2 qismini asosiy (bosh) tadbirlar tashkil yetadi. Unda

⁴¹ К.Очилов. Суннат тўйининг халқ оғзаки ижодида тасвирланишига доир. – ЎТА., 2004 й., 5-сон, 65-бет

“Mehmon ko’tish” (“Qunoq olish”), ziyofat va bazm berish, tomosha, o’yin va musobaqalar uyushtiriladi. Boy kishilar o’tkazadigan sunnat to’yi bir necha kun davom etishi mumkin. Unda qadimda katta tomoshalar (mazxarabozlar, dorbozlar, polvonlar, qo’g’irchoqbozlar san’anti) namoyish qilingan boshqa joylar o’tkazilayotgan sunnat to’ylarida ham ko’rinib qolmoqda. “Toy mindi” odati shundayki, to’y kuni ona tomonidan buvisi maxsus bezatilgan toychaga “To’y bolani” mindirib, uni ko’chalar bo’ylab, karnay-so’rnay sadolari ostida sayr ettiradi. Sayr to’yxona eshigi oldida katta ommaviy raqsga tushish bilan yakun topadi. To’y kuni o’tkaziladigan odatlaridan yana biri – “bola qochdi” odati ham diqqatni tortadi: katta bolalar “to’y bola”ni biron joyga (masalan, tog’asinikiga) bekitib qo’yishadi. So’ng xabarchi yigit bola bekitilib qo’yilgani haqida xabar beradi va to’y egasidan “sovg’a” talab qiladi. Xabarchi, olgan “sovg’a”sidan qanoatlanganidan so’ng barcha yigitlar “to’y bola” bilan birga mash’allar yoqib, to’yxonaga kelishadi, bu yerda gulxanlar yoqib o’yin-kulgu qilishadi.

Sunnat to’yining uchinchi (yakuniy) qismi - bu to’ydan keyingi tadbir bo’lib, to’yda xizmat qilganlarni taqdirlash, ularga alohida ziyofat berish, sovg’alar in’om etish, shuningdek, “to’y bola” ning holidan xabar olish qabilardan iborat bo’ladi.

Hozirgi paytda xatna qildirish odati dunyoning barcha musulmon xalqlari orasida keng tarqalgan. Xatna O’rta Osiyoda qadimdan mavjud bo’lgan, degan taxminlar bo’lsa-da, biroq u arablar istilosi (VIII asr)dan so’ng keng tarqalgan. Turli xalqlarda xatna qilish turli yoshlarda (8 kunlikdan, to o’spirinlik davrigacha o’tkaziladi) bo’lgan. O’rta Osiyoda xatna o’g’il bolalik go’dak yoshidan bolalik yoki o’smirlik yoshida o’tayotgan paytda katta to’y qilish orqali nishonlangan. Keyingi davrlarda esa xatna bolaning toq yoshlarida, chunonchi, 3, 5, 7 yoshida o’tkaziladigan bo’lgan.

O’zbeklarda xatna mahalliy odatlar bilan chatishib, o’ziga xos xususiyatlar bilan boyib, to’y - bayram darajasiga ko’tarilgan. Bu odat o’zbek diyorining turli

joylarida o'ziga xos nomlar "xatna to'yi", "sunnat to'yi", "qo'lni halolash", "o'g'il to'yi" kabi nomlar bilan yuritiladi.

Muchal to'yi – xalqimizning uzoq asrlar davomida shakllangan aksariyat an'analari ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan, muhim o'zgarishlarni alohida marosim (yoqi to'y) sifati nishonlash asosida paydo bo'lgan. Jumladan, o'g'il-qizlarning bolalikdan o'smirlikka o'tish - muchal yoshini nishonlash ota-onalar uchun katta quvonch baxsh etgan. Shuning uchun ham muchal yoshini nishonlash an'anaviy marosimga aylangan. Muchal yoshini nishonlash umrning bir davridan ikkinchisiga o'tish - bolalikdan o'smirlikka o'tish tantanasi sifatida bayram qilingan. Chunki bu davrdan so'ng bola vujudida tabiiy jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. U jisman va ma'naviy ulg'ayadi

Xullas: XX asrda an'anaviy o'zbek xalqi bayramlari sho'rolar davrida ko'llab ta'qib tazyiqlarni boshidan kechirdi, ularning barchasiga bardosh berib qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Mustaqillik tufayli o'zbek bayramlari tarixda yangi sahifa ochdi.

III 3. Milliy hunarmandchiligi

O'rta Osiy hududida hunarmandchilik muhim va qadrlanadigan mashg'ulot hisoblanganidek Nurota vohasi kishilarining hayotida ham hunarmandchilik muhim ahamiyat kasb etgan. Xalq orasida hunarmand kishini, hunar egasini usta deb chaqirish odat tusiga kirgan. Yigit kishiga yetmish hunar ham oz maqolining tez tez tilga olinishi bejiz emas. Hatto kasb hunarli kishilarning hunar kuchi aql idroki bilan hayotdagi turli mashaqqatlarni bartaraf etishlari xalq og'zaki ijodiga ko'chib afsonalashgan ertaklarga o'tgan. Nurota qadim zamonlardan hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lib kelgan, O'rta Osiyodagi hududlardan sanaladi. Nurotalik hunarmandlar tomonidan yasalgan buyumlar asrlar davomida jahon bozorida raqabotga asrlar osha bardosh berib kelgan. XIX asrga kelib O'rta Osiyoda hunarmandchilik sohasida metalga ishlov berish keng o'rin tutdi. Bu o'z navbatida Nurota hunarmandchiligida ham ko'zga tashlanib turadi. Metalga ishlov

berish sohasida temirchilik keng tarqaldi. Temirchilikning rivojlanishi hunarmandchilikning turli sohalarini kerakli asbob uskunolari bilan ta'minlab keldi. Temirchilik sohasi keng tarmoqli va tor ixtisosli bo'lgan. Qadimda Nurota temirchilari tomonidan turli mahsulotlar tayyorlanib kelingan. Jumladan bir guruh ustalar tomonidan mayda maxsulotlar, uy zanjirlari, taqalar, mixlar, arava o'qlari tayyorlangan bo'lsa, yana bir guruh temirchilar tomonidan hunarmandchilik boshqa vakillari tomonidan ishlatiladigan mehnat qurollari jumladan, o'roq, chalg'i ketmon kabi mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lsa, boshqa bir guruh tomonidan pichoq, qaychi kabi uy ro'zg'or maxsulotlari ishlab chiqarilgan. O'rta Osiy hududida hunarmandchilikning mehnat taqsimoti, ayrim joylarda ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga tabiiy yer osti boyliklarining joylashuvi sabab bo'lgan. Jumladan bunday mehnat taqsimoti tabiatning inomiga qarab rivojlanar ekan Nurota vohasida qadimdan sangtaroshlikning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Shunday ekan qadim zamonlardan boshlab Nurotaning usta sangtaroshlari tomonidan tabiatning eng noyob inomi bo'lmish marmar toshlardan turli xil uy ro'zg'or buyumlarini yasash an'ana sifatida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Jumladan Nurotalik usta sangtaroshlar tomonidan tosh qozonlar, tovoq va likobchalar xonadonlarda uy ro'zg'or buyumi sifatida ishlatish uchun va azim Nurota shahriga mehmonga kelganlar uchun esa esatilik sovg'alari sifatida olib ketish uchun yasab kelingan. Nurotalik sangtoroshlar tomonidan yaratilgan uy ro'zg'or bo'yumlari ular tomonidan san'at darajasida ishlov berganlar. Sangtaroshlar tomonidan yaratilgan hunarmadchilik maxsulotlari orasida nafaqat uy ro'zg'or maxsulotlari bo'lgan balki ular tomonidan me'morchilikda ishlatish uchun turli ustunlarning tagkursilari, tosh tarnovlar va tosh lavxalar yasab kelingan. Nurotalik sangtaroshlar mag'ribda mashriqda ma'lum va mashhur bo'lganlar.

Nurota vohasida hunarmandchilikning rivojlanishida kulolarning o'rni o'ziga xos o'rini bor. O'rta Osiyoning barcha shaharlari singari qadim va navqiron Nurotada ham kulolchilik taraqqiy etgan edi. Nurota usta kulollar tomonidan

yaratilgan kulolchilik maxsulotlar o'ziga xos tarzda yaratilgan va mana shu shakllari bilan ajralib turgan. Albatta nurotalik usta kulollar tomonidan yaratilgan ko'za, ko'zacha, kosa, piyola, xum, tog'ora kabi uy ro'zg'or buyumlariga talab hamisha katta bo'lgan. XIX asrdan boshlab O'rta Osiyoning kulollari tomonidan sopolga qo'rg'oshindan foydalanib ishlov berish, yani sir berish keng urf bo'lgan. Shunday ekan bu uslub nurotalik kulollar tomonidan ham keng qo'llanib kelingan.

Hunarmandchilikning keng tarqalgan sohalaridan biri bu harrotchilik edi. Nurotalik harrotlar tomonidan bolalar beshigi va belanchak, chilim va yog'och tovoq, kosa hamda laganlar ishlab chiqarilar edi. Bu soha o'z navbatida hunarmandchilikning keng taraqqiy etgan sohalaridan sanaladi. Nurotalik harrotlar tomonidan yaratilgan maxsulotlar orasida yog'och beshiklar alohida o'rin tutgan. Qadimda chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan Nurota vohasi aholisi turmush tarzida bola parvarishi jarayonida beshik alohida ahamiyat kasb etgan. Bola parvarishi jarayonida beshikning nechog'lik ahamiyatli ekanligini biz u bilan bog'lik bo'lgan bugungi kunga qadar saqlanib qolgan ma'rosimlardan biri bo'lgan beshik to'yi misolida ko'rishimiz mumkin. Usta hunarmandlar beshik yasashda asosan mahalliy bo'lgan tut daraxti yog'ochidan va tol daraxtining yog'ochlaridan foydalangan. Bundan tashqari harrotlar tomonidan yasalgan uy ro'zg'or buyumlaridan kundalik turmush jarayonida keng foydalanib kelingan. Bunday uy ro'zg'or maxsulotlari orasiga chulpilar, laganlar, yog'och qoshiqlar, kuvilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bunday maxsulotlar o'zlarining tabiiy xususiyatlari bilan ajralib turgan. Bugungi kunda Nurota vohasining ayrim xonadonlari usta hunarmand tomonidan yaratilgan harranglik maxsulotlarini hali hamon uchratishimiz mumkin.

Nurotalik usta hunarmandlar tomonidan yaratilgan hunarmandchilik maxsulotlari orasida usta hunarmand ayollarimiz tomonidan tayyorlangan qo'l mehnatining maxsuli hisoblangan maxsulotlar – kashtalar va so'zanalar ayniqsa ma'lum va mashxur bo'lgan. Jumladan gilam to'qish, chopondo'zlik, kashtachilik, do'ppi tikish, namat tayyorlash ayniqsa hunarmandchilikning muhim, rivojlangan

turlaridan edi. Qadimdan nurotalik usta hunarmand ayollar tomonidan tayyorlangan kasanachilik maxsulotlari ayniqsa, ma'lum mashxur bo'lgan. Nurotalik ayollar so'zana va kashtachilikda o'ta didli, jumladan tabiatning go'zal manzarasini, gulzor, gullagan bog'ning bir ko'rinishini yangi, ijodiy badiiy talqinlarda ifodalashga intilganlar. Ular so'zana va kashta tayyorlar ekanlar, tikayotgan ishlariga o'zlarining qalb dunyosidagi tuyg'ularini ham singdirib turli ranglarda jilo berganlar.⁴² Ularning mashaqqatli mehnatlari evaziga mazkur sohalar amaliy san'at darajasiga ko'tarilgan. Nurotalik ayollar mazkur sohaga kirishar ekanlar o'zlaridan shogirtlar qoldirishga harakat qilganlar. Bunda kashtachilikning sir asrorlari avloddan-avlodga o'tib kelingan. Unda onalar o'zlarining qizlariga mazkur sohaning sir-sinoatlari o'rgatib kelgan. Qadim zamonlardan boshlab Nurota vohasi qizlarining seplariga o'zlari tomonidan tayyorlangan kashtachilik va so'zanachilik na'munalari yig'ib kelingan. Nurotalik ayollar kundalik turmush jarayonida ishlatiladigan o'zlari ishlab chiqarishga uringanlar. Chorvador nurotalik hayotida suruv chorvachiligi qadimdan rivojlangan. Chorvachilik maxsuloti bo'lgan jundan ayollar tomonidan qadim zamonlardan boshlab gilam to'qish, namat tayyorlash an'ana tusiga kirib kelgan. Bu jarayon bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Nurotalik ayollar gilam to'qishda ancha moxir sanalganlar. Ular tomonidan to'qilgan gilamlar o'z xodonlarini bezatish bilan birgalikda bozorlarda ham ancha xaridorgir maxsulot sanalgan. To'g'ri gilam to'qish jarayoni o'ziga xos uzoq va mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Garchi shunday bo'lsada bu sohaga ular tomonidan aldohida etibor qaratilgan. Gilam to'qish bilan birgalikda nurotaliklar orasida namat tayyorlash ham ancha keng tarqalgan soha hisoblanadi.

Nurota vohasi qadim zamonlardan boshlab hunarmandchilikning o'ziga xos shakllari rivojlangan hudud hisoblangan. Bu yerlik usta hunarmandlar tomonidan yaratilgan maxsulotlar mag'rib va mashriqda ma'lum va mashxur bo'lgan.

⁴² Хирочева М. Улуғвор салохият қаршисидаги хайрат. Тошкент.: 2005. 56-бет

XULOSA

Nurota azaldan qadimiy va betakror, boy va obod shahar. Qariyb ikki ming yillik tarixga ega ushbu qutlug' maskan insoniyatning yirik madaniy beshiklaridan biri sifatida o'zida boy tarix va tamaddunni mujassam etgan, xalqimiz, millatimiz dovrug'ini butun dunyoga tarqalishida muhim o'rin tutgan.

Nurota haqidagi bunday ta'rifu e'tiroflar har bir yurtdoshimiz qalbida cheksiz g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otishi tabiiy.

Nurota shahrining uning vujudga kelishi Nur atamasining qanday vujudga kelganligi to'g'risida turli fikrlar mavjud. Shaharning Nurota deb atalishini kimdir Nurda islom dini targ'ibotchisi Shaxy Abul Xasan Nuriy nomi bilan bog'lasa, kimdir erta tongda chashma suvning bug'lanishi va unga quyosh tasirida havoda ko'ringan shafaqni nur deb atashgan holda "nurato" yani nur ato etuvchi degan fikrlar bilan izohlaydi.

Nurota shahri Oqtog' va Qoratog' bag'ridagi so'lim go'sha qadimiy shahar. Uning qachon barpo etilganligi to'g'risida hali-hamon aniq ma'lumotlar mavjud emas. Nurota shahrining qadimiyliги to'g'risida xalq orasida tarqalgan ma'lumotlarga qaraganda Nurota shahrining barpo etilishi Iskandar Zulqarnayn davriga borib taqaladi. Nurota va uning atrofidagi majmualarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha Qal'a va uning atrofida insoniyat izlari 38-42 ming yillarni tashkil etishi keltirib o'tilgan. Nurota shahrining qadimiy shahar xarobalari I-IV asrlar bilan belgilansa, uni o'rab turgan mudofaa devori Pirosta devorining vujudga barpo etilishi VI asrlar bilan belgiladi. Narshaxiy keltirgan ma'lumotlarga asoslangan holda keltirib o'tsak IX asrlarda Nur shahri gullab yashnagan. Nurota va uning asosiy me'moriy inshootlari shayboniylar hukumronligi davrida qayta tiklangan.

Ming yillardan beri insoniyat bu shaharga hayrat va qiziqish bilan boqadi, sayyohlar unga talpinadilar, shoirlar uni madh etib go'zal ash'orlar bitadilar. Dunyoda bu kentning go'zalligidan, uning musaffo havosi-yu, zilol suvidan

bahramand bo'lish, betakror tarixiy obidalarini ko'rishni orzu qilmagan odamning o'zi yo'q.

Nurota o'tmishda yirik savdo va hunarmandchilik, fan va madaniyat markazi, Buyuk Ipak yo'li ustidagi savdo shahri sifatida dovrug' qozongan. Nurota shahri va unga tutash hududlar aholisi qadim zamonlar keng miqyosda hunarmandchilik rivojlangan hududlardan sanalgan. Nurota shahri yaqinidan o'tgan Buyuk Ipak yo'lining bir tarmog'i bo'lgan "Xon yo'lining" mavjudligi mazkur shaharda savdo – sotiqning rivojlanishiga turtki bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan voha aholisi iqtisodiyotida, turmush tarzi hamda ijtimoiy siyosiy hayoti katta ahamiyat kasb etgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha Nurotaga ko'plab yirik karvonlari kelib turgan. Bu o'z navbatida aholining moddiy va ma'daniy hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan savdo karvonlari bilan nafaqat savdo almashinish balki madaniyat almashinib turilgan, dunyo sivilizatsiyasi namunalari bilan tanishib borilgan.

Nurota shahrining Nur yoki Nuri Buxoro deb atalishi o'z navbatida uning Buxoro davlatida yirik siyosiy ahamiyat kasb etishini ko'rsatib o'tadi. Nurota shahri dastlab harbiy qarorgoh va savdo shahri hisoblangan. U Buxoro xonligining harbiy sitrategik ahamiyatga ega bo'lgan qismi sanalgan harbiy garnezon vazifasini ham o'tagan.

O'rta Osiyoga arablarning kirib kelishi va mazkur mintaqada islom dinining tarqalishi munosabati bilan Nurota bekligining diniy markaz sifatida ahamiyati oshib borgan. Narshaxiy keltirgan ma'lumotlarga qaraganda Nurotaga ziyoratga kelgan kishining obru-etibori oshib ziyoratdan borgandan so'ng shaharning bezatilishiga etibor qaritilsa Nur shahrining islom dini dunyosida qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rib o'tish mumkin.

Nurota shahri hunarmandchilik taraqqiy etgan shaharlardan sanaladi. Nurota usta hunarmandlari kulolchilik, harranglik, temirchilik, sangtaroshlik rivojlangan. Nurota usta kulollari yaratgan kulolchilik namunalari kundalik turmushda hatto boshqa hududlarga ham olib ketilgan. Nurotalik Sangtaroshlar va

ularning san'at namunalari bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Usta hunarmand ayollar o'zlarining qalb qo'rlarini jo qilib ishlagan kasanachilik maxsulotlari dunyo ahlini hali hamon lol qoldirib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida ozod va obod yurtning bebaho durdonasi, tarix va zamonaviylik uyg'unlashgan betakror shahar sifatida yanada ravnaq topmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida milliy qadriyatlarimiz, an'analarimizni asrab-avaylash, keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratila boshladi. Bugun mamlakatimizda, jumladan azim va navqiron Nurotada ham keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Ajdodlarimiz zakovati va salohiyati mahsuli bo'lgan me'moriy obidalarni qayta ta'mirlash, kelgusi avlodlarga bekamu ko'st yetkazish borasida ishlar ko'lamini yanada kengaytdi. Nurota shahrining qadimiy merosi sanalgan tarixiy obidalarni asrash va avaylash ularni kelajak avlodga yetkazib borish ma'suliyati o'laroq bugungi kunda Nurota shahrida keng ko'lamli ta'mirlash va obodlashtirish ishlari olib borilmoqda. Olib borilgan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari natijasida 2010-2011 yillarda Nurota shahrining tarixiy qadamjolari, jumladan Chashma majmuasida joylashgan Chilustun jome' masjidi, Panjvaqt qome' masjidi hamda chashma atrofida umumiy maydon va Nurota tabiiy memoriy muzeyi qaytadan tamirlandi. Mazkur majmuani tamirlashda umumiy 7 mlrd. sum maqlab hisobida ishlar olib borildi.

Olib borilgan amaliy ishlar natijasida tarixiy obidalar ta'mirlanib, ular atrofi obodonlashtirildi, yangi yo'llar qurildi, bog' va xiyobonlar tashkil etildi. Chilustun jome' masjidi, Eshoni Sudur hammomi, Panjvaqta jome' masjida, Sayyid ad-din Nuriy qabri kabilar qaytadan ta'mirlanib obod etildi, atroflari obodlashtirilib ko'kalamzorlashtirildi.

Ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida Nurota yurtimizning madaniy markazlaridan biriga ham aylanib bormoqda. Istiqloq yillarida Nurotani dunyoning eng go'zal sayyohlik maskanlaridan biriga aylantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Natijada ushbu maskanlar zamonaviy ko'rinishga ega

bo'lib, yo'lovchilarga yuqori sifatli servis xizmati ko'rsatish imkoniyatlari yaratildi. Nurota shahrining markaziy ko'chasi bo'lgan X.Xudoyqulov ko'chasida yo'laklar ta'mirlanib, zamonaviy yoritish chiroqlari o'rnatildi. Markaziy xiyobonning irrigasiya tizimi to'liq yangilandi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Chor Rossiyasi O'rta Osiyoni bosib oldi. Istilochilar o'z siyosati bilan birga, bu yerga o'z madaniyatini olib kirishga intildi. Sho'rolar hokimiyatni egallaganidan keyin o'z g'oyasiga mos kommunistik madaniyat yaratib, sho'rocha bayramlarni hayotga joriy qila boshladi. Xalqning fan an'anaviy bayramlari rasmiy davlat bayramlari qatoriga kiritilmay, taqiqlandi. Mustaqillikka erishilganidan keyingina o'zbek xalqining milliy an'anaviy bayramlari tiklana boshlandi.

Mustaqillik davrida milliy an'analarni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, xalqimizning tarixiy merosi bo'lgan an'analardir (Navro'z, Ro'za hayiti, Qurbon hayitlari rasman tiklandi) Istiqlolning yangi bayramlar Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, O'qituvchilar va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kabilar joriy etildi. Umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi bayramlar Yangi yil bayrami, Xotin-qizlar bayrami saqlanib qolindi. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimizning tavalludlarini nishonlash ham xalqimizning eng mo'tabar an'alariga aylandi.

Hozirgi nikoh to'ylari (bazmi) asosan restoran yoki hovlilarda nishonlanasada, undagi dabdabavozlik, o'ta zamonaviy qilib to'y marosimlarini nishonlash, milliylik ruhini yuqolib ketishini oldini olish lozim.

Hozirgi paytda oilaviy marosimlar, jumladan, turli to'y tadbirlari ta'sirchanligini yanada oshirish uchun: turar joylarda xalq marosimlari kengashini to'zish; ana'anaviy xalq odatlarining eng yaxshi jihatlarinin keng targ'ib qilish; kam daromadli oilalarning to'ylarini mahalliy rahbarlar yordamida uyushtirish; oilaviy marosimlar tarkibida ko'p harajat talab qiladiigan tadbirlarni; nikoh to'y marosimlarini ixchamlashtirib, barcha tadbirlarni bir kunda o'tkazish; marosim liboslari bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazish; marosimlarni ixcham, fayzli va yuqori

madaniy – badiy saviyada uyushtirish; yaqin qarindoshlar (masalan, akakalarning)ning bir-biri bilan quda anda bo'lishining salbiy oqibatlarini tushuntirish lozim.

Nikoh to'yi oila ko'rgan yigit va qiz odida jamiyatning yangi, kichik yacheykasini tuzish, avlodni davom ettirish, jamiyatga xizmat qilish kabi ijtimoiy vazifalarni ham yuklaydi. Shuning uchun ham katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan to'ylarni o'tkazish jarayonida asosiy diqqatni ziyofatbozlikka emas, balki to'y qatnashchilarining ma'naviy oziq olishiga, yoshlar ongiga xalqimizga xos, eng yaxshi fazilatlarni singdirish, yangi oilaning mustahkam g'oyaviy-ma'naviy poydevorini yaratishga qaratmoq lozim.

Kumush, oltin va olmos to'ylar respublikamizning ba'zi madaniyat muassasalarida, klublarda. FHDYO xodimlari ishtiroqida uyushtirilmoqda. Bu to'ylar joylarda mazmun jihatdan ham, tashkiliy jihatdan ham, turlicha uyushtirilmoqda. Endilikda bu boradagi ilg'or tajribalarni umumlashtirib, ularni xalqimiz orasiga keng yoyish lozim.

Shunday ekan o'zbek xalqining madaniy merosida xalq ijod qilgan va katta ijtimoiy ahamiyatga ega turli bayramlar, ommaviy o'yinlar, an'ana va urf-odatlar alohida o'rinni egallaydi. Bayramlar va marosimlar ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlari qamrab oluvchi va kishilar o'zaro munosabatlarining turli jabhalari va shakllarida namoyon bo'luvchi muayyan urf-odat va an'analar, ahloqiy prinsiplar va huquqiy tartibotlarning tarixan shakllangan yig'indisidir. Odat tusiga kirgan marosimlar kishilik xulq-atvorini boshqarar ekan, nafaqat jamoatchilik fikrlari nufuziga, balki qabul qilingan va qaror topgan odatiy qonun-qoidalar kuchiga suyanadi.

O'zbeklar O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarning tarix sinovidan o'tgan bayramlari va marosimlari kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarni, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Ijobiy urf-odat va marosimlarda o'zbeklarning milliy ruhiyati, ularning ma'naviy ongining soddaligi va fe'l-atvorning shakllari ham namoyon bo'ladi. Asrlar davomida

shakllanib va avaylanib kelingan ijobiy rasm-udumlar va odatlardan Vatan sadoqati, yoshi kattalarga hurmat, ota-onaga, yetimlarga va qariyalarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha'nini ehtiyotlash bayram va marosimlarda ochiq namoyish qilinadi. Asrlar osha saqlanib kelingan va ijtimoiy mohiyatga ega urf-odatlardan yana biri og'ir, mashaqqiyatli kunlarda o'z yaqinlarining ochlik va kambag'allikdan gadolik yoki daydilik qilishga yo'l qo'ymaslikdir. Agar shunday odam chiqib qolguday bo'lsa, uning isnodi barcha, qarindosh-urug'lariga mahalla-ko'yga, xalqiga kelgan. Asli gadoylik mamlakat uchun dog' tushuradigan holat ekanligini «Temur tuzuklari» qoralab, unga qarshi amaliy-ijtimoiy tadbirlar o'tkazish zarurligi qayd qilingan.

O'zbek oilaviy marosimlarnining Nurota vohasida uchraydiganlarini tahlil qilish natijasida quyidagilarga diqqatimizni jalb qilishimiz lozim:

1. Asirlar osha shakllangan o'zbek xalqi oilaviy marosimlarining asosiy mohiyati - inson va oila hayotidagi eng muhim, yirik xodisalarni nishonlash bo'lib, ularni tashkil qilish jarayonida ahillik, inoqlik, imon-e'tiqodlilik, izzat-ikrom, mehr-oqibat, odob-ahloq, mehmonnavozlik, birodarlik kabi insoniy fazilatlar namoyon bo'ladi.

2. O'zbek oilalarida chaqaloq tug'ilganidan to u ulg'ayib yangi oila qurgunga qadar sodir bo'ladigan muhim voqealarni qayd qiladigan (bola bilan birga rivoj topib boradigan) marosimlar tizimi vujudga kelgan. Mazkur tizimga kirgan "Chaqaloqning dunyoga kelishi", "Ism berish", "Chaqaloq chilla", "Beshik to'yi", "Soch to'yi", "Tish to'yi", "Birinchi qadam", "Sunnat", "Muchal yoshi", "Nikoh to'yi" kabi inson rivojlanishi va kamol topishi uchun o'ziga xos ma'naviy "zina" sifatida xizmat qiladi.

3. Oilaviy marosimlarda namoyon bo'ladigan mehribonlik, mehmondo'stlik, olijanoblik kabi fazilatlar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Oilaviy tadbirlar tufayli avloddan-avlodga o'tib kelayotgan rang-barang xalq odatlari, folklor janrlari (ulan, lapar, yor-yor, marosim qo'shiqlari), raqslar, o'yin-

musobaqalar, qutlovlar, duolar yoshlarni ma'naviy barkamol inson sifatida tarbiyalash sifatida katta ahamiyatga ega.

4. Mustaqillik sharoitida oilaviy an'analarning tiklanishi - sho'rolar davrida yuz bergan xatolarni tuzatishda katta o'rin tutmoqda. Xalq an'analari qayta jonlanishi bilan bir qatorda oila hayotiga keyingi davrlarda kirib kelgan - tug'ilgan kunni nishonlash, bolaning o'quv yurtida tahsil ko'rish jarayonida uyushtiriladigan marosimlar hamda keksalarni qadrlash tadbirlari (kumush, oltin, olmos to'ylar), yubeley tantanalari kabilarni ham diqqat e'tiboridan qoldirmasligimiz lozim. Yoshlar tarbiyasida ulardan ham samarali foydalanish-davr talabidir.

5. Oilaviy marosimlar muayyan shaxs hayotidagi xususiy tadbir bo'libgina qolmay, balki (unda qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug', hamkasblar, mahalla (qishloq)doshlar qatnashgani uchun) muhim ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan xodisadir. Shu sababli, ularni mazmunli qilib, bir tomondan - xalq an'analardan samarali foydalanib, ikkinchi tomondan - zamon talabi darajasida nafaqat moddiy asosga, balki ma'naviy-badiiy saviyaga ko'proq e'tibor berib uyushtirish lozim bo'lmoqda.

6. Oilaviy marosimlar tarixiy jarayoni sifatida xalq pedagogikasi va donishmandligi bilan uyg'unlashib ketib, asrlar davomida yoshlarni tarbiyalashdagi asosiy shakllardan biri bo'lib kelgan. Shu sababli, hozirgi davrda ham xalq an'analarni qadrlagan, turli marosimlarni o'tkazishda ma'naviy-estetik jihatlarga alohida e'tibor bergan oilalarda voyaga yetgan yoshlar odob-ahloqli bo'lib voyaga yetadi.

Xullas Nurota vohasi tarixi hali to'laligicha o'rganilmagan hududlardan sanaladi. O'z sir sinoatlarini omma etiboriga naysh etmagan vohalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7- Jild. Toshkent.: Yosh.1999.
- Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент., «Ўзбекистон», 1998.
- Karimov I.A. O'z keljagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. "Turkiston" gazetasi muxbirlarining savolariga javoblar. Toshkent., «O'zbekiston», 1999.
- Каримов И.А. Ўзбекистон XIX аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекистон». 1997.
- Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. Тошкент.: Ўзбекистон, 1998.
- Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Тошкент.: Ўзбекистон, 1998.
- Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент.: Маънавият, 2008.
- Фаридиддин Аттор. Фаридиддин Аттор. Тазкират-ул авлиё. Мирзо Кенжабек таржимаси. -Т.: ЎзМЭ нашриёти, 1997.
- Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А. Расулов таржимаси. Тошкент.: Фан, 1966.
- Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр ғарихи. Нашрга тайёрловчи Сирожид- дин Аҳмад. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва. санъат нашриёти, 1990.
- Абулғози Баходирхон Шажараи турк. Тошкент.: Чўлпон, 1992.
- Ҳофиз Таниш ал-Бухорий Абдулланом "Шарафномаий шоҳий". I китоб. Тошкент.: Шарқ, 1999.
- Ғуломов Ғ.Ғ. Археологические работы к западу от Бухарского оазиса –, Труды Ин-та истории и археологии АН УзССР. Т.1956.
- Ғуломов Ғ.Ғ. Страница истории древнего орошения в Средней Азии. Правда Оастова, 1957.
- Ғуломов Ғ.Ғ. История ирригация Узбекистана с древнейших времен до середины XIX в. Ташкент.: 1975.

- Ғуломов Ғ.Ғ. Археология тарих фани хизматида. Тошкент.: Ўзбекистон, 1976.
- Ғуломов Ғ.Ғ. К изучению древних водных сооружений в Узбекистан. Изв. АН УзССР. 1955, №2
- Ғуломов Ғ.Ғ. Хонбанди. Ўзбекистоннинг суғорилиш техникаси тарихидан. - Фан ва турмуш, 1958, №4
- Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии. Тошкент.: Наука, 1966.
- Муҳаммадиев Х. Қадимги муҳофаа деворлари. Тошкент.: Фан, 1961.
- Кармышева.Б.Х.
Пещерева Е.М. Материалы этнографического обследования таджиков Нуратинского хребта.//С.Э, 1964.
- Пардаев М., Гофуров Ж., Қорабоев С.
Ғарбий
- Ғарбий устуришонанинг ер ости сув чиқариш иншоатлари ҳақида// Ўзбекистоннинг моддий маданияти тарихидан. Самарқанд.: 2011.
- Суёнов С. Нурота қоризлари ўрганиш // Ўзбекистон - қадимда ва ўрта асрларда. Самарқанд.: 1992.
- Мирзо Салимбек. Мирзо Салимбек. Тарихи Салимий. Тошкент.: Фан. 1990.
- Муҳаммаджанов А. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. Тошкент.: Фан. 1972.
- Муҳаммаджанов А. История орошения Бухарского оазиса. Тошкент.: Фан. 1978.
- Шарафиддин Али Яздий. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент.: Шарқ, 1997.
- Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репуртуари, Тошкент.: 1979.
- Иномов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О.
У. Қорабоев
- Ўзбек халқ оғзики поетик ижоди. Т.: Ўқитувчи, 1990.
- Ўзбекистон байрамлари. Тошкент.: 1991.
- О.Сафаров. Ўзбекистон халқлари этнографияси ва фольклори. Тошкент.: «Ўқитувчи» НМИУ., 2007.
- Саттаров. М. Узбекские обычаи. Тошкент, «Маънавият», 2003.
- К.Очилов Суннат тўйининг халқ оғзаки ижодида тасвирланишига доир. – ЎТА., 2004 й., 5-сон,

- Хирочева М Улуғвор салохият қаршисидаги хайрат. Тошкент.: 2005.
- Нематов Н Государство Саманидов. Душанбе.: Дониш, 1977.
- Мустақиллик изохли илмий-оммабоп луғат. А. Жалолов, Қ.Хоназаров таҳрири остида. Тошкент.: Шарқ, 1998.
- Аҳмедов Б Тарихдан сабоқлар. Тошкент.: Ўқитувчи, 1994.
- Асқаров А Ўзбек халқининг этногеши ва этник тарихи. Тошкент.: Университет, 2007.
- Буряков Б., Алаксей Г. Мавераннахр на великом шелковом пути. Самарқанд.: 2006.
- Кориев М. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент.: 1968.
- Хошимов М. Буюк Ипак йўлининг Самарқанд вилоятидаги туристик йўл кўрсатгичи. Самарқанд.: Зарафшон, 2012.
- Шавкат Исмоилзода. Нурота тарихидан саҳифалар. –Т.:Уздавматбуотли нашриёти, 2010.
- Ражабоб К, Абдиева З. Нурота //Ўзбекистон миллий энциклопедиси. Т.6. - Т.: ЎзМЭ нашркёти, 2001.
- Ражабоб К, Абдиева З. Нурота //Ўзбекистон миллий энциклопедиси. Т.7. - Т.: ЎзМЭ нашркёти, 2001.
- Умирзоқов С.,
Умрзоқов О.
Кориев М. Нурота чашмаси. Тошкент.: Фан, 2005.
- Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент.: 1968.
- Жабборов.И Ўзбек халқи этнографияси. Тошкент.: “Ўқитувчи”, 1994.
- Жабборов.И Ўзбеклар:турмуш тарзи ва маданияти.Тошкент.: “Ўқитувчи”, 2003.
- Жабборов.И Ўзбеклар. Тошкент.: “Ўқитувчи”, 1994.
- Джабборов.И Из истории этнографического изучения ўзбеков в дореволюционный период. Научные труды ТашГУ, вып. 482, Тошкент.: 1976.
- Сафаров. О. Ўзбекистон халқлари этнографияси ва фольклори. Тошкент.: «Ўқитувчи», 2007.
- Сатторов. М. Ўзбек удумлари.Тошкент.: «Фан», 1993.

- Саотов Г. Халқ байрамларининг этно-фольклор хусусиятлари. Наманган.: 1992.
- Сафаров. О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. Тошкент.: 1985.
- Л.М.Гумилев Қадимги турклар. Тошкент.: Фан, 2007.
- Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа деворлари. Тошкент.: Ўзбекистон, 2007.
- Димо Н.А. Почвенные а бассейне р. Аму-дарьи. «Ежегодник Отдела земельных улучний», ч. II. Пг., 1914.
- Муҳаммаджанов А.Р. Из истории древних водных сооружений В Узбекистане.// Земли Древнего орошения и перспективы их сельскохозяйственного использования. Масвка.: Наука, 1969.
- Гулямов.Я.Г Освоим земли древнего орошения.// Земли Древнего орошения и перспективы их сельскохозяйственного использования. Масвка.: Наука, 1969.
- Гулямов.Я.Г Кладбище кулпи-сар.// История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 2. Тошкент.: Наука 1961.
- Муҳаммаджанов А.Р. Водоизмерительные сосуды.// История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 6. Тошкент.: Наука, 1965.
- Муҳамедов Х. Нове участки Канпир-девора древнего Согда.// История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 9. Тошкент.: Наука, 1972.
- Кабилов Дж. Наскальные изображения Сармышсая.// История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 9. Тошкент.: Наука, 1972.
- Гулямов.Я.Г Исследование исторической гидрографии низовьев Кашкадарьи и Зарафшана.// История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 6. Тошкент.: Наука, 1965.
- Ипак йўли афсоналари(Жой номлари билан боғлиқ афсоналар).Нашрга тайёрловчи М. Жўраев. Тошкент.: Фан, 1993.



Abdullaxonbandi suv ombari(XVI asr) qoldiqlari



Abdullaxonbandi suv ombari



Nurota vohasining sputnikdan olingan tasviri



Nurota shahrining sputnikdan olingan tasviri



Nur qal'asining sputnikdan olingan tasviri



Nur qal'asining kuzatuv minorasi



Nur qal'asining sharqiy devori



Nur qal'asining sharqiy tomondan ko'rinishi



Nur qal'asi devor qoldiqlari



Nur qal'asining deovrining g'arbiy tomondan kurrinishi




Devorlarning ko'rinishi



Panjvaqta jome masjidining umumiy ko'rinishi



Panjvaqta jome masjidining yon tomondan ko'rinishi



Panjvaqta jome masjidining mehrobi



Panjvaqta jome masjidiga kirish tomondan ko'rinishi



Chilustun Jome masjidi



Chilustun jome masjidi




Nurota chashma majmuasiga kirish



Panjvaqta jome masjidining kirish tomondan ko'rinishi



Panjvasta jome masjidi 2010 yiligi ta'mirlashdan odingi holati



Nurota voxasi kulolchilik namunalari



Nurota vohasida keng tarqalgan harrotlik namunalari



Nurota voxasidan topilgan qadimgi misgarlik namunalari



Nurotalik usta sangtaroshlarning tomonidan yaratilgan sangtaroshlik namunalari